

**MUXAMMAD AI-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

HARBIY KAFEDRASI

**QURUQLIKDAGI QO‘SHINLARDA HARBIY ALOQA TASHKIL ETISH
ASOSLARI**

O‘quv qo‘llanma

Toshkent-2018

Mualliflar: A.T.Abdujamilov, O'.K.Bobojonov. "Quruqlikdagi qo'shinlarda harbiy aloqa tashkil etish asoslari". O'quv qo'llanma. – Toshkent: TATU. 2018. -88 b.

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent axborot texnologiyalari universiteti harbiy kafedrasida talabalarining "Taktik maxsus tayyorgarlik" fani o'quv dasturiga mos ravishda yaratildi. O'quv qo'llanmada Quruqlikdagi qo'shinlarda aloqa tashkil etishning umumiy qoidalari ko'rib chiqildi. Aloqachi ofitserlarni tayyorlashda taktik-maxsus tayyorgarlikning o'rni va ahamiyati yoritib berildi.

Qo'shnlarni va qurollarni boshqarish haqida, boshqaruv tizimi, uning tashkil etuvchilari bo'lgan boshqaruv organlari, boshqaruv vositalari, boshqarish punktlari, aloqa tizimi haqida batafsil ma'lumot berildi.

Aloqaning vazifalari va aloqaga qo'yiladigan talablar belgilandi. Boshqarish punktlari aloqa tugunlari (aloqa uzellari)ning tasnifi, klassifikatsiyasi, ularda jangovar navbatchilikni va tezkor-texnik xizmatni tashkil qilish masalalari, tezkor-texnik xizmat xujjatlari va ularni yuritish qoidalari ko'rib chiqildi. Aloqani jangovar, texnik va xo'jalik ta'minoti bo'yicha tadbirlar yoritildi.

Mazkur o'quv qo'llanma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU harbiy kafedrasida tahsil olayotgan talabalar, TATU Maxsus fakulteti kursantlari, shuningdek O'R Qurolli Kuchlari safida xizmat qilayotgan aloqachilar uchun o'quv jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan. Mazkur o'quv qo'llanma talabalarga, kursantlarda va harbiy xizmatchilarga harbiy aloqa tashkil etishda nazariy va amaliy jihatdan bilimlarini oshirish uchun xizmat qiladi.

O'quv qo'llanma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-uslubiy kengashining qarori bilan chop etishga tavsiya etildi (2018 yil "___" "_____" "___" – sonli bayonnoma).

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 2018

Mundarija

KIRISH.....	5
1. Aloqachi-ofitserlarning jangovar tayyorgarligida taktik-maxsus tayyorgarlikning oʻrni va ahamiyati	5
2. Koʻshinlarni (kuchlarni) va qurollarni boshqarish	8
Nazorat savollari	13
3. Boshqaruv tizimi.....	14
3.1. Boshqarish organlari	14
3.2. Boshqarish vositalari.....	15
3.3. Boshqarish punktlari	16
3.4. Aloqa tizimi.....	18
Nazorat savollari	18
4. Aloqaning vazifalari va unga koʻyiladigan talablar	19
4.1. Boshqarish tizimidagi axborot	19
4.2. Aloqaning turlari va koʻrinishlari	20
4.3. Aloqaning vazifalari.....	21
4.4. Aloqaga qoʻyiladigan talablar	23
4.5. Aloqa oʻrnatishning asosiy tamoyillari. Aloqa oʻrnatish va saqlashning javobgarliklari	27
Nazorat savollari	29
5. Aloqa tizimi	29
5.1. Aloqa tugunlari	30
5.2. Aloqa liniyalari	30
5.3. Aloqa qoʻshinlari.....	32
5.4. Aloqa tizimiga qoʻyiladigan talablar	33
5.5. Harbiy aloqa tizimlari tuzilishining tamoyillari.....	38
Nazorat savollari	40
6. Boshqarish punktlari aloqa tugunlari	41
6.1. Aloqa tugunlari klassifikatsiyasi.....	41

6.2. Boshqarish punktlari aloqa tugunlariga qo‘yiladigan vazifalar	44
6.3. Aloqa tugunlariga qo‘yiladigan talablar.....	44
6.4. Aloqa tugunlarining tashkiliy-texnik tuzilishi	46
6.5. Aloqa tuguni elementlari.....	47
6.6. Aloqa tugunlarini yoyish, joylashtirish va ko‘chirish.....	49
Nazorat savollari.....	54
7. Aloqa tugunlarida tezkor-texnik xizmat.....	54
7.1. Umumiy qoidalar.....	54
7.2. Aloqa tugunlarida jangovar navbatchilikni tashkil qilish	56
7.3. Navbatchi smena shaxsiy tarkibini ATda jangovar navbatchilikii o‘tashga tayyorlash	57
7.4. Navbatchi smena shaxsiy tarkibi bilan yo‘riqnoma (instruktaj) o‘tkazish va AT da jangovar navbatchilikka tushish tartibi	58
7.5. Jangovar navbatchilikni o‘tash.....	60
7.6. Aloqa tugunida jangovar navbatchilik o‘tashni tekshirish.....	60
7.7. Aloqa tugunlarida tezkor-texnik hujjatlar	62
Nazorat savollari.....	70
8. Aloqaning jangovar, texnik va xo‘jalik ta’minoti	71
8.1 Jangovar ta’minoti.....	71
8.2. Aloqaning texnik ta’minoti	77
8.3. Xo‘jalik ta’minoti.....	78
Nazorat savollari.....	79
9. Aloqani boshqarish	79
Nazorat savollari.....	87
Adabiyotlar	88

QURUQLIKDAGI QO'SHINLARDA ALOQA TASHKIL ETISH ASOSLARI

KIRISH

Xalqaro munosabatlar o'ta murakkab bo'lgan sharoitda davlatimiz mamlakat mudofaa qudratini mustahkamlashga qaratilgan muammo va yechimlarni hal qilishga alohida e'tibor bermoqda. Qurolli Kuchlarimizni tubdan isloh qilish ishlari olib borilayotgan bosqichda aloqachi ofitserlarga bo'lgan talablar kundan-kunga oshib bormoqda.

Ayniqsa ularning nazariy tayyorgarligiga, amaliy jihatdan yetukligiga talab yuqori bo'lmoqda. Aloqachi ofitserlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va Vataniga cheksiz sodiq, kuchli iroda va jasoratli inson, bilimdon tashkilotchi bo'lishi, oydin fikrga, keng dunyoqarashga, chuqur taktik, taktik-maxsus va texnik bilimlarga ega bo'lishi zarur.

Aloqachi ofitser yaxshi tashkil qilingan va ishonchli faoliyat ko'rsatadigan aloqaga ega bo'lmasdan turib qo'shnlarni boshqarishning imkoni yo'qligini doimo esda saqlashi darkor. Aloqani yo'qotish qo'shnlarni boshqarishni yo'qotishga olib keladi, bunga esa zamonaviy jangda aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. To'g'ri tashkil qilingan aloqa va uning aniq ishi komandirga va uning shtabiga qo'shnlarning ishonchli boshqaruvini va qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydi.

Harbiy aloqa – qo'shinlar (kuchlar) ni va qurollarni boshqarish tizimida axborot almashishi uchun mo'ljallangan aloqadir. Komandir va shtab qo'shnlarni aloqasiz uzluksiz boshqara olmaydi, qo'shinlar esa maqsadli jangovar harakatlarni olib bora olmaydilar. Shuning uchun bo'ysunuvchi va hamkorlikda harakat qilayotgan qo'shinlar bilan o'z vaqtida aloqa o'rnatish

1. Aloqachi-ofitserlarning jangovar tayyorgarligida taktik-maxsus tayyorgarlikning o'rni va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkiliy jihatdan Qurolli Kuchlar turlar (ko'rinishlari), qo'shin turlari va maxsus qo'shnlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga Quruqlikdagi qo'shinlar, Havo xujumidan mudofaa va Harbiy havo kuchlari qo'shnlari, Davlat havfsizlik xizmatining Chegara qo'shnlari, Ichki ishlar vazirligining Ichki qo'shnlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligining fuqarolarni himoyalash qo'shnlari va Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shnlari kiradi.

Qo'shin turlariga motoo'qchi qo'shinlar, tank qo'shinlari, havo-desant qo'shinlari, artileriya qo'shinlari, Quruqlikdagi qo'shinlarning havo xujumidan mudofaa qo'shinlari (QQ HXMQ) kiradi. Maxsus operatsiya bajaruvchi kuchlar qo'shinlarning alohida turi hisoblanadi.

Maxsus qo'shinlarga: razvedka qismlari va bo'linmalari; muhandislik birlashmalari, qismlari va bo'linmalari; kimyoviy qismlar va bo'linmalar; aloqa qo'shinlari; texnik ta'minot qismlari va bo'linmalari; topografiya bo'linmalari; xo'jalik ta'minot birlashmalari, qismlari va bo'linmalari kiradi.

Qo'shinlar tashkiliy jihatdan bo'linma, qism, qo'shilma, birlashmalardan tarkib topgan.

Bo'linma – doimiy va odatda bir xil tarkibli tuzilma. Batalon, vzvod, guruh, eskadrilya, batareya, seksiyalar bo'linma hisoblanadi.

Qism – tashkiliy jihatdan mustaqil bo'lgan jangovar va ma'muriy birlik. Alohida batalon va divizionlar – qismdir.

Qo'shilma – bir necha kichik o'lchamdagi qismlardan tashkil topgan tuzilma. Brigadalar qo'shilma hisoblanadi.

Birlashma – bir necha qo'shilmadan tashkil topgan tuzilma. Harbiy okruglar (HO) birlashma hisoblanadi.

Quruqlikdagi qo'shinlar asosini motoo'qchi tank qo'shinlari tashkil etadi.

Motoo'qchi va tank brigadalari umumqo'shin taktik qo'shilmalari bo'lib, o'z ichiga batalonlarni, har xil qo'shin turlarini, maxsus qo'shin va qo'shinlarning alohida batalonlari (divizionlari) ni oladi.

Motoo'qchi va tank batalonlari asosiy umumqo'shin taktik bo'linmalari hisoblanadi, motoo'qchi va tank vzvodlari esa - taktik bo'linmalaridir.

Jang – qo'shinlar taktik harakatining asosiy shaklidir. Jangni qo'shilma, qism, bo'linma olib boradi.

Maxsus harbiy harakatlar terroristik tashkilotlarning qurollangan to'dalarini tor-mor etish maqsadida o'tkaziladi.

Maqsad, vazifa, o'rni va vaqti bo'yicha kelishilgan, o'zaro bog'langan janglar (maxsus harbiy harakatlar) yig'indisi operatsiya (maxsus operatsiya) deb ataladi.

Operatsiyalarni birlashmalar olib boradi.

Harbiy san'at - bu harbiy harakatlarni tayyorlash va o'tkazish nazariyasi va amaliyotidir. U strategiya, tezkor san'at va taktikani o'z ichiga oladi.

Strategiya - harbiy san'atning oliy qismi bo'lib, mamlakatni va qurolli kuchlarni urushga tayyorlash nazariyasi va amaliyotini, urush va strategik operatsiyalarni rejalashtirish va o'tkazishni o'z ichiga oladi.

Tezkor san'at - Qurolli Kuchlarning turli ko'rinishli birlashmalarining operatsiyalarini tayyorlanish va o'tkazish nazariyasi va amaliyotini o'z ichiga oladi.

Taktika - Qurolli Kuchlarning turli ko'rinishlari, qo'shin turlari, maxsus qo'shin bo'linmalari, qo'shilmalari jangini tayyorlash va o'tkazish nazariyasi va amaliyotini birlashtiradi. Taktika - harbiy san'atning eng harakatchan qismidir. Taktika qo'shinlarning amaliy faoliyatiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan.

Aloqa qo'shinlari maxsus qo'shinlar tarkibiga kiradi.

Demak, taktik maxsus tayyorgarlik (TMT) qo'shinlarining jangda (operatsiyada) aloqa bilan ta'minlash bo'yicha harakat taktikasidir. U uchta tashkil etuvchidan iborat;

- zamonaviy jang asoslari bilimi;
- jangda aloqa tashkil qilish nazariyasi va amaliyoti;
- jangda aloqa qismlari va bo'linmalarini, hamda aloqa vositalarini jangovar qo'llashning nazariyasi va amaliyoti.

Amalda TMT da aloqa qo'shinlari shaxsiy tarkibining ta'limning barcha yo'nalishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalari jamlangan bo'lib, ular aloqa qismlari va bo'linmalarining jangovar tayyorgarligini tashkil etadi. Yuqori darajadagi taktik maxsus tayyorgarlik jangda (operatsiyada) aloqa ko'shinlarining boshqaruvni ta'minlovchi aloqa o'rnatish bo'yicha jangovar vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan harakatini tashkil etishga imkon beradi.

TMT ning asosiy tashkil etuvchi qismlarini ko'rib chiqamiz.

Zamonaviy jang (operatsiya) asoslari bilimi. Bu ayniqsa aloqa qo'shinlarida ofitserlar tarkibini tayyorlashda boshlang'ich va dastlabki tashkil etuvchi hisoblanadi. Zamonaviy jang asoslarini, uni tayyorlash, tashkil etish, o'tkazish, qo'shin turlarining va maxsus qo'shinlarning ahamiyati va o'rnini bilish natijasida aloqa boshliqlari aloqa tashkil qilish va aloqa qo'shinlarini jangovar qo'llash bo'yicha qaror qabul qilib, uni hayotga tatbiq eta oladilar. Bu esa jangda va operatsiyada qo'shinlarni boshqarishni ta'minlaydi. Bunda aloqachi ofitserlarning umumqo'shin tayyorgarligida qo'shinlarning mohiyati va tartibi xaqidagi bilimlari alohida o'rin tutadi.

Aloqa tashkil qilishning nazariyasi va amaliyoti – aloqa qo'shinlari ofitserlarini tayyorlashda asosiy tashkil etuvchidir. U aloqa tashkil qilish bo'yicha qaror qabul qilish, rejalashtirish, qo'l ostidagilarga vazifa qo'yish, ularni bajarishni tashkillashtirish, aloqani boshqarishning nazariy asoslari va amaliy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bu aloqa tashkil qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni doimiy ravishda oshirish bilan takomillashtiriladi.

Aloqa vositalari, aloqa qismlari va bo‘linmalarni jangovar qo‘llashning nazariyasi va amaliyoti. Bu tashkil etuvchi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- turli aloqa vositalarining aloqa tizimidagi ahamiyatini va o‘rnini, ularni ishlatishni, xizmat ko‘rsatish reglamentini, shaxsiy tarkibning yuqori texnik tayyorgarligini ta‘minlashni;

- aloqa tizimlarini ishga tushirishda va ish faoliyatida turli aloqa qismlar va bo‘linmalarning ahamiyati va o‘rnini, ularning yuqori jangovar tayyorgarligini ta‘minlashni, jangovar vazifalarni bajarishda tayyorgarlik tartibini, jangovar topshiriqlarni tashkillashtirishni, aloqani jangovar, texnik, xo‘jalik ta‘minlash tadbirlarini va boshqa masalalarni.

Shunday qilib, taktik-maxsus tayyorgarlik aloqa ko‘shinlarining jangovar tayyorgarligida muhim bo‘g‘in hisoblanadi.

2. Ko‘shinlarni (kuchlarni) va qurollarni boshqarish

Hozirgi zamonda urush tez va keskin o‘zgaruvchan sharoit bilan, qo‘shinlarni keng va chuqur yo‘nalishda taqsimlash va jangovar harakatlarni turli yo‘nalishlarda olib borish bilan belgilanadi. Jangovar harakatlar qat‘iyligi va tezkorligi bilan ajralib turadi. Bu mahalliy (lokal) urushlarni olib borish tajribasi bilan tasdiqlanadi. Bunday sharoitda muvaffaqiyatni ta‘minlovchi belgi (faktor) lardan biri qo‘shinlarni va qurollarni bilimli boshqarishdir.

Ko‘shinlarni boshqarish - qo‘shin va xizmatlarning doimiy jangovar shayligini ta‘minlash, ularni jangovar harakatlarga tayyorlash va qo‘yilgan vazifalarni bajarishda ularga rahbarlik qilishda komandir, shtablar, tarbiyaviy ishlar bo‘yicha bo‘limlar, qo‘shin va xizmat turlari boshliqlarining maqsadli faoliyatidir.

Qo‘shinlarni boshqarish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- qism va bo‘linmalarning doimiy jangovar tayyorgarligini saqlashni;
- sharoitga tegishli ma‘lumotlarni uzluksiz ravishda topish, to‘plash, o‘rganish, umumlashtirish va dushman rejalarini fosh qilishni;

- qaror qabul qilish va qo‘l ostidagilarga vazifa qo‘yishni;
- jangovar harakatlarni rejalashtirishni;
- uzluksiz hamkorlikni tashkil qilish va saqlashni;
- boshqarish tizimini tashkil qilishni;
- qism va bo‘linmalarning jangovar harakatlar tayyorgarligiga bevosita rahbarlik qilishni;

- jangovar harakatlarni ta'minlash, shaxsiy tarkib bilan tarbiyaviy ishlar olib borish, qism va bo'linmalarning jangovar holatini tiklash bo'yicha tadbirlarni tashkil qilish va amalga oshirishni.

Vaziyatga tegishli ma'lumotlarni uzluksiz ravishda topish, to'plash, o'rganish va umumlashtirish boshqarishning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Qo'shilma (birlashma) shtabi tomonidan yig'iladigan ma'lumotlar dushman haqida, o'z qo'shinlari, qo'shnilar, joylik, radiatsion, kimyoviy va bakteriologik vaziyat, gidrometeorologik sharoit, yil fasli va kun vaqti, jangovar harakatlar hududidagi iqtisodiy ahvol va aholining ijtimoiy- siyosiy tarkibi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Sharoit haqidagi ma'lumotlarni olish manbalari quyidagilar: turli ko'rinishdagi razvedka organlari, asirga tushganlar, qochib o'tganlar va mahalliy aholining ko'rsatmalari; hujjatlar, qurol-yarog' va jangovar texnikani o'rganish; yadro portlashlarni qayd qilish tizimi; qo'l ostidagi komandir va shtablarning, qo'shin va xizmat turlari boshliqlarining bayoni; qo'shin va o'zaro hamkorlikda bo'lgan qism va bo'linmalarning axboroti; topografik xaritalar, aerofotorasmlar va boshqa hujjatlarni o'rganish.

Doimiy jangovar tayyorgarlikni saqlab turishga quyidagi tadbirlar yordamida erishiladi: qo'shinlar maqsadli jangovar tayyorgarligini tashkil qilish va o'tkazish; qism va bo'linmalarni shaxsiy tarkib bilan, qurol-yarog' va jangovar texnika bilan mos holda to'ldirish; qism va bo'linmalarni jangovar tayyorgarlikning turli darajalariga reja bo'yicha o'tishini tashkil qilish va amalga oshirish: jangovar topshiriqlarni o'z vaqtida qo'yish va ularning o'z vaqtida bajarilishini tashkil etish.

Qism va bo'linmalarning jangga tayyorgarlik ko'rishiga rahbarlik qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi: qism va bo'linmalarni jangovar tayyorgarlikning turli darajalariga o'tkazish tadbirlari; qism va bo'linmalarni shaxsiy tarkib va qurol-yarog' bilan to'ldirish hamda jangovar topshiriqni bajarishga tayyorgarligi bo'yicha jangovar tartibni tuzish.

O'zaro hamkorlik barcha qo'shin turlari va maxsus qo'shin qismlari (bo'linmalari) ning bir-birlari bilan, qo'shnilar bilan, shuningdek o't ochish vositalarining zarbi bilan, motoo'qchi va tank qismlari (bo'linmalari) tomonidan jangovar topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun topshiriqlar bo'yicha, yo'nalishlar bo'yicha, sarhadlar, vaqt va topshiriqni bajarish usullari bo'yicha o'zaro kelishilgan faoliyat bilan belgilanadi.

O'zaro hamkorlikning bosh masalalari komandir qarorida aniqlanadi va qo'l ostidagilarga topshiriq bilan birga yetkaziladi. O'zaro hamkorlik butun jang davomida uzluksiz ravishda amalga oshiriladi, buzilganda esa darhol tiklanadi.

Jangni har tomonlama ta'minlash qo'shinlar o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil qilish va amalga oshirishdan iborat. U jangning barcha turlari bo'yicha qism (bo'linma) larning ko'chishi va ularni joylashtirish bo'yicha komandirning qarori asosida tashkil qilinadi va qo'shinlarning barcha turlari tomonidan amalga oshiriladi.

Brigada va batalon jangini har tomonlama ta'minlash o'z ichiga jangovar, texnik va xo'jalik ta'minotini oladi.

Qism (bo'linma) lar tomonidan buyruq va farmoyishlarning bajarilishini **Nazorat qilish** va ularga yordam berish jangga tayyorgarlik va jang vaqtida uzluksiz, maqsadli ravishda amalga oshiriladi. **Nazorat qilish** qo'yilgan vazifalarni to'g'ri tushunish, ularni o'z vaqtida va aniq bajarishga yo'naltirilgan.

Zamonaviy sharoitda yuqori harakatchanlikka va manyovrlikka ega bo'lgan, mustaqil va turli yo'nalishlarda harakat qiladigan tuzilmalarga rahbarlik qilish zaruriyati paydo bo'ladi. Odatda boshqarish, sharoit yetarlik darajada aniq bo'lmagan holda amalga oshiriladi, ya'ni komandir qaror qabul qila turib, sharoitning muhim tashkil etuvchilari haqida yetarli axborotga ega bo'lmaydi. Qo'shinlarni boshqarish barqaror, uzluksiz, tezkor va yopiq bo'lgan holdagina muvaffaqiyatli bo'ladi.

Boshqaruvning barqarorligi dushman tarafdan ko'rsatiladigan har qanday ta'sir sharoitida ham boshqaruvning amalga oshirilishidir. Agar ko'shinlarni boshqarish ishdan chiqarilgan bo'lsa, darhol qayta tiklanishi lozim.

Boshqaruvning uzluksizligi oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish maqsadida qo'l ostidagi qism va bo'linmalarga boshqarish organlarining doimiy, uzluksiz ko'rsatadigan ta'siridir.

Boshqaruvning turg'unligi va uzluksizligiga quyidagicha erishiladi: hosil bo'lgan real sharoitni bilish; olingan vazifalarni to'g'ri tushunib yetish: o'z vaqtida qaror qabul qilish va qo'l ostidagilarga aniq vazifa qo'yish; qo'l ostidagi va o'zaro hamkorlikda bo'lgan qism (bo'linma) lar bilan, hamda katta komandir bilan aloqaning mavjudligi; barcha texnik vositalar, shuningdek qo'shinlar boshqaruvini avtomatlash vositalaridan kompleks foydalanish; o'zining radio, radioreleyli vositalarini va boshqarish tizimlarini himoyalash hamda dushman razvedkasi texnik vositalariga qarshi turish bo'yicha tadbirlar o'tkazish; boshqarish punktlarini oqilona joylashtirish va jangda ularni o'z vaqtida ko'chirish; zarur sharoitda boshqaruvni bir punktdan boshqasiga o'tkazish va to'xtagan boshqaruvni tiklash.

Boshqaruv tezkorligi - jangga tayyorgarlik va jang vaqtida qo'shinlarni boshqarish bo'yicha tadbirlarni tez va dushmandan oldin amalga oshirishdir. Tezkorlik quyidagilardan iborat: vaziyatdan doimiy ravishda xabardor bo'lish va uning o'zgarishini tez his qilish; qabul qilingan qarorni va qo'l ostidagilarga

qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida aniqlashtirish; komandir va shtablarning o'z faoliyatida oqilona usullardan foydalana olish va dushman harakatining oldini olishni ta'minlovchi muddatlarda qo'yilgan topshiriqlarni bajarish.

Boshqarish tezkorligining asosiy mezonini bo'lib komandir va shtabning boshqarishning bir sikliga, ya'ni vaziyat haqidagi ma'lumotlarni olish va o'rganish, qaror qabul qilish va bajaruvchilarga vazifa ko'yishga sarf bo'ladigan vaqt xizmat qiladi. Bu holda qo'l ostidagilarga qo'yilgan vazifani samarali bajarish uchun kerakli vaqt berilishi lozim (jang maydonidagi vaziyat o'zgargungacha).

Boshqarishning yopiqligi (pinhoniyligi) - jangga tayyorgarlik va jang davrida komandir, shtab va boshqaruvning boshqa organlari tomonidan olib boriladigan barcha tadbirlarni dushmandan sir saqlashdan iborat.

Bu esa quyidagicha amalga oshiriladi: bo'lajak jang rejalari bilan tanish shaxslar doirasini qisqartirish; boshqarish punktlarini pinhona joylashtirish va ko'chirish; aloqa texnik vositalari orqali bo'ladigan muloqatlar olib borish qoida va tartiblarga rioya qilish; aloqaning maxfiylashtiruvchi qurilmalaridan foydalanish: chaqiruv va belgi jadvallari, muloqat jadvali va kodlangan xaritalardan foydalangan holda hujjatlarni shifrlash va kodlash; yuqori shtab rejasiga mos holda maskirovka va dushmanni chalg'itish bo'yicha tadbirlar o'tkazish.

Qo'shinlarni boshqarishning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

Yakkaboshchilik - qo'shinlarni boshqarishning eng muhim tamoyili bo'lib, u komandir qo'l ostidagilarga nisbatan to'liq buyurish huquqiga ega ekanligini anglatadi. Yakkaboshchilik komandir jangga shaxsan qaror qabul qilishda, qo'l ostidagilarga zarur buyruq va farmon berishida va ularning bajarilishini tashkillashtirishda aks etadi.

Yakkaboshchilik bilan uzviy bog'liq holda komandir va boshliqlarning qabul qilayotgan qarorlari va qo'yilgan vazifalarini bajarish natijalari uchun shaxsiy javobgarligi tamoyili mavjud. Bu esa har bir komandir boshqarish masalalarini hal qilishda qo'l ostidagi jamoaga tayansa ham, qabul qilingan qarorning maqsadga muvofiqligiga shaxsan javobgarligini anglatadi.

Qo'l ostidagilarning tashabbusi bilan uyg'unlikda boshqarishning markazlashtiriluvchi katta komandir tomonidan bo'ysunuvchi, vaqtinchalik bo'ysundirilgan qism va bo'linmalarining barcha harakatini yagona reja bilan birlashtirishiga asoslanadi. Bunda qo'l ostidagilar qo'yilgan vazifani bajarish usullarini aniqlashda to'liq tashabbus ko'rsatishlariga imkon beriladi.

Sharoitni doimiy ravishda bilish va chuqur tahlil qila olish, hodisadarni oldindan ko'ra bilish - hosil bo'lgan sharoitning asosini belgilay olish, olingan topshiriqni belgilangan muddatda bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi sabablarni aniqlash imkonini beradi. Hodisalar rivojining istiqbolini oldindan ko'ra bilish, sharoit haqidagi yetarli bo'lmagan ma'lumotlarni va vaqt yetishmovchiligini

yechish, qo'yilgan maqsadga erishishning yo'l va vositalarini oldindan to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Qabul qilingan qaror va rejalarni tatbiq qilishda qatgiqqo'llik va qat'iylik doimo jangda muvaffaqiyatga erishishga omil bo'lgan. Shu bilan birga sharoitga mos kelmay qolgan qaror va rejalarni aniqlashtirish yoki o'zgartirish, zarur bo'lganda inkor etish kuchlar, vositalar va vaqtni asossiz yo'qotishning oldini oladi, qo'shinlar jangovar qobiliyatning pasayishidan saqlaydi.

Boshqarish organlari ishida yuqori tashkilotchilik va ijodkorlik quyidagilarni nazarda tutadi: ijrochilar orasida topshiriq va amallarni aniq taksimlash; ishlarida kelishilganlik; qo'shnlarni boshqarish tadbirlarini o'z vaqtida aniq bajarishini ta'minlovchi qat'iy tartib andozalardan voz kechish, qo'yilgan topshiriqlarni hal qilishning yangi yo'llarini izlash.

Shaxsiy tarkibni bilish va qo'l ostidagi komandirlarga tayanish quyidagilarni nazarda tutadi: qo'l ostidagilarni, ayniqsa bo'linma komandirlarini yaxshi bilish, zero inson omili, yuqori onglilik, shaxsiy tarkibning jangovar, ahloqiy-ruhiy sifatleri ko'p holda jangdagi harakat uslublarini, taktika rivojini belgilaydi; u yoki bu komandirning kuchli sifatlaridan foydalanish jangda ishtirok etayotgan kuch va vositalar harakatida birlikni, katta komandir rejasining aniq bajarilishini, kam talofatlar bilan dushmanni tor-mor etish imkonini beradi.

Qo'shnlarni boshqarish komandirlarning shaxsan yoki qo'shnlarga yuborilgan shtab ofitserlari orqali muloqati, yoki turli texnik vositalar, birinchi galda aloqa vositalari yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Komandirning shaxsiy muloqati sharoitni aniqroq bilish, o'z qarorini qo'l ostidagilarga shaxsan yetkazish (yoki aniqlash), ularga amaliy yordam berish va ularning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Shaxsiy muloqat quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi: bo'ysunuvchi qism (bo'linma) komandirlarini katta boshliq huzuriga chaqirish; katta va bo'ysunuvchi komandirlarning, shuningdek hamkorlikda bo'lgan (ko'shni) qism (bo'linma) larning komandirlari boshqarish punktlarini yonma-yon joylashtirish. Biroq, shaxsiy muloqatdan qo'shnlarni boshqarish usuli sifatida ayrim hollardagina foydalaniladi.

Shaxsiy muloqatdan tashqari shtab ofitserlarini qo'l ostidagi va hamkorlikda bo'lgan qo'shnlarga yuborish ham qo'llaniladi. Shtab ofitserlari jangovar hujjatlarni yetkazish, avvalo berilgan topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilish, qo'l ostidagi va hamkorlikda bo'lgan qo'shni qism (bo'linma) lardagi sharoitni aniqlash va ularga yordam ko'rsatish maqsadida yuboriladi. Shtab ofitserlari o'zlarini jo'natgan boshliq bilan aloqani uzmasliklari lozim. Buning uchun ular shtablar (komandirlar) orasida mavjud bo'lgan aloqadan foydalanishlari yoki alohida aloqa vositalari bilan ta'minlanishlari mumkin.

Dushman tomonidan ommaviy qirg'in qurollari (OQQ), yuqori aniqlikdagi qurollar (YuAQ) va oddiy qirg'in vositalari qo'llanilganda, sharoitning keskin va tez-tez o'zgarishida, yagona front yo'qligida, katta va bo'ysunuvchi komandirlar boshqarish punktlari orasidagi masofa katta bo'lgan sharoitlarda shaxsiy muloqat va shtab ofitserlarini jo'natish qiyinlashadi.

Zamonaviy urushda ko'shinlar va qurollarni boshqarish faqatgina texnik vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, havodagi samolyot (vertolyotlar) ni, jang maydonida harakatlanayotgan zirhli texnikani, havo hujumiga qarshi vositalarni, taktik havo desantlarini, reydgacha chiquvchi otryadlarni, qurshovda bo'lgan yoki komandir boshqarish punktidan uzoqda bo'lgan qo'shinlarni faqatgina aloqa vositalari yordamidagina boshqarish mumkin.

Komandir (boshliq) ning qarori boshqarishning asosidir. Qarorni komandir olingan topshiriqni tushunib yetish va sharoitni baholash asosida qabul qiladi. Masalan, batalon komandiri o'z qarorida quyidagilarni belgilaydi:

- aloqani tashkil etish;
- bo'linmalarning ko'yilgan vazifalarni bajarishni doimiy nazorat qilish va ularga yordam berish;
- jang rejasi;
- bo'linmalarning jangovar vazifalari.

Bundan tashqari qarorda ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ish turlari bo'yicha vazifalar belgilanadi.

Qarorning asosini jang rejasi tashkil etadi, unda quyidagilar aniqlanadi:

- qo'shinlar bilan hamkorlikning asosiy masalalari;
- boshqarishni tashkil etish;
- asosiy kuchlarni jamlash yo'nalishi;
- dushmanni tor-mor etish usullari (qaysi dushmanni, qaerda, qanday ketma-ketlikda va qanday qilib tor-mor etish, kaysi qurollardan foydalanish va qanday qilib dushmanni chalg'itish);
- jangovar tartib.

Batalon komandiri o'z qarorini ishchi xaritada rasmiylashtiradi.

Bo'linmalarga jangovar topshiriqlar jang oldidan jangovar buyruq ko'rinishida, jang vaqtida esa – jangovar farmoyish ko'rinishida yetkaziladi.

Komandirning qo'l ostidagi bo'linmalarga vazifa qo'ygandan keyingi muhim vazifalaridan biri bo'linmalar tomonidan qo'yilgan topshiriqni bajarishni tashkil etishini nazorat qilish va yordam berishdan iborat, bu holda nazorat ogohlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi lozim.

Nazorat savollari

1. Qo'shinlarni boshqarish nimalarni o'z ichiga oladi?

2. Doimiy jangovar tayyorgarlikni saqlab turish uchun o'tkaziladigan tadbirlar.
3. Qo'shnlarni boshqarishning barqarorligi, uzluksizligi, tezkorligi va yopiqligini tushuntiring.
4. Qo'shnlarni boshqarishning asosiy tamoyillari.
5. Komandir (boshliq) ning vazifani bajarish bo'yuicha qarori.

3. Boshqaruv tizimi

Ko'shnlarni boshqarish tizimi bo'linma, qism, birlashmalarni jangga tayyorlash vaqtida va jang davomida ishonchli va samarali boshqarishni amalga oshirish maqsadida tashkil qilinadi. Boshqarish tizimiga to'rtta asosiy element kiradi:

- boshqarish organlari;
- boshqarish vositalari;
- boshqarish punktlari;
- aloqa tizimi.

3.1. Boshqarish organlari

Boshqarish organlari - rahbariyat tarkibidagi alohida shaxslar va ofitserlarning kam sonli jamoalari bo'lib, ular turli masshtabdagi harbiy birlashmalarni harbiy birikmalarni boshqaradilar.

Komandir - qo'shnlarni boshqarishda markaziy figura hisoblanadi. U qo'shin va qismlarga davlat qonunlari tomonidan belgilangan va nizomlar, qoidalar, katta komandirlarning buyruqlari bilan aniqlashtirilgan huquqlari asosida boshchilik qiladi. Komandir qo'shnlarni nafaqat shaxsan, balki shtab, o'rinbosarlar, qo'shin va xizmat turlari boshliqlari orqali ham boshqaradi.

Shtab - komandirning birinchi yordamchisi bo'lib, jangga tayyorgarlik vaqtida va jang davomida qo'shnlarni boshqarishni ta'minlaydigan asosiy organdir. Shtablar Qurolli Kuchlarning barcha turlarida batalon va undan yuqori bo'linma va qismlarda mavjuddir. Birlashmalarda shtab o'z ichiga tezkor bo'linma, razvedka va aloqa bo'linmalarini oladi. Shtab - shtab boshlig'i (ShB) tomonidan boshqariladi, aloqa bo'linmasini aloqa boshlig'i (AB) boshqaradi va u shtab boshlig'iga bo'ysunadi, Shtab boshlig'i doimo vaziyatni bilishi, uning o'zgarishini oldindan ko'ra olishi, jangdagi qarorlarga o'z fikrini ayta olishi zarur; bo'linmalar qaerda joylashganligini, nima bilan mashg'ul ekanini, qanday ta'minlanganligini va nimaga muhtojligini bilishi lozim. ShB komandir, shtab boshlig'i o'rinbosarlari, qo'shin turlari, maxsus qo'shin va xizmat boshliqlarining

ishlarini qo‘shinlarni boshqarishning aniq vazifalarini hal qilishda bir-biriga moslashtiradi.

3.2. Boshqarish vositalari

Boshqarish vositalari - qo‘shinlarga rahbarlik qilish jarayonida boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida qo‘llaniladigan turli mashina, asbob, qurilma va moslamalarning majmuasidir. Ko‘shinlarni boshqarish zaruriyati uchun aloqa va kuzatish vositalari, boshqarish mashinalari, kompyuterlar, qo‘shinlarni boshqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish vositalaridan foydalaniladi.

Aloqa vositalari - raqib (dushman) haqidagi ma’lumotlarni va vaziyatning boshqa sharoitlari haqidagi ma’lumotlarni vaqtida uzatish, komandirlarning buyruq va farmoyishlarini qo‘l ostidagilarga aniq va pinhona yetkazish, jangning borishi haqidagi ma’lumotlarni qabul qilish, o‘zaro hamkorlikda bo‘lgan (qo‘shni) bo‘linma va qismlar orasida axborot almashish imkonini beradi.

Kuzatish vositalari - jangga tayyorgarlik va jang vaqtida o‘z qo‘shinlari va raqib ko‘shinining holati va harakati, ular joylashgan xudud va uning shart sharoitlari haqida ma’lumot olishga imkon beradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘z bilan kuzatish uchun turli optik asboblardan - binokllar, periskoplar, stereotrubalar; tunda - korong‘uda maxsus ko‘rish asboblari va boshqa optik elektron vositalar, shuningdek yoritish vositalari, yoritish patronlari, minalari, snaryadlaridan foydalaniladi.

Boshqarish mashinalari - qo‘mondonlik-shtab, shtab va boshqa maxsus mashinalar mansabdor shaxslarning o‘z funksional majburiyatlarini jang vaqtida ish joylarini tark etmasdan bajarishga imkon yaratadi. Boshqarish mashinalari yuqori o‘tish imkoniga va yurishning katta zaxirasiga ega. Ular shaxsiy tarkibni raqib o‘tidan himoyalaydi, zamonaviy jangning murakkab sharoitlarida shaxsiy tarkibning turmushini ta’minlaydigan vositalarga ega.

Qo‘shinlarni boshqarishning mexanizatsiyalash vositalari - jangovar hujjatlar tuzish, ularni ko‘paytirish, texnik aloqa vositalaridan uzatish, qayta ishlash va saqlash, zarur xisob-kitoblarni bajarish, qaror kabul qilish va uni rasmiylashtirish uchun ma’lumotlarni tayyorlash, boshqarish punkti ichida axborot almashish va h.k. ishlarni yengillashtiradi.

Mexanizatsiyalash vositalari majmuasi o‘z ichiga hisob-kitob ishlarini bajarish vositalari (jadvallar, grafiklar, nomogrammlar, dozimetrik va boshqa hisoblash vositalari); jangovar grafik hujjatlarni rasmiylashtirish vositalari (maxsus ruchka, qalam va chizg‘ichlar to‘plami; shartli belgilarning nusxa va andozalari, planshetlar); jangovar hujjatlarni ko‘paytirish va qayta ishlash vositalari (kompyuterlar, yozuv mashinalari, magnitofon, diktofon, nusxa olish mashinalari, rasmiylashtirilgan blanklar, jangovar grafikli hujjatlarning doimiy shakllari); axborotni ko‘rgazmali aks ettirish vositalari (signalizatsiya va ichki aloqa

moslamalari - videomagnitofon, televizor qurilmalar va boshqalar) boshqarish punktlarning maxsuslashtirilgan jihozlariga kiradi.

Qo‘shinlarni boshqarishni avtomatlashtirish vositalari. Bu vositalar quyidagi masalalarni hal qilish imkonini beradi: o‘z qo‘shinlari va raqib qo‘shinlari haqidagi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va saqlash, aks ettirish va rasmiylashtirish, hisoblashlarni bajarish, qirg‘in vositalari ta’sirini oldindan aytish, ma’lumot va axborot signallarini yuqori shtabga, ko‘l ostidagi, birgalikda harakatlanayotgan qo‘shinlarga uzatish va boshqa vazifalar. Qo‘shinlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari elektron-hisoblash mashinalarini (kompyuterlarni), yuqori ishlab chiqarishga ega texnik qurilmalarni, tez ishlovchi va maxfiylashtiruvchi aloqa vositalarini o‘z ichiga olib, informatsion, hisoblash, mantiqiy va tezkor-nazorat vazifalarini bajaradi. Keltirilgan moddiy baza komandir, shtab va boshqa boshqarish organlariga jangda qo‘shinlarni boshqarish bilan bog‘liq ko‘p masalalarni muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradi.

3.3. Boshqarish punktlari

Boshqarish punktlari (BP) - maxsus ta’minlangan va jihozlangan joy bo‘lib, u yerdan jangga tayyorgarlik va jang vaqtida qo‘shinlarga rahbarlik qilish amalga oshiriladi. Har bir boshqarish punkti tarkibiga boshqarish organlari va vositalari, hamda ta’minlash va xizmat ko‘rsatish bo‘linmalari kerakli nisbatda kiritiladi. Boshqarish punktlarining nomi, soni va tarkibi harbiy tuzilmaning masshtabiga bog‘liq.

Bo‘linmada boshqarish-kuzatish punkti tashkil kilinadi. U yerdan nafaqat bo‘linmani boshqarish, balki jang maydonini kuzatish orqali razvedka qilish amalga oshiriladi. Bu punkt tarkibiga komandir, uning o‘rinbosari, shtab ofitseri, birlashtirilgan bo‘linma komandiri, aloqachilar va qo‘riqchilar kiradi. Ularning hammasi aloqa vositalari va boshqarishning boshqa texnik vositalari bilan jihozlangan bir yoki bir necha zirhli mashinalarda joylashadilar, agar sharoit imkon bersa mashinadan tashqarida, jang maydonini kuzatishga va bo‘linmani uzluksiz boshqarishga imkon beruvchi pana yerga joylashadilar.

Boshqarishning yuqori bo‘g‘inlarida bir vaqtning o‘zida faoliyat ko‘rsatadigan bir necha boshqarish punktlari tashkil qilinadi.

Qo‘mondonlik punkti (QP) - jangga tayyorgarlik vaqtida va jangda qo‘shinlarga rahbarlik qilish uchun tashkil kilinadi. U asosiy boshqarish punkti hisoblanadi, chunki u yerda komandir boshchiligida boshqarish apparatining ko‘p qismi, texnik vositalarning asosiy qismi joylashgan bo‘lib, qo‘shinlarni boshqarish bilan bog‘liq muhim masalalar hal qilinadi. Uning tarkibidan jang maydonini kuzatish uchun, muhim vaqtda esa asosiy yo‘nalishda yoki bosh kuchlardan

alohida yoʻnalishda harakatlanayotgan koʻshinlarga rahbarlik qilish uchun kuzatuv punktlari ajratilishi mumkin. Qoʻmondonlik punkti tarkibidan vertolyotlarda jihozlangan havodan boshqarish punkti (HBP) ajratilishi mumkin. Bu punkt jang vaqtida va qoʻshinlarning koʻchishida rahbarlik qilish uchun ishlatiladi.

Qoʻmondonlik punkti ishdan chiqqanda yoki u yerdan boshqarishning imkoni boʻlmaganda boshqarishning tezkorligini oshirish va barqarorligini taʼminlash uchun ilgʻor qoʻmondonlik punkti IQP yoki zaxiradagi koʻmondonlik punkti ZQP tashkil qilinadi; alohida yoʻnalishda harakatlanayotgan qoʻshin gruppировkalariga qoʻmondonlik qilish uchun yordamchi boshqarish punkti YoBP tashkil qilish koʻzda tutiladi. Front orti hamda texnik taminlash boʻlinmasi va qismlarini boshqarish uchun front orti boshqarish punkti ForBP tashkil qilinishi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Bosh shtabining (OʻR MV BSh) boshqarish punktlari quyidagilar: Bosh shtabning birlashgan qoʻmondonlik punkti BSh BQP, zahiradagi qoʻmondonlik punkti ZQP, ilgʻor qoʻmondonlik punkti IQP va yordamchi boshqarish punkti YoBP.

Harbiy okruglarning boshqarish punktlari quyidagilar: BQP, ZQP, IQP.

Brigadalar tizimida qoʻmondonlik punkti va zaxiradagi qoʻmondonlik punktlari tashkil qilinadi. Batalonlar tizimlarida - qoʻmondonlik-kuzatish punktlari QKP, vzvod va jangovar guruhlarda - kuzatish punktlari KP tashkil qilinadi.

Boshqarish punktlarining tarkibi doimiy emas, ular imkoni boricha kam sonli tarzda tuziladi. Biroq ularning har biri qoʻl ostidagi qoʻshinlarga rahbarlik qilishni taʼminlaydi va zarur boʻlganda boshqaruvning oʻzidan yuqori va qoʻl ostidagi pogʻonada boʻlgan boshqarish ishlarini vaqticha oʻz zimmasiga olish imkoniga ega boʻlgan ofitserlar va boshqarish vositalariga ega boʻlishi zarur.

Taktik boʻgʻinlarda boshqarish punktlari tez ishga tushiriladigan, yigʻishtiriladigan va yanga hududga koʻcha oladigan yuqori harakatchan koʻrinishda tuziladi. Ularning tarkibida aloqa, kuzatish vositalari va boshqa texnik apparatura bilan jihozlangan tanklar, bronetransporterlar, boshqarish shtab mashinalari va boshqa maxsus mashinalar mavjud boʻladi va ular har qanday sharoitda, komandir va shtablarning joyida yoki harakatdaligida qoʻshinlarni uzluksiz boshqarishni taʼminlaydi.

Boshqarish punktlari joyning himoya xususiyatlarini hisobga olgan holda, pana joylarda jihozlanadi va mukammal ravishda koʻzdan berkitiladi. Ularning qoʻshinlar jangovar toʻknashuvi chizigʻidan uzoq-yaqinligi qator sharoitlarga bogʻliq. Bir tomondan, dushmanning yadro, kimyoviy yoki yuqori aniqlikdagi qurollarni qoʻllashi natijasida boshqarish punktlarining ishdan chiqish xavfi mavjud boʻlsa, ikkinchi tarafdin jang maydonini kuzata olish va aloqa oʻrnata olish imkoniyatlari boshqarish punktlarini qoʻshinlardan uzoq masofada

joylashtirishga yo‘l qo‘ymaydi. Shu bilan birga, BPni shunday joylashtirish va ko‘chirish lozimki, bunda jangning eng dolzarb vaqtida ular qo‘shinlarga imkoni boricha yaqinroq bo‘lishlari kerak. Bo‘linma komandirlari o‘z bo‘linmasi, dushman, qo‘shinlar harakatini shaxsan kuzata olishi mumkin joyda bo‘lishlari va shu yerdan turib katta komandirlar va qo‘l ostidagi qo‘shinlar bilan aloqa o‘rnata olishi lozim.

Boshqarish punktlari jang vaqtida vaziyatning o‘zgarishiga qarab qisqa o‘tishlar bilan ko‘chiriladi. Boshqarish punktlarining bir joyda qolish muddati katta bo‘lmasligi lozim. Masalan, hujum vaqtida bo‘linma komandirlari harakatda bo‘ladilar, yuqori turuvchi boshqarish punktlari esa sutka davomida bir necha marotaba ko‘chadilar.

Boshqarish punktlarini ko‘chirish maxfiylashtirilgan holda amalga oshiriladi. Bunda joyning maskirovkalash va himoyalash xususiyatlaridan foydalaniladi. Qisqa vaqtga to‘xtalganda ular bir-biriga yaqin joylashadilar, bir joyda ko‘proq muddatga qolganda esa tarqalib joylashadilar; dushmanning yuqori aniqlikdagi qurolidan himoyalaniq maqsadida, joylikning pana va to‘siqli o‘rinlaridan foydalangan holda, zirhli ob‘ektlardan tashqarida joylashishi mumkin. Har qanday joylashganda ham komendant xizmati bo‘linmalari boshqarish punktini qo‘riqlashni va uning mudofaasini tashkil qiladi. Bunday bo‘linmalar bo‘lmaganda esa qo‘l ostidagi bo‘linma va qism kuchlari va vositalari bilan tashkil qilinadi.

3.4. Aloqa tizimi

Qurolli kuchlarning barcha boshqaruv bo‘g‘inlarida qo‘shinlar (kuchlar) va qurollarni boshqarishni ta‘minlash uchun aloqa tizimlari yaratiladi. Ular tinchlik vaqtidagi kabi urush vaqtida ham o‘z faoliyatini davom ettiradi.

Aloqa tizimi bevosita aloqani amalga oshirishning imkoni bo‘lmagan sharoitda boshqaruv tizimi elementlari orasida (boshqaruv organlari va boshqarilayotgan ob‘ektlar orasida) axborot almashinuvini ta‘minlash uchun xizmat qiladi.

Aloqa tizimi qo‘shinlarni boshqarish tizimining texnik asosi bo‘lib xizmat qiladi va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Boshqarish organlari haqida ma‘lumot bering.
2. Boshqarish vositalari haqida ma‘lumot bering.
3. Boshqarish punktlari haqida ma‘lumot bering.
4. Aloqa tizimi haqida ma‘lumot bering.

4. Aloqaning vazifalari va unga ko‘yiladigan talablar

4.1. Boshqarish tizimidagi axborot

Ko‘shinlarni boshqarish har qanday boshqarish jarayoni kabi asosan axborotlash jarayonidir.

Axborot deganda harbiy sohada jangovar buyruq, farmoyish, komandalar, xabarlar, signallar ko‘rinishdagi umumiy holat, topshiriqlar to‘g‘risidagi, jangovar texnika va qurollarning holati va qo‘llanishi hakidagi ma‘lumotlar tushuniladi.

Komandir, shtab, qo‘shin va xizmat turlari boshliqlari (boshqaruv organi) qo‘shinni uzluksiz boshqarib turishlari uchun boshqaruv organiga tezkor-taktik vaziyat to‘g‘risidagi axborot qo‘shin tarafdin (boshqarilayotgan ob‘ekt tarafdin) o‘z vaqtida kelib turishi kerak. O‘z navbatida ma‘lumotlar qayta tiklanib, vaziyat baholangandan so‘ng boshqaruv organlarining qarorlari, buyruqlari, farmoyishlar, komandalar (boshqaruv axboroti) ko‘rinishida ko‘shinlarga o‘z vaqtida va aniq yetkazib turishi kerak.

Boshqarish tizimida uzatiluvchi axborotlar quyidagilarga bo‘linadi:

- muhimligiga ko‘ra;
- uzatish shoshilinchligiga ko‘ra;
- tezkor-texnik muhimligini saqlash vaqti bo‘yicha.

Muhimligi va jangovar harakatlarining borishiga ko‘rsatadigan ta‘siriga ko‘ra axborotlar bir qancha toifalarga bo‘linadi. Xabarning shoshilinchligi toifasi xabarlarining muhimligini va uzatish ketma-ketligi (navbati) ni hamda aloqa tizimida qolish muddatini aniqlovchi tavsifdir.

Shoshilinchlikning uchta toifasi mavjud:

- dushman yadro qurolining mavjudligi va joylashgan o‘rni haqidagi, yadroviy zarbalarning qo‘llanishi va uning natijalari haqidagi ma‘lumotlar, xabar qilish signallari, zenit-raketa qismlari va havo hujumiga qarshi vositalarni boshqarish signallari va komandalar;
- vaziyatning keskin o‘zgarishi haqidagi ma‘lumotlar, umumqo‘shin va artilleriya qismlari taktik havo desanti, tankka qarshi zaxiralarni boshqarish bo‘yicha buyruqlar va farmoyishlar, signal va komandalar;
- joriy paytda komandir tomonidan qabul qilinayotgan qarorning xarakteriga bevosita ta‘sir etmaydigan, lekin keyinchalik zarur bo‘ladigan ma‘lumotlar, shuningdek, jangovar harakatlarning xarakterini, holatini, o‘rnini ifodalaydigan ma‘lumotlar, jangovar harakatlarni ta‘minlaydigan farmoyishlar va boshqa ma‘lumotlar.

Shoshilinch axborot - ma'lum bir vaqtda uzatiladi, u boshqaruv organlaridan darhol harakat boshlashni talab etmaydi. Odatda bu axborot muhimligi bo'yicha uchinchi toifaga mansubdir.

Navbatdan tashqari axborot - tezkor holda uzatishni va komandir, shtablarning zudlik bilan harakat boshlashini talab qiladi.

Tezkor-taktik axborot o'z muhimligini saqlash muddati bo'yicha yo'l qo'yiladigan o'rtacha eskirish vaqti bilan ifodalanadi. Bu vaqt ichida qaror qabul qilinib, zarur harakatlar bajarilishi mumkin. Barcha hollarda boshqarish sikli (axborot qabul qilish, qaror qabul qilish, vazifa qo'yish) davomiyligi axborotning eskirish vaqtidan qisqa bo'lishi kerak. Axborotning yo'l qo'yiladigan o'rtacha vaqti minutlarni, bir necha o'n minutlarni, soatlarni tashkil etishi mumkin.

Xabarlar oqimining intensivligi tezkor-taktik sharoitlar bilan aniqlanadi va jangovar harakatlarning xarakteriga bog'liq holda o'zgaradi (masalan, xabarlar oqimi intensivligi faol jangovar harakatlar boshlanguncha kichik bo'ladi).

Boshqarish organlari va boshqarilayotgan ob'ektlar orasidagi axborot oqimi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, boshqarishning istalgan bo'g'iniga tegishli aloqa tizimini qurishga bo'lgan talablarni belgilaydi.

4.2. Aloqaning turlari va ko'rinishlari

Boshqarish tizimida axborot oqimi aloqaning har xil turlari va ko'rinishlari yordamida uzatilishi mumkin.

Aloqa turi - harbiy aloqaning guruhlanishi bo'lib, u signallarning tarqalish muhiti va qo'llanilayotgan vositalar bilan belgilanadi.

Harbiy aloqa quyidagi turlarga ajratiladi: radioaloqa, radioreleyli aloqa, troposfera aloqasi, kosmik aloqa, simli aloqa, optoelektron aloqa, gidroakustik aloqa, harakatdagi vositalar aloqasi,

Aloqa ko'rinishi - harbiy aloqaning guruhlanishi bo'lib, u uzatilayotgan xabarning ko'rinishi bilan belgilanadi. Harbiy aloqa quyidagi ko'rinishlarga bo'linadi: telefon aloqasi, telegraf aloqasi, ma'lumotlarni uzatish, faksli aloqa, fel'd'eger-pochta aloqasi, signalli (belgili) aloqa.

Radio, radioreleyli, troposfera, kosmik va simli vositalar hamda ularga mos oxirgi qurilmalar yordamida ochiq va berk (yopiq, pinhona) telefon, telegraf, faksli aloqalarni, ma'lumotlarni uzatishni, harakatlanuvchi vositalar yordamida esa feld'eger-pochta aloqasini tashkil qilish mumkin.

Keltirilgan aloqa ko'rinishlari quyidagi hollarda ishlatiladi:

- telefon va telegraf aloqasi – muloqat olib borish, telegramma, telefonogramma, komanda va signallarni uzatish (qabul qilish) maqsadida;
- faks aloqasi - jangovar axborot xujjatlarni, chizmalarni, xaritalarni va

chizmalarni uzatish (qabul qilish) maqsadida;

- ma'lumotlarni uzatish avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarida axborot almashinuvi maqsadida;

- feld'eger-pochta aloqasi - shtab va shaxsiy tarkib manziliga kelib tushadigan va ulardan jo'natiladigan barcha ko'rinishdagi maxfiy va oddiy pochta jo'natmalarini qabul qilish, qayta ishlash, yo'naltirish va yetkazib berish maqsadida.

Radio, radioreleyli, troposfera, kosmik va simli aloqalarda tashqari turli ko'rinishdagi aloqani ta'minlash uchun uzatilayotgan xabarning xarakteriga mos bo'lgan - telefon, telegraf, faks qurilmasi, shaxsiy kompyuterlar, taktik terminallar va avtomatlashtirilgan tizimning boshqa texnik vositalari zarur bo'ladi.

Telekommunikatsiya tarmoqlarida turli aloqa ko'rinishlari bir oqimga birlashishlari va paket usulida uzatilishi mumkin.

Qo'shnlarni pinhona ravishda boshqarishni, aloqaning texnik vositalari yordamida uzatilayotgan axborot maxfiyligini saqlash maqsadida berk (yopiq) aloqadan foydalaniladi. U o'z ichiga quyidagilarni oladi: telefon va telegraf kanallaridan uzatilayotgan axborotni avtomatik holda chiziqli shifrovchi maxsus qurilma yordamida amalga oshiriladi (maxfiylashtirilgan aloqa); shifrovchi na kodlovchi mashinalardan foydalangan holda, aloqa kanalidan uzatilayotgan axborotni oldindan kodlash va shifrlashni nazarda tutadigan shifrli va kodlashtirilgan aloqa.

Avtomatlashtirilgan chiziqli shifrlash hamda oldindan shifrlash va kodlash vositalari kompleks holda ishlatiladi. Agar maxfiylashtirilgan yoki shifrlangan aloqa mavjud bo'lmasa, unda kodlangan aloqa asosiy va yagona aloqa vositasi bo'lib hisoblanadi.

4.3. Aloqaning vazifalari

Aloqaning vazifalari boshqarish tizimning vazifalariga, qo'shinlar hal qiladigan tezkor-taktik vazifalariga, shuningdek jangovar harakatlarni tashkil etish va olib borish shartlariga asoslanadi.

Dushman to'satdan hujum qilgan sharoitda qo'shinlar qisqa muddatlar ichida o'zlarini to'liq jangovar tayyorgarlik holatiga keltirishlari, doimiy dislokatsiya joylaridan rejadagi rayonlarga chiqishlari va jangovar harakatlar yo'nalishida siljishlari kerak.

Komandirlar, shtab boshliqlari, qo'shin va xizmat turlari boshliqlari qo'shnlarni muvaffaqiyatli boshqarishlari uchun mavjud vaziyat haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qo'shinlarga jangovar topshiriqlarni yetkazish, barcha o'zgarishlar bilan qo'shnlarni tanishtirish, qo'shnlarni jangovar topshiriqlarni bajarishga tayyorlash va amalga oshirishiga rahbarlik qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Bundan kelib chiqqan holda aloqaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- yuqori shtab bilan uzluksiz aloqani hamda jangovar boshqarishga oid uning signallarini sifatli qabul qilishni ta'minlash;
- vaziyatning har qanday sharoitlarida qo'l ostidagi qo'shinlarni boshqarishni ta'minlash;
- qo'shinlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimida ma'lumot almashinishni texnik ta'minlash.

Zamonaviy jang va operatsiyalarda faqatgina jangovar harakatda ishtirok etuvchi barcha kuch va vositalarning birgalikdagi aniq harakatlari asosidagina g'alabaga erishiladi. Vaziyat, kelishilgan zarba berish vaqti va o'zni xaqidagi komandir hamda o'zaro hamkorlikda bo'lgan qo'shilma, qism, bo'linma shtablari orasidagi tizimlashtirilgan o'zaro axborot - kelishilgan o'zaro harakatlarning zaruriy shartidir. Shuning uchun aloqaning muhim vazifalariga ***o'zaro hamkorlikda bo'lgan qo'shilma, qism va bo'linmalar orasida axborot almashinishini ta'minlash ham kiradi.***

Dushmanning to'satdan yadroviy zarbalar berish va boshqa ommaviy qirg'in vositalarini qo'llash ehtimoli mavjud bo'lgan sharoitda qo'shinlarni o'z vaqtida xabardor etish muhim kasb etadi. Yagona, doimo amal qiluvchi xabardor etish signallari qo'shinga zudlik bilan yetkazilishi kerak. Bu esa ishonchli aloqa mavjudligida amalga oshiriladi. Shuning uchun ***dushmanning ommaviy qirg'in qurolini qo'llash xavfi haqida, o'zining yadroviy zarbalari haqida, havodagi dushman haqida, radioaktiv, kimyoviy va bakteriologik zararlanish, meteorologik ma'lumotlarni va yagona vaqt signallarini uzatish ham aloqaning muhim vazifalariga kiradi.***

Jangovar harakatlarni muvaffaqiyatli olib borishning hal qiluvchi shartlaridan biri qo'shinni uzilishsiz xo'jalik va texnik tomonidan ta'minlash hisoblanadi. Aloqani tashkil qilish, o'rnatish va ta'minlashni bevosita aloqa boshliqlari amalga oshiradi, AB bo'lmagan bo'linmalarda esa bo'linma shtab boshliqlari amalga oshiradi.

Xo'jalikni boshqarish jarayonida quyidagilarni amalga oshirish lozim: qo'shinlarning moddiy vositalar bilan ta'minlanganligi va ularni yetkazish uchun talabnomalar, asosiy texnika turlarining holati haqidagi axborotlarni uzatish; moddiy vositalarning to'g'ri ishlatilayotganligini nazorat qilish, qo'l ostidagi xo'jalik qismlari ishiga rahbarlik qilish va h.k. Aloqasiz bu ishlarni amalga oshirishning imkoni yo'q. Demak, aloqaning muhim vazifalariga qo'shinlar jangovar harakatlarini xo'jalik va texnik ta'minlash bo'yicha farmoyishlarni uzatishni va xabarlarini qabul qilishni ta'minlash ishlari ham kiradi.

Yuqorida keltirilgan vazifalar umumiy holda shakllantiriladi va jangovar harakatning istalgan bo'g'iniga va ko'rinishiga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Ammo jangovar harakatning turli bo'g'inlari va ko'rinishlari uchun aniq mazmuni va bajarilish shartlari turlicha bo'ladi.

4.4. Aloqaga qo'yiladigan talablar

Aloqa komandirning qarori va yuqori shtabning aloqa bo'yicha farmoyishlariga muvofiq aloqa kuchlari va vositalari mavjudligi, ularning holatidan kelib chiqqan holda tashkil etiladi. Aloqaning o'z vaqtida tashkil etilishiga ma'sul shaxs - shtab boshlig'i.

O'z oldida turgan vazifalarni sifatli bajarish uchun aloqaga quyidagi talablar qo'yiladi:

- aloqaning o'z vaqtidaligi;
- aloqaning ishonchliligi;
- aloqaning xavfsizligi;

Aloqaniga o'z vaqtidaligi tezkor-taktik vaziyat belgilab beradigan muddatlarda xabarlarni uzatish va muloqat olib borishni ta'minlash imkonini xarakterlaydi. Aloqa o'rnatish vaqti $t_{o'rn}$ aloqani o'rnatish uchun belgilangan t_{bel} vaqtdan kichik yoki unga teng bo'lishi kerak:

$$t_{o'rn} < t_{bel}$$

Aloqa o'rnatishga sarflanadigan vaqt o'z ichiga quyidagilarni oladi: bajaruvchiga vazifa qo'yishga ketgan vaqt, bo'linmalarning ish joyiga ko'chish vaqti; tugun (stansiya) ni yoyish va (yoki) aloqa liniyalarini qurishga ketgan vaqt, aloqaga kirish, kanallarini sozlash vaqti. Aloqani o'rnatish ishlari kanallarni ishlatilishga topshirish bilan yakunlanadi. Aloqaning o'z vaqtidaligiga quyidagicha erishiladi:

- qo'yilgan vazifalarga yuqori darajada javob beruvchi aloqa vositalari va uni tashkil qilish usullaridan foydalanish;
- aloqa kuchlari va vositalarining yuqori jangovar shayligini ushlab turish; aloqadan foydalanishda zarur qulayliklarni yaratish, xususan, komandir va shtab ofitserlari ish joylaridagi aloqa vositalaridan, radiovositalarni qo'llaganda masofadan boshqarish va kommutatsiyadan foydalanish;
- tezligi yuqori vositalardan, aloqani komandir va shtab ofitserlarining aloqa vositalaridan, qo'shinlarni maxfiy boshqarish QMB hujjatlaridan shaxsan foydalana olishlari va qisqa muloqatlar olib borishni bilishlari muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, aloqaning o'z vaqtidaligi shaxsiy tarkibning malakasi va

aloqa tugunlarida tezkor-texnik xizmatning OTX aniq tashkil etilganligi bilan, aloqa tugunlaridan axborot o'tishining nazorat vaqtlarini o'rnatish bilan, aloqaning texnik vositalari orqali axborotning o'tishini uning shoshilinchligini, jangovar hujjatlarning shakli va hajmini hisobga olgan holda tashkil qilish bilan belgilanadi.

Aloqaning o'z vaqtida bo'lishiga ta'sir qiluvchi muhim sabablardan biri – qisqa signallarni keng qo'llash, aloqa vositalaridan uzatiluvchi jangovar hujjatlarga qat'iy rioya qilish hisoblanadi.

Aloqaning o'z vaqtida bo'lishi, shuningdek:

- maxfiylashtiruvchi, avtomatlashtiruvchi qurilmalardan foydalanish;
- aloqa tugunlaridan axborotning o'tish vaqtini qisqartirish;
- hujjatlarni manzillariga yetkazish bo'yicha nazoratni tashkil etish aloqani uzluksiz va tezkor boshqarish bilan erishiladi.

Xabarlarini o'z vaqtida uzatishga qo'yiladigan talablar ularning aloqa tizimida qolish vaqti bilan belgilanadi. Bu esa axborotning muhimligi (bahosi) va ushbu axborot bo'yicha qaror qabul qilish va bajarish vaqtiga bog'liq.

Shunga muvofiq, barcha xabarlar shoshilinchlikning qator kategoriyalariga bo'linadi: "Monolit", "Havo"(vozdux) "Raketa", "Samolyot", "Oddiy".

O'ta muhim axborotlarni o'z vaqtida uzatish maqsadida turli ko'rinishdagi xabarlar uchun prioritetlar o'rnatiladi.

Prioritet - xabarlar uzatish ketma-ketligini belgilash maqsadida abonentlarning klassifikatsiyali guruhlanishidir.

Boshqarishning taktiq bo'g'inida jangovar boshqarishning xabar (buyruq) larini uzatish va yetkazish vaqti o'z vaqtida uzatish ehtimolligi 0,9 bo'lganda 30 sekunddan oshmasligi kerak, tasdiqlarni uzatish vaqti esa 0,8 ehtimollik bilan 1,5 minutdan oshmasligi kerak.

Aloqaning ishonchliligi uzatilayotgan xabarni qabul qilish punktida o'rnatilgan aniqlik bilan qayta tiklashni ta'minlash qobiliyatini xarakterlaydi. Raqamli, shifrlangan va kodlangan xabarlarini uzatishda aloqaning yuqori ishonchliligi alohida ahamiyatga ega. Raqamlar ko'rinishidagi axborotlarni uzatishda aloqaning barcha turlari uchun xatoliklar koeffitsienti ishonchlilik mezoni hisoblanadi.

$$K = \frac{m_{xm}}{m_0 + m_{xm}}$$

Bu yerda m_0 va m_{xm} - mos holda raqamli signalning tug'ri qabul qilingan va buzilgan holda (xato, noto'g'ri) qabul qilingan belgilar soni.

Analogli telefon aloqasi ishonchliligining asosiy mezoni bo'lib aniqlik **A** xizmat qiladi.

$$A = \frac{M_0}{M}$$

Bu yerda M_0 - to'g'ri qabul qilingan jumla elementlarining soni, M - uzatilgan jumla elementlarining umumiy soni.

Telefon aloqasi jumlaning aniqliligi A bilan baholanadi. Odatda a'lo sifatli kanal uchun $A_f < 0,99$; yaxshi sifatli uchun $0,97$ va qoniqarli sifat uchun - $0,96$. Bunda oliy sifatli telefon kanali uchun jumla uzatish tezligi odatda soatiga **2000** ga yaqin so'z, yaxshi va qoniqarli sifat uchun mos holda **1,3** va **1,8** marotaba kam bo'ladi.

Aloqaning ishonchliligini oshirish uchun komandir (boshliq) lar telefonda olib boriladigan muloqat qoidalariga rioya qilishlari lozim.

Aloqaning yuqori ishonchliligiga quyidagicha erishiladi: o'ta muhim axborotlarni uzatish uchun yuqori sifatli kanallardan foydalanish; axborotni qayta tekshirish usuli bilan uzatish, qayta uzatish; ishonchliligini oshiruvchi qurilmalarni qo'llash. Ishonchlikning oshishiga quyidagilar omillik qiladi: aloqa vositalarining texnik va elektr ko'rsatkich (parametr)larini me'yorda (normada) ushlash; aloqa kanallarining yuqori sifatligini ta'minlovchi tadbirlar; shaxsiy tarkibning yuqori tayyorgarligi.

Aloqaning xavfsizligi - aloqaning uzatilayotgan (qabul qilinayotgan) axborotning mazmunini dushmandan sir saqlashni ta'minlash hamda yolg'on axborot kirishiga qarshilik ko'rsatish qobiliyatidir.

Uzatilayotgan xabarlar mazmunining maxfiyligiga qo'yiladigan talablar chegarasi axborotni maxfiylashtirish (shifrlash, kodlash) ning zarur darajasini aniqlash bilan belgilanadi. Boshqarishning taktik bo'g'inida axborotning **70%** maxfiy xarakterga ega.

Uzatilayotgan xabar mazmunining ochilishiga maxfiylashtirilgan avtomatik aloqa yuqori darajada qarshilik ko'rsatadi.

Hujjat ko'rinishidagi maxfiy xarakterga ega xabarni yetkazish uchun harakatlanuvchi aloqa vositalari ham ishlatilishi mumkin.

Noto'g'ri axborot kirishiga qarshi tura oladigan aloqa qobiliyatiga qo'yiladigan talablar chegarasi uning imitqat'iyiligi ("imitostoykost") bilan belgilanadi. Bu esa qurilmalarga hamda operatorning yolg'on axborot kirishini aniqlay olish qobiliyati bilan belgilanadi.

Imitqat'iylikning ko'rsatkichi sifatida dushman tomonidan yolg'on xabarlarni kiritishga urinish ehtimolligi R_{yox} dan foydalaniladi, u esa xabarlarni qabul qilishda aloqa vositalari (operatorlar) tomonidan xato (yolg'on axborot) ni aniqlay olmaslik ehtimolligiga son jihatdan teng.

Bunda $R_{yox} < R_{yox\ rux}$ tengsizlik bajarilishi kerak, $R_{yox\ rux}$ - yolg'on xabar kiritilishining ruxsat etilgan ehtimolliligi.

Boshqarishning taktik bo'g'inida telefon orqali yolg'on xabarlarni kiritishga yo'l qo'yilmaydi, shuning uchun aloqani tashkil qilishda dushman tarafidan ovoqli yolg'on xabar kiritilish ehtimolligini yo'qotish uchun barcha tadbirlar amalga oshirilishi kerak.

Noto'g'ri telegraf xabarlar va ma'lumotlarni kiritish ehtimolligi 10^{-6} dan oshmasligi kerak. Bu maqsadda maxsus tadbirlar o'tkaziladi: chaqiruv, parollar tizimi ishlab chiqiladi, imitohimoya qurilmalari qo'llaniladi.

Aloqaning xavsizligiga quyidagichi erishiladi:

- aloqaning maxfiylashtiruvchi qurilmalarini qo'llash, uni ishlatishi qoidalariga rioya qilti;
- chaqiruv jadvallari va qo'shinlarni maxfiy boshqarish **QMB** hujjatlaridan foydalanish;
- ochiq kanalda muloqat olib boradigan shaxslar sonini kamaytirish;
- parollashtirishning samarali uslublari va imitohimoya qurilmalarni qo'llash;
- qabul qilingan matnni qayta uzatish yo'li bilan uning xaqiqiyiligini tekshirish;
- aloqa o'rnatish va muloqat olib borish qoidalariga qat'iy rioya qilish;
- avtomatlashtirilgan boshqarish tizimida (ABT)da, aloqa tugunlarida, stansiyalar va apparatxonalarda axborotni qayta ishlash va saqlashda maxfiylik rejimiga ko'yiladigan talablarning bajarilishi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan aloqaga ko'yiladigan talablar boshqaruv talablari bilan belgilanadi va tashkil qilingan aloqa tizimi orqali amalga oshiriladi.

Qo'shinlarni boshqaruv maxfiyiligini ta'minlashning muhim sharti - aloqa intizomini qat'iy saqlashdir.

Aloqa intizomi - o'rnatilgan ish uslubiga, aloqa o'rnatish, aloqa kanallari orqali axborot almashinish va muloqat olib borish qoidalariga qat'iy va aniq rioya qilishdir.

Aloqa intizomiga quyidagicha erishiladi:

- shaxsiy tarkibning aloqa o'rnatish, aloqa kanallari orqali axborot almashish va muloqat olib borish qoidalarini mustahkam bilishi va unga amal qilishi bilan;
- nurlanuvchi aloqa vositalarining o'rnatilgan ish rejimlariga, ulardan foydalanish tartibiga, radiomaskirovka tadbirlariga rioya qilish bilan;
- komandir, shtab va xizmat ofitserlarining qo'shinlarni maxfiy boshqarish bo'yicha va aloqa vositalaridan foydalanish bo'yicha shaxsiy tayyorgarlikning yuqori darajada bo'lishi bilan;
- barcha aloqa vositalaridan foydalanishni amaliy nazorat qilish bilan;

- bo‘linma shaxsiy tarkibini yuqori sezgirlik ruhida tarbiyalash bilan.

4.5. Aloqa o‘rnatishning asosiy tamoyillari. Aloqa o‘rnatish va saqlashning javobgarliklari

Aloqa brigada (batalon) komandirining qarori, yuqori shtabning aloqa bo‘yicha farmoyishi, brigada (batalon) shtabi boshlig‘ining ko‘rsatmalari asosida aloqa kuchlari va vositalari mavjudligidan kelib chiqib, shuningdek dushmaning aloqa tizimiga ta’sir ko‘rsatishini hisobga olgan holda tashkil qilinadi.

Brigada (batalon) komandiri jangga qaror qabul qila turib boshqarishni belgilaydi va tashkil qiladi. Jang rejasiga muvofiq brigada (batalon) shtabi boshlig‘i qo‘l ostidagi va birlashtirilgan bo‘linmalar bilan aloqa tashkil qiladi.

Bo‘linmalardagi aloqa komandir qarori va boshliq ko‘rsatmalariga asosan, kuch va vositalarning mavjudligiga qarab tashkil qilinadi.

Aloqa bo‘linmalari doimiy joyda bo‘lganda yoki marsh bajarayotganda, jangga tayyorgarlik va uni olib borishda boshqarishni ta’minlash lozim. Agar aloqa to‘g‘ri tashkil qilingan bo‘lsa, vaziyat keskin o‘zgarganda ham uni o‘zgartirishning yoki qayta tashkil qilishning hojati bo‘lmaydi.

Aloqa jangovar topshiriqning bor chuqurligida tashkil qilinishi lozim va bo‘linmalar bu topshiriqlarni bajarishini ta’minlashi kerak.

Bo‘linmalarda turli aloqa vositalarining (radio, simli, harakatlanuvchi, signalli) mavjudligi ulardan kompleks foydalanishni nazarda tutadi. Bu ularning turlicha imkoniyatlari bilan tushuntiriladi. Masalan, ularning ba’zilar jangda (radio, signalli vositalar) ishlatilsa, boshqalaridan joyda turg‘un qolganda yoki mudofaada (simli vositalar) foydalaniladi.

Aloqani tashkil qilish aloqani o‘rnatishga va buning uchun vositalarni ajratishga qat’iy javobgarlikni talab etadi.

Aloqa bevosita ko‘l ostidagi komandirlar, shtablar hamda bir pog‘ona pastdagilar bilan o‘rnatiladi. Bo‘ysunuvchilar bilan o‘rnatiladigan aloqaga yuqori shtab javobgardir. Biroq aloqa yo‘qotilganda yuqori shtab bilan birga bo‘ysunuvchi shtablar ham aloqani zudlik bilan tiklashga oid choralarni ko‘rishlari lozim. Odatda radioreleyli, troposfera, feld’eger-pochta aloqasi va simli aloqa yuqori shtabdan bo‘ysunuvchi tarafga qarab, yuqori shtabning vositalari bilan o‘rnatiladi.

Radioaloqa yuqori turuvchi va bo‘ysunuvchilarning vositalari bilan o‘rnatiladi.

O‘zaro hamkorlikda bo‘lgan (qo‘shni) qo‘shilmalar (qismlar, bo‘linmalar) orasidagi aloqa o‘zaro hamkorlikni tashkil qilayotgan shtab (komandir)ning ko‘rsatmalariga asosan o‘rnatiladi. Ko‘rsatmalar bo‘lmaganda yoki aloqa

yo'qotilganda o'zaro hamkorlikda bo'lgan tuzilma komandirlari aloqa o'rnatish choralari ko'rishga majburdirlar.

O'zaro hamkorlikda bo'lgan tuzilmalar orasida aloqa o'rnatishga va uni saqlab ushlab turishga javobgarlik quyidagicha belgilanadi:

- front bo'yicha aloqaga - o'ng tarafdagi qo'shni;
- front ortidan front tarafga bo'lgan aloqaga - ikkinchi eshelon (zaxira)da bo'lgan qism shtabi;
- umumqo'shin ko'shilmalari (qismlar, bo'linmalari) bilan maxsus qo'shin qismlari (bo'linmalari) orasidagi aloqaga - umumqo'shin qo'shilmasi (qismi, bo'linmasi) shtabi, umumqo'shin bo'linmasi bilan qo'shin turlari bo'linmalari orasidagi aloqaga - qo'shin turlari bo'linmalari.

O'zaro hamkorlik aloqasi quyidagicha o'rnatiladi:

- birlashmalar orasida - front bo'yicha, front ortidan front tarafga; radioliniyalar hamda feld'eger-pochta aloqasida - har bir birlashmaning vositalari bilan; tayanch tarmoqlari bo'yicha - yukori shtab yoki o'zaro hamkorlikda bo'lgan shtablar ajratadngan kanallardan foydalanish;

- front bo'ylab qo'shni qism (bo'linma)lar orasida: radio, radioreleyli va feld'eger-pochta aloqasi (FPA) - har birining vositalari bilan; simli aloqa - o'ng tarafdagi qo'shni vositalar bilan; bir brigadaning ko'shni batalonlari orasida - brigadaning aloqa tuguni orqali; motoo'qchi va tank qismlari bilan hamkorlikda bo'lgan artilleriya orasida: radioaloqa - har birining vositasi bilan; simli aloqa - artilleriyaning vositalari; motoo'qchi, tank va artilleriya qo'shilmalari (qismlari, bo'linmalari) bilan desantchi-zarba va havo-desantlari qo'shilmalari (qismlari, bo'linmalari) orasida: radioliniyalarda-hamkorlikda bo'lgan har bir shtab vositalari bilan, uchish vaqtida - havo hujumiga qarshi va harbiy havo kuchlari qo'shinlarini jangovar boshqarshining yagona markazlashgan tizimi orqali; aloqaning tayanch tizimi bo'ylab - birlashma shtablari ajratadigan kanallardan foydalanish bilan.

Shtab ofitserlari aloqa vositalari bilan birga quyidagi yo'nalishlarda jo'natiladi: o'ng tarafdagi ko'shnidan chapga qarab; ikkinchi eshelon (zaxira) birlashmalaridan - birinchi eshelon birlashmalari tarafga; raketa ko'shinlari va artilleriyadan - motoo'qchi, tank, havo-desant qismlari tarafga: havo hujumiga qarshi va harbiy havo kuchlari birlashmalaridan - umumqo'shin birlashmalari tarafga.

Boshqa kuchlar tizimi bo'linmalari bilan hamkorlik aloqasi komandirlarning birgalikda radiotarmoqqa kirishi bilan radio orqali; simli, radioreleyli aloqa esa - brigada (tezkor rahbarlik) aloqa tugunlari orqali.

Dushmanning ommaviy qirg'in qurolini qo'llash xavfi, radioaktiv, kimyoviy va biologik (bakteriologik) zararlanish haqida qo'shinlarni ogohlantirish

hech qanday navbatsiz, barcha kanallar orqali, hamda signalli vositalar bilan amalga oshiriladi.

Motoo'qchi (tank) bo'linmalari o'z aviatsiyasini radiolokatsion tizim kodlari yordamida tanishlari, ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan sharoitda esa samolyotning ko'rish vositalari (bort chiroqlari, faralar, signal patronlari) uzatadigan signallar yordamida tanishlari mumkin. Nishonga yo'naltirish maqsadida aviatsiya va ko'shinlar orasida radio - va radiotexnik vositalar, tutunli, yorituvchi nur chiqaruvchi snaryad va minalar, mo'ljal - signalli bombalar va raketalardan foydalaniladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan aloqa tashkil qilish tamoyillari to'g'ri ko'llanilganda ko'shinlar oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish imkoni yaratiladi.

Nazorat savollari

1. Boshqarish tizimida uzatiluvchi axborotlarning turlari.
2. Aloqaning turlari.
3. Aloqaning ko'rinishlari.
4. Aloqaning asosiy vazifalari.
5. Aloqaga qo'yiladigan talablar.
6. Aloqa o'rnatishning asosiy tamoyillari.

5. Aloqa tizimi

Aloqa tizimi ATm – qo'shinlar, kuchlar va qurollarni boshqaruv tizimining tashkil etuvchi qismi bo'lib, u qo'yilgan vazifa, joy va harakat vaqti bo'yicha o'zaro bog'langan va kelishilgan aloqa tugunlari (AT), liniyalari va stansiyalarning yig'insidir. Qo'shnlarni boshqarishni ta'minlash maqsadida ular yagona reja asosida yoyiladi.

Aloqa tizimi quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- har qanday quroldan foydalangan holda jang harakatlarini olib borish vaqtida boshqarish punktlari orasida yuqori darajadagi ishonchlilik bilan axborotning o'z vaqtida almashuvi;
- turli aloqa vositalarining dushman radiobosqinchiligiga qarshi turish va texnik imkoniyatlardan to'liq holda foydalanish.

Birlashma aloqa tizimi tashkiliy jihatdan quyidagilarni o'z ichiga oladi: o'z birlashmasi va bo'ysundirilgan qism (bo'linma) boshqarish punktining aloqa tuguni BP AT; yordamchi aloqa tugunlari; retranslyatsiya punktlari; boshqarish punktlari orasida to'g'ri chiziqli aloqa liniyalari; FPA stansiyasi; aloqa harakatlanish vositalari yo'nalishi, aloqa boshqarish punktlari; texnik taminlash organlari va

qo'shirlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari (QABT), shuningdek zaxira kuchlari aloqa vositalari.

Aloqa tizimi asosini BP AT hamda ular orasida qurilgan (yoyilgan) aloqa liniyalari tashkil etadi.

Harbiy okruglar aloqa tizimi tarkibiga quyidagilar kiradi: BP AT tayanch tizimi va yordamchi AT, to'g'ri o'qli va rokadali ko'p kanalli aloqa liniyalari; BP orasida aloqaning to'g'ri chiziqli liniyalari (yo'nalishlari); BP AT ning tayanch tizimiga bog'lanish liniyalari; FPA tarmog'i; aloqa kuchlari va vositalari zaxirasi shuningdek aloqani boshqarish tizimi va texnik ta'minot tizimi va QABT.

Aloqa tizimi statsionar (qo'zg'almas) va harakatchan bo'lishi mumkin. Statsionar aloqa tizimi - statsionar tugunlar va aloqa liniyalari asosida qurilgan tizimdir. Dala aloqa tizimi - dala tugunlari va aloqa liniyalari asosida yoyilgan tizimdir.

Aloqa tizimi komandir va shtablar doimiy joyda bo'lganida ham, harakatda bo'lganida ham qo'shirlarni boshqarish zaruratini ta'minlashi lozim.

Aloqa tizimining asosiy elementlarini ko'rib chiqamiz.

5.1. Aloqa tugunlari

BP aloqa tugunlari (AT) aloqa tizimining muhim elementlaridandir. Ular qo'shirlarni boshqarish maqsadida aloqa vositalarining kompleks vositalaridan samarali foydalanishni ta'minlaydilar. Aloqa tugunlarini qurish tamoyillari bilan bog'liq masalalar keyingi bo'limlarda ko'rib chiqiladi.

5.2. Aloqa liniyalari

Aloqa tizimining tugunlari va stansiyalari turli vositalar bilan tashkil qilingan aloqa liniyalari bilan bog'lanadi. Aloqa liniyalarini qurish uslublari boshqaruv zaruriyati, aloqa kuchlari va vositalarining mavjudligi, jangovar vaziyat shartlari va boshqa sabablar bilan belgilanadi. Aloqa liniyalari radiovositalar, radioreleyli, troposfera aloqasi, kosmik aloqa va simli aloqa vositalari, hamda feld'eger-pochta aloqasi yordamida tashkil qilinishi mumkin.

Aloqa liniyasi AL - aloqa tizimi elementi bo'lib, umumiy tarqalish muhitiga, chiziqli yoki (va) antenna-machtali qurilmalarga, hamda ularga xizmat ko'rsatish kuch va vositalariga ega bo'lgan kanallar va guruhli traktlarni tashkil qilishni ta'minlaydi. Turli (radio, radioreleyli, simli, harakatlanuvchi) aloqa vositalaridan tuzilgan va boshqarish punktlarining ikkita aloqa tuguni (yordamchi tugunlar) orasida aloqani tiklashga mo'ljallangan liniyalar yig'indisi aloqa yo'nalishini tashkil etadi.

Aloqa liniyalari quyidagilarga bo'linadi:

- jihozlanishi, ekspluatatsiya shartlariga ko'ra - statsionar va dala aloqa liniyalari;

- foydalanilgan vositalarga ko‘ra – radio, radioreleyli, troposfera va kosmik, simli (havo va kabelli) aloqa liniyalari:

- aloqa tizimidagi vazifasiga ko‘ra - o‘qli, rokadali, chiziqli aloqa, bog‘lanish, ulanish, masofadan boshqarish va abonent aloqa liniyalari.

Qo‘shimlarda (qismlarda) asosan to‘g‘ri chiziqli, ulanish, abonent, masofadan boshqarish liniyalaridan foydalaniladi.

Statsionar aloqa liniyalari tinchlik va urush vaqtida aloqani ta‘minlash maqsadida oldindan quriladi.

Dala aloqa liniyalari jangovar harakatlar (o‘quv, manyovrlar) vaqtida aloqani ta‘minlash maqsadida quriladi. Ularni qurish uchun radioreleyli, troposfera, kosmik va simli aloqa vositalaridan foydalaniladi. Dala aloqa liniyalari yuqori darajadagi mustahkamlikka, razvedhimoyaga va o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishlari kerak. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

- aloqa qismlari va bo‘linmalarining yuqori tayyorgarligi bilan;
- aloqa liniyalaridan ularning taktik-texnik tasniflari va vaziyat shartlariga mos holda foydalanish bilan;
- maxfiylashtirish qurilmalaridan keng foydalanish bilan;
- qurilmalarni ishchi holatda saqlash bilan;
- aloqa liniyasini o‘t ta‘siridan va dushman radiohalaqitlari ta‘siridan himoyani, qo‘riqlash va mudofaasini tashkil qilish bilan.

Dala aloqa liniyalarini qurish, ishlatish yoki foydalanish va texnik xizmat ko‘rsatish aloqa qismlari va bo‘linmalari orqali amalga oshiriladi.

To‘g‘ri chiziqli aloqa liniyalari BP AT orasida radio, radioreleyli, troposfera, kosmik va simli (kabelli) aloqa vositalaridan foydalangan holda quriladi. Chetki stansiyalar orasida to‘g‘ri chiziqli aloqa liniyalarini qurish imkoni bo‘lmaganda, retranslyatsiya (qayta qabul qilish va uzatish) stansiyalari (punktlari) qurilishi mumkin.

Bog‘lanish liniyalari BP AT bilan birlashma (davlat) aloqa tarmog‘iga tegishli tayanch tarmog‘ining tayanch tugunlari (bog‘lanish tugunlari) orasida quriladi. Umumqo‘shin va raketa qo‘shinlari BP ATning bog‘lanishi yuqori shtabning kuch va vositalari bilan amalga oshiriladi, qo‘shin turlari qo‘shimlari va qismlari hamda maxsus qo‘shimlarda esa - shaxsiy kuch va vositalar bilan amalga oshiriladi.

Aloqa tuguni elementlarini o‘zaro ulash uchun ulanish liniyalari quriladi.

Abonent liniyalari abonentning chetki aloqa vositalari bilan AT orasida quriladi.

5.3. Aloqa qo‘shinlari

Aloqa qo‘shinlari harbiy qo‘shinlarni boshqarish uchun zarur bo‘lgan aloqa tizimlarini yoyish va ularni ishga tushirishga mo‘ljallangan. Ularga shuningdek QABT vositalarini ekspluatatsiya qilish, aloqa xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha texnik va tashkiliy tadbirlarni tashkil qilish vazifalari yuklanadi.

Aloqa qo‘shinlari quyidagilardan tashkil topgan: brigada, alohida batalonlar, guruh, garnizon aloqa tugunlari, aloqa xavfsizligini nazorat qilish tugunlari, feld‘eger-pochta aloqasi tugunlari. Aloqa qo‘shinlari o‘z ichiga tugun, liniya va boshqaruv bo‘linmalarini, FPA, aloqa xavfsizligi va texnik ta‘minot xizmatlarini oladi.

Tugun qism (bo‘linma)lari quyidagi vazifalarni bajaradi: harakatdagi va boshqarish punktlari orasida aloqa tugunlarini; boshqarish punktlari orasida to‘g‘ri chiziqli radio va kosmik aloqa liniyalarini; BP ATning tayanch aloqa tarmog‘iga radioreleyli, kabelli, troposferali liniyalarini yoyish va ishga tushirish.

Chiziqli va boshqaruvchi aloqa bo‘linmalari o‘z tarkibida ko‘p kanalli radioreleyli, troposfera va simli aloqa vositalariga ega bo‘lgan holda aloqaning o‘q va rokada liniyalarini, tayanch va yordamchi aloqa tugunlarini, boshqarish punkti ATlarini aloqa tarmog‘iga ulovchi bog‘lanish liniyalarini, o‘z qo‘l ostidagi qism (bo‘linma)lar tomoniga to‘g‘ri chiziqli aloqa liniyalarini quradilar. Aloqa yo‘nalishining chiziqli bo‘linmalari radiostansiyalar maxfiylashgan avtomatik aloqa MAA (ZAS) apparatxonalariga ega. FPA bo‘linmalari qo‘shinlarga maxfiy va xizmat hujjatlarini, davriy nashrlar, boshqa bosma nashrlar va pochta jo‘natmalarini yetkazish uchun xizmat qiladi.

Aloqa xavfsizligi bo‘linmalari birlashma, qo‘shilma, qism shtablari tomonidan, hamda aloqa ko‘shinlari, qismlari va bo‘linmalari tomonidan radiomaskirovka va MAA qurilmalaridan foydalanish talablari, qo‘shinlarni maxfiy boshqarish qoidalari va aloqa xavfsizligini ta‘minlovchi boshqa hujjatlarning bajarilishini nazorat qiladilar.

Aloqani va QABTni ta‘minlovchi qism (bo‘linma)lar, tashkilotlar, avtomatlashtirilgan boshqarish kurilmalarini, sarflanadigan va ekspluatatsiya qilinadigan materiallar bilan ta‘minlaydi, shuningdek aloqa vositalari va QABT ishdan chiqqanda ularni tiklash (ta‘mirlash) hamda ishga tushirish bo‘iicha ham tadbirlarni bajaradilar.

Aloqa bo‘linmalari maxsus qo‘shinlar, qo‘shin turlari, maxsus qo‘shin, xo‘jalik, texnik ta‘minlash qismlari tarkibida bo‘ladi. Ular aloqa vzvodlari, guruhlari va seksiyalariga bo‘linadilar. Ularning tuzilishi va aloqa vositalari bilan ta‘minlanishi tegishli ko‘shilma (qism)ning tashkiliy holati bilan aniqlanadi.

5.4. Aloqa tizimiga qo‘yiladigan talablar

Aloqa tizimlari (ATm) qo‘shinlar, kuch va vositalarni boshqarishga doimo tayyor, yuqori chidamli, harakatchan, yetarlicha o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi hamda razvedhimoya talablariga javob berishi lozim.

Yuqori darajadagi jangovar tayyorgarlik harbiy aloqa tizimining joriy holatidan o‘tish zarur bo‘lgan holatga o‘z vaqtida o‘tishni ta‘minlash qobiliyati bilan ifodalanadi. Bunda aloqa qo‘shinlari va tizimlarning tayyorgarligi ular yordamida boshqarishi ko‘zlangan qo‘shinlarning tayyorgarligiga qaraganda yuqoriroq bo‘lishi zarur.

Bunga quyidagi yo‘llar bilan erishiladi:

- aloqa bo‘linmalari va qismlarini jangovar vazifalarni bajarishga doimo shay holda ushlab turish, aloqa tizimlarini oldindan tayyorlash va ularni uzluksiz mukammallashtirib borish;
- aloqa tizimlarini yuqori jangovar tayyorgarlikka o‘tishi bo‘yicha tizimlashgan mashg‘ulotlar o‘tkazish:
 - aloqa tugunlari, stansiyalar va liniyalarda jangovar navbatchilikni aniq tashkil etish;
 - aloqa o‘rnatish va rejalashtirish bo‘yicha qarorlarni o‘z vaqtida qabul qilish;
 - aloqa qo‘shinlarining bilim darajasi va dala sharoitida ko‘nikmalarining yuqori bo‘lishi;
 - aloqa vositalarining amaliy tatbiq etilishga texnik tayyor bo‘lish, shaxsiy tarkibning esa ko‘yilgan vazifalarni bajarishga doimo tayyor turishi;
 - xavf tug‘ilgan vaqtda safarbarlik bo‘yicha yuqori tayyorlarligi, aloqa qismlarining tarqatilishiga tayyor turish;
 - shaxsiy tarkibning intizomi, sergakligi va ma‘naviy-ruhiy tayyorgarligi yuqori darajada bo‘lishi, aloqani qat‘iy va uzluksiz boshqarish.

Aloqa tizimining chidamliligi – aloqa tizimining har qanday faktorlar ta‘siri ostida ham qo‘shinlar va qurollarni boshqara olish qobiliyatidir. U quyidatilar bilan aniqlanadi:

- yashovchanlik;
- halaqitlarga chidamlilik;
- aloqa tizimi vositalari, komplekslari va elementlarining ishonchliligi.

Chidamlilikning yuqorida keltirilgan tashkil etuvchilarining har biri aloqa tizimiga ta‘sir etuvchi o‘zining faktor guruhlarini inobatga oladi.

Yashovchanlik dushman quroli yo‘qotish omillarining aloqa tizimiga ko‘rsatadigan ta‘siri bilan ifodalanadi, halaqitga chidamlilik aloqa tizimining barcha

turdagi halaqitlarga qarshi turish qobiliyatini belgilaydi, shu bilan bir qatorda texnik va ekspluatatsiya faktorlarini inobatga oladi.

Aloqa tizimi chidamliligining asosiy ko'rsatkichi sifatida buzilishsiz ishlash koeffitsienti va buzilishsiz ishlash o'rtacha vaqti olinadi.

Aloqa tizimi hamda elementlarining chidamliligi axborotning o'z vaqtida uzatilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun aloqa yo'nalishining chidamliligiga bo'lgan talab turlicha hajm va ahamiyatlikda bo'lgan xabarlar o'z vaqtida, ishonchli va maxfiy uzatilishidan kelib chiqqan holda qo'yiladi. Ahamiyatiga qarab aloqa ko'shinlari uch guruhni tashkil qiladi:

- birinchi guruhga motoo'qchi, tank batalonlari, alohida raketa divizionlari, artilleriya bo'linmalari tarafga o'rnatilgan aloqa yo'nalishlari kiradi;
- ikkinchi guruhga birlashma qo'mondonlik punkti QP (IQP) tomonidan birlashma qismlari, zaxiradagi hamda front orti boshqaruv punkti FOBP tarafga o'tkazilgan aloqa yo'nalishlari;
- uchinchi guruhga esa birlashma FOBP dan chiqqan aloqa yo'nalishlari kiradi.

Aloqa tizimining yashovchanligi - aloqa tizimining dushman barcha qirg'in vositalarining ta'siri sharoitida ham qo'yilgan vazifalarni bajara olish xususiyatidir.

Amalda aloqa tizimi yashovchanligini baholash zarurati kutilayotgan yo'qotishlarni oldindan baholash vaqtida tug'iladi. Aloqa yo'nalishi yashovchanligi buzilishsiz ishlash koeffitsienti (tirik qolish ehtimolligi) yoki aloqa yo'nalishining to'xtab turish koeffitsienti (talofat ko'rish ehtimolligi) bilan ifodalanadi.

Aloqa tizimining yashovchanligini quyidagi tadbirlar ta'minlaydi:

- dushmanning ommaviy qirg'in qurollari (OQQ) va yuqori aniqlikdagi qurol (YuAQ)lardan foydalanishga bevosita tayyorgarligi haqida aloqa qismlari va bo'linmalarni, aloqa tizimi elementlarini o'z vaqtida xabardor etish;
- aloqa tuguni elementlarini tarqoq holda joylashtirish va nurlanuvchi aloqa vositalarini boshqarish punktidan tashqariga chiqarish;
- aloqa tizimi elementlari va bo'linmalarining joylashish o'rnini davriy ravishda o'zgartirib turish;
- joyning himoyalash va niqoblash (maskirovka) xususiyatlaridan foydalanish;
- aloqa tizimi qismlari, bo'linmalari va elementlari joylashgan hududlarni muhandislik inshootlari bilan jihozlash;
- qo'shin radioniqoblash (radiomaskirovka) tadbirlarini bajarish.

Aloqa tizimi (elementi)ning halaqitlarga chidamliligi uning barcha turdagi halaqitlarning ta'siri ostida ham qo'yilgan vazifalarni bajara olish

qobiliyatini ifodalaydi va axborot yoʻnalishlarida dushmanning yoʻnaltirilgan halaqitlari, hamda radioelektron vositalari elektromagnit moslashuvining buzilishi natijasida kelib chiquvchi tasodifiy halaqitlarning aloqani buzishi mumkin boʻlgan ehtimolligi bilan son jihatdan baholanadi.

Aloqa tizimini dushman koʻzlagan halaqitlardan himoya qilish tashkiliy va texnik tadbirlarni oʻz ichiga oladi. Ulardan asosiylari quyidagilar:

- shaxsiy tarkibni turli halaqit sharoitlarida ham aloqa vositalarini ishlatishga oʻrgatish;
- muhim aloqa yoʻnalishlarida turli diapazonlardagi bir necha radiotarmoqlar tashkil etish;
- muhim aloqalar uchun zaxira chastotalarini oʻrnatish va ularni almashtirib turish tartibini oʻrnatish;
- maxfiy radiotarmoq va radioyoʻnalishlar tuzish, shuningdek aylanib oʻtuvchi kanallardan foydalanish va h.k.

Elektromagnit moslashuvga quyidagi yoʻllar bilan erishiladi:

- bir boshqarish punktida joylashgan aloqa vositalari uchun chastotalarning toʻgʻri taqsimlanishi va belgilanishi;
- stansiyalar orasidagi oʻzaro belgilangan masofalariga amal qilish;
- antennalarni toʻgʻri tanlash, joylashtirish va yoʻnaltirish.

Aloqa tizimning ishonchliligi deganda belgilangan chegarada tizim aloqa texnikasining ekspluatatsiya koʻrsatkichlarini vaqt mobaynida saqlagan holda, hamda qoʻyilgan vazifalarni bajarish qobiliyati tushuniladi. Ishonchlilik koʻllanilayotgan texnik vositalarning ishonchliligi bilan hamda aloqa vositalari va komplekslariga ekspluatatsion xizmat koʻrsatishni tashkil etish bilan aniqlanadi.

Aloqa vositalari va komplekslarning texnik-ekspluatatsion tasniflarini yaxshilash quyidagicha amalga oshiriladi:

- shaxsiy tarkibning yuqori maxsus koʻnikmaga ega boʻlishi;
- texnik ekspluatatsiya qoidalariga qatʼiy amal qilish;
- aloqa yoʻnalishlarida turli vositalardan kompleks foydalanish;
- nazoratning kompleks vositalaridan foydalanish.

Aloqa tizimining harakatchanligi – belgilangan vaqt ichida uni yoyish, yigʻish, koʻchirish va sharoitga mos holda tuzilishini oʻzgartirish qobiliyatidir.

Aloqa tizimi tuzilishining oʻzgarishiga zaruriyat qoʻshin va boshqarish punktlar (BP)ning koʻchishi, BPlarning ishdan chiqishi, bajarilayotgan vazifa xarakterining oʻzgarishi bilan paydo boʻladi.

Aloqa tizimini qayta qurish masalasi aloqa tugunlarini yangi rayonlarga koʻchirish va yoyish, yangi aloqa liniyalarini qurish va aloqa oʻrnatish, ishdan chiqqan aloqa tizimi elementlarini tiklash, hamda aloqa kuchlari va vositalari yordamida manyovr oʻtkazish bilan hal qilinadi.

Harakatchanlikning ko'rsatkichi sifatida aloqa tizimi strukturasi o'zgartirishga zarur bo'lgan T_x vaqt ishlatiladi

$$T_x = t_y + t_m + t_{yo} + t_{ao} + t_s.$$

Bu yerda: t_y - aloqa tizimini yig'ish vaqti, t_m - marsh bajarish vaqti, t_{yo} - aloqa tizimini yoyish vaqti, t_{ao} - aloqa o'rnatish vaqti, t_s - kanallarni sozlash va ekspluatatsiyaga topshirish vaqti.

Aloqa qismi va bo'linmalarining aloqa tizimlarini yoyishi, yig'ishi hamda o'zgartirishi uchun rejalashtirilgan ish hajmini bajarishga sarf qilingan vaqt T_v ruxsat berilgan vaqt T_{rux} dan oshmasligi kerakligini aloqa tizimi harakatchanligi talab qiladi.

$$T_v < T_{rux}$$

Amalda harakatchanlik talabining me'yoriy sharti sifatida aloqa tugunlari va vositalarni yig'ish, ko'chirish, yoyish va aloqa o'rnatish uchun ketgan vaqt qabul qilinadi.

Yuqori harakatchanlikka quyidagicha erishiladi:

- vazifani to'g'ri tushunib yetish va aniq qo'ya bilish;
- harakat taktikasini takomillashtirish;
- yuqori marsh tayyorgarligi, transport bazasi va aloqa vositalarini soz holda saqlash;
- barcha aloqa vositalari va elementlarni yuqori o'tuvchanlikka ega bo'lgan transport bazasi bilan ta'minlash va hakazo.

Aloqa tizimining o'tkazish qobiliyati qo'shinlarni boshqarish vaqtida xabarlarni uzatish va qabul qilish imkoniyatini ifodalaydi va aloqa yo'nalishining o'tkazish qobiliyati bilan aniqlanadi.

Aloqa yo'nalishining zaruriy o'tkazish qobiliyati - aloqa yo'nalishidan birlik vaqt oralig'ida belgilangan ishonchlilikka va maxfiylikka ega bo'lgan xabarlarning maksimal sonidir.

Aloqa tizimining zaruriy o'tkazish qobiliyati shunday bo'lishi kerakki, har qanday murakkab va og'ir sharoitda ham xabarlarning o'tish vaqti belgilangan vaqtdan oshmasligi lozim.

Aloqa tizimining zaruriy o'tkazish qobiliyatiga quyidagicha erishiladi:

- aloqa tizimining optimal tuzilishga ega bo'lishi;
- aloqa kanallarini tuzish va kommutatsiya qismida yuqori tezkorlik;
- boshqaruv organlari mansabdor shaxslar tomonidan uzatilayotgan xabarlarning belgilangan hajmini aniq bajarish:

- aloqa tugunlarida tezkor-texnik xizmatlarni aniq tashkil etish;
- aloqa va avtomatlashtirish vositalaridan komandir va shtab ofitserlarining bevosita ish joyida foydalanishlari.

Aloqa tizimining razvedhimoyalanganligi - dushmanning barcha turdagi rizvedkasiga qarshi tura olish qobiliyatidir.

Radio va radiotexnik razvedkaning yetarlicha imkoniyatiga ega bo'lgan dushman qisqa vaqt ichida uzatish qurilmasi ishlayotganini, radiostansiyaning joylashgan o'rnini aniqlashi, uzatilayotgan axborotning mazmunini ochishi mumkin. Aloqa tizimini fosh qilishda eng xavflisi radiorazvedkadir. Radiorazvedka real vaqt oralig'ida radionurlanuvchi vositalarning joylashgan o'rnini va tezkor-texnik aloqadorligini bilib olishi, buning natijasida esa, aloqa liniyalari va tugunlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi mumkin.

Aloqa tizimini va boshqarish punkti aloqa tugunlarini fosh etishga ketgan vaqt razvedhimoyaning asosiy ko'rsatkichidir. Aloqa tizimini fosh etishga ketgan vaqt T_f deganda, radiotarmoq va radioreleyli liniyalarning 70-80%ni dushman tomonidan fosh etishga ketgan vaqt tushuniladi.

Aloqa tugunini fosh etishga ketgan vaqt T_{Tf} deb, dushman razvedkasining aloqa tuguni joylashgan o'rnini va uning tezkor-taktik aloqadorligini aniqlashga ketgan vaqt tushuniladi. Aloqa tizimini razvedhimoyalashga qo'yilgan talablari barcha jangovar harakatlar uchun yagona emas. Aloqa tizimining maxfiylikini belgilashning asosiy sharti - qo'shinlarni boshqarish maxfiylikini ta'minlashdir.

Aloqa tugunining maxfiylikini - uning ushbu hududda qolishi davomida joylashish o'rnini, tezkor-taktik aloqadorligini dushmandan sir tutishdadir.

Aloqa tizimining dushman tomonidan yolg'on axborot kiritilishiga qarshi turish qobiliyati imitobarqarorlik deyiladi. Imitohimoyaning asosiy ko'rsatkichi sifatida dushman tomondan yolg'on axborotni jo'natish ehtimolligi tushuniladi va u xato (noto'g'ri) axborotni aniqlay olmaslik ehtimolligiga son jihatdan teng.

Aloqa tizimining razvedhimoyalanganligiga quyidagi yo'llar bilan erishiladi:

- boshqarish va aloqaning texnik vositalari ish rejimini o'rnatish va unga qat'iy amal qilish;
- aloqa tashkil etish bo'yicha barcha tadbirlarni dushmandan sir tutish;
- aloqa o'rnatishning ma'qul vosita va usullarini tanlash;
- tezkor, o'ta-tezkor va maxfiylashtiruvchi qurilmalarni qo'llash;
- aloqa tizimini dushmanning texnik razvedkasidan himoyalash bo'yicha tadbirlar rejalashtirish va o'tkazish;
- radioniqoblanish (radiomaskirovka) bo'yicha tashkiliy va texnik tadbirlar o'tkazish;
- qo'shinlarni maxfiy boshqarish (QMB) talablarini bajarish;

- aniqlangan kamchiliklarni darhol yo‘qotish.

5.5. Harbiy aloqa tizimlari tuzilishining tamoyillari

Aloqa tizimi tarkibida quyidagi elementlarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin: aloqa tarmoqlari, kommutatsiya qurilmalari, nazorat va boshqarish vositalari.

Aloqa tarmog‘i - aloqa tugunlari, kommunikatsiya qurilmalari va ularni bog‘lovchi liniyalar yig‘indisidir. Aloqa tarmoqlari ikki xil bo‘ladi: birlamchi (kanal hosil qiluvchi) va ikkilamchi (abonent) aloqa tarmoqlari.

Birlamchi aloqa tarmoqlari aloqa turi bo‘yicha - radio, radioreleyli, troposfera, kosmik va boshqa aloqa tarmog‘i bo‘lishi mumkin.

Ikkilamchi tarmoqlar - birlamchi tarmoqlar asosida quriladi va aloqa ko‘rinishiga qarab telefonli, telegrafli, ma‘lumot uzatish, faksli va boshqa ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Aloqa tizimi tuzilishining tamoyillari deganda uning tuzilishi va ish tartibini belgilovchi qoidalar tushuniladi. Ular jangovar xarakterli vaqtida, qo‘shin o‘quv mashqlari davomida aloqa o‘rnatish tajribasini va boshqaruvning zamonaviy talablarni tahlilini ilmiy umumlashtirish asosida tanlab olingan.

Harbiy aloqa tizimi tuzilishi asosiga ikkita tamoyil qo‘yilgan:

a) BP AT asosida aloqa tarmog‘i tashkil qiluvchi to‘g‘ri chiziqli aloqalar (rahbarlik tamoyili) hamda buysunganlik bo‘yicha to‘g‘ri chiziqli aloqa liniyalari tamoyili. Bu holda aloqa tugunlari faqat boshqarish punktlarida joylashadi. Bu tamoyilning yutuqlari quyidagilardan iborat:

- aloqa tizimi juda qisqa vaqt ichida yoyiladi;
- aloqa tizimlarining yuqori jangovar tayyorgarligi ta‘minlanadi;
- ulanishlar sodda holda tashkil qilinadi;
- yo‘nalishlar bo‘yicha aloqaga javobgarlik aniq belgilanadi;
- aloqa tizimini boshqarish yengillashadi.

Kamchiliklari:

- BP ATda turli aloqa vositalari va ularga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning ko‘p miqdorda to‘planishi;

- dushman o‘t ochishi natijasida ko‘p kanalli tizimlardan foydalanish samaradorligining pasayishi;

- radioelektron vositalar elektromagnit moslashuvining murakkablashuvi;

- aylanib o‘tuvchi yo‘nalishlar hosil qilishining qiyinlashuvi;

- niqoblashning qiyinlashuvi va aloqa tugunlari harkatchanligining pasayishi.

b) aloqani yordamchi aloqa tugunlari orqali tashkil qilish tamoyili yordamchi (tayanch) aloqa tugunlari asosida "to'r" ko'inishdagi aloqa tizimini yaratishni nazarda tutadi. Bu holda boshqarish punktidan chiqqan aloqa to'g'ridan-to'g'ri emas, balki yordamchi aloqa tugunlari (YoAT) orqali ta'minlanadi. Keltirilgan tamoyilning muhim xususiyatlari quyidagilar:

- o'zaro mos boshqaruv bo'g'inlari yordamchi aloqa tugunlarining bir ko'inishdaligi va bu aloqa tugunlari orasida kanallar sonining tengligi;
- kanal va xabarlarni bog'lash (kommutatsiyalash) yo'li bilan tarmoq tuzish va birlashtirilgan kanallarning yo'qligi (birlashtirilgan kanallarning mavjudligi yordamchi aloqa tarmog'ining imkoniyatlarini yo'q qiladi);
- yordamchi aloqa tugunlarida bog'lanish ("privyazka") vositalarining mavjudligi (boshqarish punktlari, qismlar va bo'linmalar bog'lanish vositalarga ega emas va yordamchi tugun bog'lanish vositalaridan foydalanadilar);
- harakatdagi abonentlarning ultra qisqa to'lqin (UQT) diapazonidagi harakatchan (mobil) radiostansiyalar yordamida tarmoqqa kirishi.

Yordamchi AT orqali tashkil qilinuvchi aloqa tarmog'ining yutuqlari quyidagilar:

- ko'p kanallik aloqa liniyalaridan samarali foydalanish;
- aylanib o'tuvchi aloqa kanallari sonining ko'p miqdordaligi;
- yordamchi aloqa tugunlar yordamchi YoATni Qurolli kuchlarning barcha ko'inishlar, qo'shin turlari va maxsus qo'shinlari tomonidan ishlatish imkoniyati;
- boshqarish punktlari va xizmat ko'rsatilayotgan abonentlarning ko'chishida aloqa tarmog'i tuzilishining barqarorligi;
- boshqarish punktlari aloqa tugunlaridagi aloqa vositalari sonini qisqartirish imkoniyati;
- shtatida aloqa kuchlari va vositalari bo'lmagan qism va bo'linmalarni aloqa bilan ta'minlash imkoniyati.

Yordamchi AT orqali tashkil qilinuvchi aloqa tarmog'ining kamchiliklari quyidagilar:

- o'lchamlarning kattaligi va kam harakatchanlik. Bu esa jang va operatsiyalarda aloqa tarmog'i samaradorligini pasaytiradi;
- aloqa tizimini boshqarishning murakkabligi va aloqa uchun javobgarlikning pasayishi;
- razvedka, dala artilleriyasi, havo hujumi mudofaasi (HHM), aviatsiya faoliyatini boshqarish talablarini ta'minlay olmaydigan tezkorlik va ishonchlilikning nisbatan sustligi;
- aloqa tizimini qo'riqlash va mudofaasining murakkabligi;

- aloqa tizimini YoATlar orqali tashkil qilish uchun hududni "mutloq" ("absolyut") egallash lozim.

Hozirgi kunda harbiy aloqa tizimini qurishning yuqorida ko'rib chiqilgan ikkala tamoyilidan ham foydalaniladi.

Asosiy (qo'mondonlik) va YoAT orqali tashkil qilinadigan aloqa tarmoqlari kundalik sharoitda parallel holda yoyilishi mumkin, bunda ularning ko'p kanallik aloqa vositalari bir-biriga mos tushishi lozim. Chegaralangan vaqt sharoitida birinchi galda asosiy (qo'mondonlik) aloqa tizimi yoyiladi.

Aloqa tizimining tuzilishi va faoliyat tartibini belgilovchi asosiy qoidalaridan tashqari, quyidagi tashkiliy tamoyillarga ham amal qilish zarur: barcha qo'shin turlari va xizmatlari uchun aloqa tizimining birligi; turli aloqa vositalarini kompleks qo'llash; boshqarish punktlari aloqa tugunlarining bir-birini almashtira olishi, boshqa aloqa tizimlari bilan qo'shila olish imkoniyati; 1-2 pog'ona (bo'ysunganlik tartibi bo'yicha) yuqori va quyi yo'nalishlarda aloqa o'rnatish.

Aloqa tizimining birligi qo'shinlarni boshqarish bo'yicha talablarni imkoni boricha to'liq bajarish maqsadida aloqa kuchlari va vositalarining yagona rahbarlik ostida to'planishidir.

Aloqa vositalarini kompleks qo'llash shundan iboratki, aloqa tizimini qurishda aloqa yo'nalishlarida imkoniyat va vaziyatga bog'liq holda turli aloqa vositalaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

Boshqarish punkti ATlarining o'zaro almashuvchanlik tamoyili tashkiliy va texnik tomondan ATlaridan biri ishdan chiqqanda aloqa tizimini qayta qurmasdan aloqa o'rnatish imkonini nazarda tutadi.

Bir boshqarish bo'g'ini aloqa tizimining boshqa bo'g'in aloqa tizimlari bilan moslashuvi shundan iboratki, ushbu aloqa tizimi yakkalanmagan va uning elementlari o'zaro hamkorlikda bo'lgan qo'shni qo'shin yuqori yoki quyi bo'g'ini aloqa tizimi tarkibiga kiradi. Shuning uchun ushbu aloqa tizimi tashkiliy va texnik jihatdan boshqa tizimlar bilan moslashadi. Tashkiliy jihatdan tizimlarning moslashuviga turli tizim aloqa tugunlari orasida ulanish liniyalarini qurish bilan, texnik jihatdan esa bir turdagi chetki va kanal hosil qiluvchi apparaturalarni qo'llash bilan erishiladi.

Nazorat savollari

1. Aloqa tizimi nima?
2. Aloqa tugunlari.
3. Aloqa liniyalari.
4. Aloqa qo'shinlari.

5. Aloqa tizimiga qo'yiladigan talablar.
6. Harbiy aloqa tizimlari tuzilishining tamoyillari

6. Boshqarish punktlari aloqa tugunlari

Aloqa tugunlari aloqa tizimining muhim elementlaridandir.

Aloqa tuguni (AT) deb boshqarish punktida axborot almashinish, shuningdek ichki aloqa tashkil qilish uchun yoyilgan aloqa kuch va vositalari hamda avtomatlashtirilgan boshqarish vositalarining tashkiliy-texnik to'plamidan iborat bo'lgan aloqa tizimi elementiga aytiladi.

6.1. Aloqa tugunlari klassifikatsiyasi

Aloqa tugunlarini turli belgilariga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin. 1.2- rasmda aloqa tugunlari jihozlanganligi, harakatchanligi shartlariga ko'ra, aloqa tizimidagi vazifasiga ko'ra, dahldorligiga ko'ra, avtomatlashganligi darajasiga ko'ra ajratilgan.

Jihozlanganlik va harakatchanlik shartlariga ko'ra aloqa tugunlari qo'zg'almas (statsionar) va harakatchan bo'lishi mumkin.

Qo'zg'almas AT oldindan jihozlanadi va quyidagilarni ta'minlash uchun muljallanadi: tinchlik va urush vaqtida qo'shin (shtab)larning doimiy joylashgan hududida ularni boshqarishni ta'minlash uchun; jangovar boshqarmaning signallarini, komandalarini, buyruq va farmoyishlarini uzatish (qabul qilish) uchun, qo'shnlarni turli jangovar tayyorgarlik darajasiga keltirish haqida xabar berish; dushman hujumini qaytarishda qo'shnlarni boshqarish uchun, safarbarlikka rahbarlik qilish uchun.

Ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalanganlik darajasiga qarab AT himoyalangan va himoyalangan bo'ladilar.

Himoyalangan AT fortifikatsiyalangan (kuchaytirilgan) inshootlarda va chuqurlik, yerto'la (shaxta), yer osti ko'rinishdagi pana joylarda jihozlanadi.

Himoyalanganmagan AT yer usti binolari (xonalari)da jihozlanadi. Ular himoyalangan AT bilan ishonchli bog'lanish liniyalariga ega bo'lishlari va barcha aloqalarni himoyalangan ATlarga tezda uzatishni ta'minlashi kerak.

Statsionar ATga garnizon aloqa tugunlari GAT lar misol bo'ladi.

Harakatdagi aloqa tugunlari harakatlanuvchi transport asosida jihozlanib, jangovar harakatlar vaqtida, boshqarish punktlarining ko'chishida va aloqa tizimini yoyishda boshqarishni ta'minlash uchun mo'ljallangan. Tinchlik vaqtida ulardan dala mashg'ulotlari va o'quv mashqlarida aloqani ta'minlash uchun foydalaniladi.

Harakatdagi AT dala, havo, temir yo'l ATlariga bo'linadi.

Dala AT avtomobillar, BTR, avtomobil ulovi (pritsep), konteynerlarda jihozlanadi va dala boshqarish punktlarida aloqa tashkil qilish uchun xizmat qiladi.

Bortlardagi AT samolyot va vertolyotlarda jihozlanadi va qo'shinlarni boshqarish barqarorligini kuchaytirish hamda uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ular jangovar navbatchilikni yerda yoki havoda o'tashlari mumkin.

Havodan boshqarish punkti (HBP)dan chiqqan aloqaning uzluksizligi va barqarorligi havo (samolyot, vertolyot) va yer usti bog'lanish punkti (shlyuz) lari orqali amalga oshiriladi.

Temir yo'l aloqa tuguni (TyAT) vagonlarda jihozlanadi va boshqarishning oliy bo'g'inlarida yordamchi yoki zaxiradagi AT sifatida foydalaniladi.

Kurolli kuchlar boshqaruv bo'g'inlariga dahldorligiga ko'ra ATlari QK Bosh shtabi BSh aloqa tuguniga (QK BSh AT), harbiy okrug shtablari AT, havo hujumi mudofaasi (PVO) va harbiy havo kuchlari (VVS) qo'shinlari aloqa tugunlari, brigada va batalon shtablari ATlariga bo'linadi.

Boshqarish aloqa tizimidagi vazifasiga ko'ra ATlari boshqarish punkti BP AT, tayanch tarmoqlar AT (tayanch va yordamchi ATlari) va maxsus aloqa tugunlariga bo'linadi.

BP AT aloqa tizimi va boshqaruv organi (shtab) elementi bo'lib, qo'shinlarni boshqarish jarayonida barcha turdagi axborotlar bilan almashinish hamda mulokat olib borish uchun xizmat qiladi.

Tayanch aloqa tugunlari TAT o'qlar, rokadalar kesishuvida tayanch aloqa tarmog'i TATm tashkil qilinganda yoyiladi va harbiy okruglar, tezkor qo'mondonliklar (TQ), birlashma (qism)lar boshqaruv punktlarini bog'lash, hamkorlikda bo'lgan tuzilmalar bilan aloqa kanallarini tuzish, shuningdek aloqa tizimining ishonchliligini va yashovchanligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Yordamchi AT aloqa tizimining yashovchanligini, moslashuvchanligini oshirish uchun, ko'p kanalli aloqa vositalaridan samarali foydalanish maqsadida yoyiladi.

Boshqarish punktlariga aloqadorligiga ko'ra ATlari birlashgan qo'mondonlik punktlari BQP AT, zaxiradagi qo'mondonlik punktlari ZQP AT, ilg'or qo'mondonlik punktlari IQP AT, havodan boshqarish punktlari HBP AT, temir yo'l boshqarish punktlari TyBP AT, yordamchi boshqarish punktlari YoBP ATlariga bo'linadi.

Maxsus ATlariga aloqa xavfsizligini nazorat qilish tugunlari AHNQT (UKBS) va feld'eger-pochta aloqasi tugunlari FP AT (UFPS) kiradi. AHNQTlar aloqa xavfsizligi talablarining buzilishini o'z vaqtida aniqlash va oldini olish uchun xizmat qiladi.

FP AT jangovar, maxfiy va xizmat hujjatlarini, barcha turdagi pochta jo'natmalarini, bosma nashriyotlarni qayta ishlash va qo'shinlarga yetkazishni ta'minlaydi.

QP va ZQP aloqa tugunlari doimo ishchi xolatda bo'ladilar. IQP, HBP, TyBP aloqa tugunlari zaruratga va vaziyatga qarab yoyiladi va o'z vazifasini bajaradi.

Bo'ysunganlik darajasiga ko'ra AT katta (yuqori), bo'ysunuvchi va o'zaro hamkorlikdagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

ATning bo'ysunganligi Qurolli kuchlar bo'g'inlari bilan, boshqarish punktining bo'ysunganligi bilan, aloqa tizimidagi vazifasi bilan belgilanadi.

Qurolli kuchlar BSh AT - Qurolli kuchlarning barcha ATlari uchun, harbiy okruglar aloqa tugunlari - okrug barcha ATlari uchun, birlashma boshqarish punkti aloqa tugunlari - ushbu birlashmaning barcha ATlari uchun, HHMQ va HHK (PVO va VVS) qo'shinlari ATlari - o'z qo'shinlarining barcha ATlari uchun katta (yuqori) aloqa tugunlari hisoblanadi.

Boshqaruvning bir bo'g'inidagi qo'mondonlik punkti ATlari boshqa boshqaruv punktlari ATlariga nisbatan katta (yuqori) hisoblanadi.

Boshqaruv zaxiradagi qo'mondonlik punktiga (ZQP)ga berilganda uning AT ushbu aloqa tizimida katta (yuqori) bo'lib qoladi. Bitta aloqa tizimida barcha boshqarish punktlari ATlari TAT va YoATlarga nisbatan katta (yuqori) hisoblanadi.

Qurolli kuchlar ko'rinishlari, ularning qo'shilma (qism) ATlari orasida aloqa o'rnatilganda, bunday ATlar o'zaro hamkorlikdagi ATlari deb hisoblanadi. Bu holda boshqaruvning yuqori bo'g'iniga tegishli bo'lgan AT katta (yuqori) hisoblanadi.

Bir xil bo'g'inidagi ATlari o'zaro hamkorlikda bo'lganda katta (yuqori) ATni o'zaro hamkorlikni tashkil qiluvchi shtab belgilaydi.

Mudofaa vazirligi ATning boshqa tarmoq ATlari bilan o'zaro hamkorligi kelishilgan me'yoriy hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

Katta (yuqori) aloqa tuguni zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

- kanal tuzishda, aloqa o'rnatishda va axborot o'tishini ta'minlashda ATlar ishini koordinatsiyalash (umumlashtirish);
- uzilgan aloqani tiklashda ATlarga yordam ko'rsatish;
- aloqa kanal (liniya)laridagi o'lchov ishlariga rahbarlik qilish;
- AT orqali signallar, kanallar, muhim buyruqlar, farmoyishlar, hisobotlar o'tish muddati bajarilishini nazorat qilish;
- aloqa xavfsizligi buzilishining oldini olish bo'iicha tezkor choralarni ko'rish.

Katta (yuqori) ATning talablari quyi AT uchun majburiydir.

Qo'zg'almas va harakatdagi boshqarish punkti ATlari, tayanch AT, yordamchi AT, garnizon AT tugun ko'shilmalari (qismlari, bo'linmalari) tomonidan yoyiladi va xizmat ko'rsatiladi, dala tayanch aloqa tizimi DT ATm (POSS)ning tayanch va yordamchi ATlar chiziqli aloqa tizimlari kuchlari bilan yoyadi va xizmat ko'rsatiladi.

Boshqarish punkti ATning dala tayanch aloqa tizimi DT ATga bog'lanish liniyalarini tugun bo'linmalari yoyadi va xizmat ko'rsatadi.

Yordamchi boshqarish punkti YoBP AT yakka tartibda yoki uzoq yo'nalishlarda harakat qilayotgan qo'shin guruhlarini boshqarishni ta'minlashga xizmat qiladi.

6.2. Boshqarish punktlari aloqa tugunlariga qo'yiladigan vazifalar

Boshqarish punktlari aloqa tugunlari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- belgilangan nazorat muddatlarida axborot almashinuvini ta'minlash;
- normativlar asosida o'rnatilgan aloqalar sonini sifatli ta'minlash;
- axborotni avtomatik maxfiylashtirish;
- boshqarish punktida ichki aloqani ta'minlash;
- aloqa kanallari tranzitini (moslashuvini) ta'minlash;
- chastota-dispatcherlik (ionosfera-to'lqin) xizmatini va yagona vaqt xizmatini ta'minlash.

Tayanch aloqa tugunlari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

- aloqa kanallarini tashkil qilish, sozlash, o'lchash, kommutatsiyalash va boshqarish punkti AT hamda yordamchi AT ga topshirish;
- kanallar manyovrini amalga oshirish, aylanma va tranzit aloqa kanallarini tuzish; turli aloqa vositalari hosil qilgan kanallarni moslashtirish;
- BP orasidagi radioaloqa yomonlashganda radioeshittirishlarni retranslyatsiya qilish;
- harakatda bo'lgan komanda va shtablar bilan aloqa o'rnatish;
- birlashtirilgan uchastkalarda aloqa liniyalariga ishchi xizmat ko'rsatishga rahbarlik qilish.

6.3. Aloqa tugunlariga qo'yiladigan talablar

Boshqarish punktlarining aloqa tugunlari BP ATga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat.

- harakat vaqtidagi ishonchli aloqa - radiostansiyalarni boshqarish-shtab mashinalariga (BShMga) jonlashtirish; yuqori samarali antennalardan foydalanish; yuqori quvvatli radiostansiyalarni qo'llash; telefon rejimida eshitishdan telegraf rejimiga o'tish, qayta kabulni tashkil etish. BShMdagi quvvatli radiostansiyalar

yordamida masofadan boshqarishni ta'minlash, marsh kolonnalarida aloqa vositalarining elektromagnit moslashuvini hisobga olgan holda joylashtirish, radio, radioreleyli va boshqa ko'chuvchi aloqa vositalaridan aralash holda foydalanish bilan erishiladi;

- harakatchanlik - qisqa vaqt ichida aloqani yig'ishtirish, joylashtirish va o'rnatish - quyidagicha erishiladi: yig'ishtirish, ko'chirish va qayta joylashtirishni to'g'ri tashkil qilish; joyni rekognosirovka qilish, kolonnalarni tuzishning va ATni joylashtirining namunaviy chizmalarini (chizma-buyruq) ishlab chiqish, AT elementlarini joylashtirish buyruqlarini tayyorlash; ulash liniyalarini o'tkazish; AT elementlarini, QShM, apparatxona va stansiyalarni rejali joylashtirish, shaxsiy tarkibning yuqori taktik-maxsus tayyorgarligi, AT elementlari, apparatxonalar, stansiyalarni boshqarishni aniq tashkil etish;

- AT ning yuqori o'tuvchanligi - radiostansiya, apparatxonalarni o'tish darajasi yuqori bo'lgan avtomobil, BTR va boshqa harakat vositalariga joylashtirish bilan erishiladi;

- AT-yashovchanligi - qirg'in vositalari qo'llanilganda ham o'zining ish faoliyatini saqlab qolish qobiliyati - aloqa vositalarini zirhli mashinalarda, himoya qilish xususiyatiga ega pana joylarda saqlash, alohida (avtonom) ishlash imkonini yaratish, AT asosiy vositalarining bir-birining o'rnini bosa olishi, aloqa kuchlari va vositalari zaxirasi, AT elementlarini joy-joyiga qo'yish bilan amalga oshiriladi;

- aloqa vositalaridan foydalanishning qulayligi aloqa yo'nalishlarida turli vositalardan foydalanish, aralash kanallarni tuzish, AT elementlarining yaqindan o'zaro ta'siri orqali erishiladi;

- aloqa tugunini tashkil qilish va undan foydalanishning oddiyliги - kanallarni kommutatsiya qilishning oraliq punktlarini kamaytirish; QShMda ofitserlarning ish joyi va aloqa vosita o'rnini moslashtirish, ma'lum kabellarni qo'llash, aloqa liniyalari va kanallarini vaqtinchalik ulanishning qulayligi va oddiyliги bilan erishiladi;

- aloqaning yopiqligini ta'minlash - radiovositalarning ishini maxfiylashtirigan avtomatik aloqa (MAA) ya'ni aloqaning maxfiylashtirilgan stansiyalarini qo'llash bilan, radiovositalar ishida tartib va rejimlarni saqlash bilan, aloqa apparaturasini ishlatganda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish bilan, olib borilayotgan muloqatni nazorat qilish bilan, hujjatlarni aniq manzilga yuborish bilan, shaxsiy tarkibning yuqori sergakligi bilan erishiladi;

- ATni niqoblash (maskirovka) xususiyatidan oqilona foydalanish; muhandislik vositalaridan foydalanish; radiovositalar ishida fosh qiluvchi xususiyatlarni yo'q qilish, simli aloqa liniyalarini va ko'nish maydonchalarini maskirovka qilish bilan amalga oshiriladi.

- ta'sir ko'rsatuvchi shovqinlarni susaytirish - QShM, stansiya, apparatxonalarni biron joyda yoki kolonnalarda joylashtirishda elektromagnit moslashuvchanlikni hisobga olish, kiska to'liqinli uzatkichlarni boshqarish punktidan olisroq masofaga, kolonnada esa alohida guruh bilan, eng kichik quvvatlarda ishlash, yo'naltirilgan antennalardan foydalanish bilai erishiladi.

6.4. Aloqa tugunlarining tashkiliy-texnik tuzilishi

Aloqa tugunining tarkibi, jihozlari va tuzilishi quyidagilar bilan aniqlanadi: Boshqarish punktini (BP) joylashtirish, uning jihozi, jangovar ishi va qo'llanishi bilan; aloqa tashkil qilish tamoyillari va ATga qo'yiladigan talablar bilan, tugun qo'shilmalari (qismlari)da aloqa vositalarining mavjudligi va ularning imkoniyati bilan. ATda ko'p mikdorda kanal hosil qiluvchi vositalar, maxsus, chetki (okonechnaya) va kommutatsiya apparatlari, masofadan boshqarish va avtomatlash vositalari jamlangan bo'lib, ular qo'shirlarni boshqarish jarayonida axborotning barcha turlari bilan almashish va muloqat olib borishni ta'minlash maqsadida tashkiliy jihatdan birlashgan, aloqa turlari, axborot uzatish usullari, elektr tasniflari bo'yicha texnik bog'langan va moslashtirilgan bo'lib, alohida elementlar (markazlar, stansiyalar, guruhlar) ko'rinishida bo'ladi.

Aloqa va avtomatlash vositalarining alohida elementlarga tashkiliy-texnik birlashishi asosida turli tamoyillar yotish mumkin. Hozirgi kunda ikkita tamoyil ma'lum:

- vazifasiga ko'ra aloqa va avtomatlash vositalarini alohida elementlarga birlashtirish (aloqa ko'rinishlari va turlari bo'yicha);
- axborotlash yo'nalishlarida tezkor-taktik vazifalariga ko'ra yoki shtab boshqaruvi (bo'limi)ga tegishliligiga ko'ra aloqa va avtomatlash vositalarini alohida elementlarga birlashtirish tamoyili.

AT birinchi tamoyil bo'yicha tashkil qilinganda aloqa va avtomatlash vositalari aloqaning ko'rinishlari va turlari bo'yicha alohida elementlarga bo'linib, ular aloqaning ma'lum ko'rinishida xabarlarini uzatish (qabul qilish)ni yoki aloqaning turli vositalaridan kanal hosil qilishni ta'minlaydi. Bu holda AT elementlari bir turdagi amallarni bajaradi, ularning tarkibidagi aloqa vositalari esa axborot uzatish usullari bilan o'zaro bog'langan va elektr tasniflari bo'yicha moslashtirilgan; jangovar qo'llash va xizmat ko'rsatishning bir xil xususiyatlariga ega; AT har bir elementining vazifasi aniq belgilangan va aloqa markazlarida qurilmalardan markazlashgai holda foydalanish ta'minlanadi; aloqa va avtomatlash vositalarini kompleks ishlatish bo'yicha masalalar oson yechiladi, AT tizimida ko'p kanallik aloqa vositalaridan bir turdosh qurilmalarga ega bo'lgan maxsus (katta yuk ko'tarish va yuqori o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan transportga o'rnatilgan) apparatxonalardan foydalanish asosida maxsus apparatxonalar sonini

kamaytirishga sharoit yaratiladi; chastota-dispetcherlik xizmatini tashkil qilish AT faoliyatining xavfsizligini ta'minlash hamda tugun aloqa qismlari uchun mutaxassislar tayyorlash masalalari yengillashadi.

Biroq ATning bunday tashkil qilinishida ularning tuzilishi murakkablashadi, boshqarish punktining tez-tez ko'chishida aloqa o'rnatish vaqti ko'payadi; AT ni kabellash murakkablashadi, axborotlash yo'nalishlarida aloqa o'rnatishga AT mansabdor shaxslarining javobgarliklari pasayadi.

ATni ikkinchi tamoyil bo'yicha tashkil qilishda aloqa va avtomatlash vositalari yoki axborotlash yo'nalishlari, yoki shtab boshqaruvi (bo'limi)ga tegishlilik bo'yicha alohida elementlarga birlashadi. Bu holda ushbu elementlarning bir xil tuzilishi va kabellanishi sababli AT tuzilishi soddalashadi; mansabdor shaxslarning aloqa tashkil qilishga bo'lgan javobgarligi oshadi: ATning taqsimotli joylashish masalasi oson yechiladi; AT apparatxonalarida aloqa va avtomatlash vositalarini kompleks ishlatish uchun sharoit yaratiladi.

6.5. Aloqa tuguni elementlari

Aloqa tugunlari o'zlarining birlashtirilganligi, vazifasi va jangovar holat shartlariga bog'lik, holda o'ziga turli elementlarni kiritishi mumkin. Harbiy okrug (HO) aloqa tuguni elementlariga quyidagilar kiradi:

- AT boshqarish punkti AT BP;
- signallarni uzatish (qabul qilish) apparatxonasi SUA;
- telegraf axborot o'tishini nazorat qilish punkti TAO'NQP;
- telefon markazn TFM (TFS);
- MAA (ZAS) - markazi (aloqani maxfiylashtirish qurilmasi markazi);
- qo'shinlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi markazi QABTM (ASUV-markazi);
- radiobyuro RB;
- qabul qiluvchi radiomarkaz QCRM (PRS);
- uzatuvchi radiomarkaz URM (PRDS);
- kanallar va xabarlarni kommutatsiyalash markazi KKM va XKM;
- kanallar hosil qilish markazi (stansiyasi) KXQM (KHQS);
- radioreleyli stansiyalar guruhi RRSB;
- troposfera stansiyalari guruhi TRSB;
- kosmik aloqa stansiyalari guruhi KASB;
- aloqa tuguni krossi ATK;
- ekspeditsiya - korrespondentsiya (xatlar)ni yig'ish, ko'rib chiqish va yetkazish punkti;
- elektr ta'minlash markazi (stansiyasi) ETM (ETS);
- aloqa vositalari bilan birgalikdagi BShM;
- reglament-texnik guruhi RTB;

- feld'eger-pochta aloqasi stansiyasi FPAS.

AT da boshqa element turlari ham bo'lishi mumkin. Boshqarish bo'g'ini vazifasi, aloqa kuchlari va vositalariga bog'liq holda AT tarkibiga sanab o'tilgan elementlarning hammasi kirishi shart emas, vositalarning bir qismi ATning kompleks elementiga birlashadi.

AT elementlari tarkibiga (ba'zi hollarda AT tarkibiga) jangovar postlar kiradi.

Jangovar post (JP) - aloqa qurilmalari bilan jihozlangan xona (joy) bo'lib, u yerda navbatchi smena tarkibi aloqa va axborot o'tishini ta'minlash bo'yicha vazifalarni bajaradi. Bu shaxslar ushbu jangovar post navbatchi hisobning nomeri JGT NHN hisoblanadi.

Brigada boshqarish punkti aloqa tuguni tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin: aloqa va boshqarishni avtomatlashtirish vositalari joylashgan qo'mondonlik-shtab mashinalari; telefon stansiyasi; telegraf stansiyasi; o'rtacha quvvatli radiostansiyalar guruhi (alohida radiostansiyalar); kanal hosil qilish guruhi (radioreleyli, troposfera stansiyalari, zichlashtirish, maxfiylashtirish apparatxonalari); kosmik aloqa stansiyasi; feld'eger-pochta aloqasi stansiyasi (almashtirish punkti); reglament-texnik guruhi.

Aloqa va avtomatlash vositalari joylashgan qo'mondonlik-shtab mashinalari komandirlari (boshqaruv ofitserlari)ning tinch turgan yoki harakat vaqtida asosiy ish joyi hisoblanadi. Qo'mondonlik-shtab mashinalarining aloqa vositalari boshqarish punkti mansabdor shaxslarining ishchi joylaridan turib, bevosita yoki aloqa tuguni elementlari orqali aloqani ta'minlashga mo'ljallangan.

Telefon stansiyasi turli vositalar tashkil qilgan kanallar, shuningdek boshqarish punktidagi ichki aloqa kanallari orqali berk va ochiq telefon aloqasini ta'minlashga mo'ljallangan.

Telegraf stansiyasi boshqarish punktida turli aloqa vositalari tashkil qilgan kanallar, shuningdek abonent telegraf aloqasi kanallari orqali harf bosuvchi telegraf berk aloqani ta'minlash uchun xizmat qiladi.

O'rtacha quvvatdagi radiostansiyalar guruhi (alohida radiostansiya) yuqori turuvchi shtab, bo'ysunuvchi va o'zaro hamkorlikda bo'lgan (qo'shni) qism va qo'shilmalarning boshqarish punktlari bilan chiziqli aloqani ta'minlashga mo'ljallangan.

Kanal hosil qilish guruhi yuqori turuvchi shtabning tayanch aloqa tugunidan keluvchi bog'lanish liniyalari orqali aloqa kanallarini qabul qilish va yuqori shtab, bo'ysunuvchi qism hamda qo'shilmaning boshqarish punktlari orasida aloqa kanallarini hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Kosmik aloqa stansiyasi aloqa yo‘ldoshlari retranslyatorlari orqali yuqori shtab boshqarish punkti bilan chiziqli to‘g‘ri aloqani ta‘minlaydi.

Qo‘shinlarni avtomatik boshqarish guruhi qo‘shinlarni boshqarish bo‘yicha axborot-hisob masalalarini yechish maqsadida ishlatiladi.

Aloqa tuguni ekspeditsiyasi chiquvchi kodogramma, telegramma (radiogramma)larni qabul qilish, hisobga olish va apparatxonalarga yetkazishga, kiruvchi kodogramma, telegramma (radiogramma)larni qabul qilish, hisobga olish va boshqarish punktidagi manzillarga yetkazishga mo‘ljallangan.

Aloqa tugunining elektr ta‘minot stansiyasi telefon, telegraf stansiyalarini, zichlashtirish, maxfiylashtirish apparatxonalarini, ayrim hollarda esa radioreleyli stansiyalarini ham elektr energiya bilan ta‘minlaydi.

Feld‘eger-pochta aloqasi stansiyasi (almashinish punkti) shtab va shaxsiy tarkib nomiga kelayotgan va ulardan chiqayotgan barcha turdagi maxfiylashgan pochta jo‘natmalarini qabul qilish, qayta ishlash va yetkazishga mo‘ljallangan. U o‘z tarkibiga fel’d‘eger-alloqa bo‘limi, pochta aloqasi, ekspeditsiya qilish hamda aloqa vertolyotlari uchun qo‘nish maydonchasini oladi.

Reglament-texnik guruhi bo‘linmalariga aloqa vositalari va transport bazasini ta‘mirlashda, reglament ishlarini bajarishda, ekipajlarga kanal va aloqa liniyalari parametrlarini o‘lchashda yordam ko‘rsatadi. Reglament-texnik guruhi aloqa qismi va bo‘linmalari muhandis-texnik tarkibi hamda harbiy ustaxonalar mutaxassisleri tarkibi hisobidan tuziladi.

6.6. Aloqa tugunlarini yoyish, joylashtirish va ko‘chirish

Aloqa tugunini yoyish - qo‘shinlarni boshqarish jarayonida ATni safar holatidan axborotning barcha turlari bilan almashinishga, hamda berilgan yo‘nalishlarda muloqat olib borishga tayyor turish holatiga o‘tkazishdir.

Bo‘linmalarni ko‘chirishda, yoyishda, axborotning barcha turlari o‘tishini ta‘minlashda, yig‘ishda boshqarish apparatxonalarida joylashgan aloqa tuguni boshqarish punktidagi mansabdor shaxslar tomonidan boshqaruv amalga oshiriladi.

AT elementlari boshqarish punktlari AT elementlariga tegishli biron apparatxonalarda jihozlanadi.

ATni yoyish quyidagi ishlarning bajarilishini nazarda tutadi;

- joyni rekognosirovka qilish, marshni amalga oshirish;
- element (guruh, apparatxona, stansiya) boshliqariga yoyish bo‘yicha vazifa qo‘yish (aniqlash).
- apparatxona (stansiya)larni joylashtirish;
- yerga ulanishni ta‘minlash, avtonom manbalardan qurilmalarga elektr ta‘minotini yetkazish, qurilmani ishga tayyorlash va “o‘z-o‘ziga” tekshirish;
- antenna-machta qurilmalarini va uzoqlashtirilgan radioelektron

vositalarini masofadan boshqarish liniyalarini yoyish;

- markazlashgan elektr ta'minotining asosiy va zaxira manbalariga elektr liniyalarini yotqizish;

- element va apparatxonalar orasida ulanish liniyalarini yotqizish va sinash;

- abonent liniyalarini yotqizish, abonent apparatxonalarini o'rnatish va ularning ishini tekshirish;

- element va apparatxonalar orasida ulanish liniyalari bo'ylab xizmat aloqasini o'rnatish;

- to'g'ri chiziqli aloqa liniyalarida kanallarni hosil qilish, DT ATdan kanal hosil qilish, ularni sozlash va apparatxonalarga uzatish;

- rejalashtirilgan aloqalarni o'rnatish.

Boshqarish punkti (BP)ning yangi joylashish rayonida ATni yoyishda avval rekognosirovka qilinadi, ya'ni jangovar boshqaruv markazi (JBM), qo'shin va xizmat turlari BP ning joylashish xududi, ATni yoyish rayoni, uzatish radiomarkazi va radioreleyli va troposfera stansiyalari guruhlarini joylashadigan rayonlar, kelish yo'llari va qaytish marshrutlari; boshqarish punktini qo'riqlash va mudofaasi tartibi, hamda ATning mudofaa sektori aniqlanadi.

AT rekognosirovka guruhi tomonidan quyidagilar belgilanadi: har bir element va apparatxonalarning joylashish chegaralari, kirish-ulash kabellari, elektr ta'minlash kabellari va abonent liniyalarini o'tkazish trassalari; shaxsiy tarkib va zaxiraning dam olshi joylari.

Aloqa tugunini boshqarish maqsadida boshqaruv tizimi tashkil qilinib, u o'z tarkibiga

- boshqaruv organlarini;

- boshqarish punktini;

- element va guruhlarini boshqarish punktlari;

- xizmat aloqasi tarmog'i va avtomatlash vositalarini oladi.

Aloqa tugunini boshqarish organi tarkibiga aloqa tuguni boshlig'i ATB va aloqa tuguni bo'yicha navbatchi ATN, elementni boshqarish organiga esa AT elementi boshlig'i va navbatchi kiradi.

AT va uning elementlarini, apparatxona (stansiya)lar guruhini yoyish bo'yicha boshqarishni shtatdagi mansabdor shaxslar, ya'ni aynan AT boshlig'i va AT elementi boshliqlari amalga oshiradi. Ularga quyidagi vazifalar yuklanadi:

- AT va boshqarish punkti elementlarini o'rnatish joyini aniqlash;

- qo'l ostidagilarga o'rnatish bo'yicha vazifa qo'yish;

- AT elementlari (stansiya, apparatxonalar)ni joylashtirish, yoyish (yig'ishtirish) va ko'chirishga rahbarlik qilish;

- ulash, abonent, elektr ta'minot liniyalarini o'tkazish;

- navbatchi smena tarkibi tomonidan amalga oshiriladigan quyidagi ishlar:

ulovchi va abonent liniyalarini sinash, xizmat aloqasini o'rnatish, apparaturani "o'z-o'ziga" tekshirish, kanallarni sozlash va topshirish, rejaddgi aloqalarni o'rnatish ishlariga rahbarlik qilish;

- ATni dushmaning texnik razvedka va radioelektron halaqit (REH) vositalaridan himoyalash bo'yicha tadbirlarni tashkil qilish va amalga oshirish; aloqa o'rnatish vazifalardan ozod bo'lgan shaxsiy tarkib kichi bilan jangovar, texnik va xo'jalik ta'minoti bo'yicha turli tadbirlarni tashkil qilish.

Rejalashtirilgan aloqa o'rnatishning boshqaruvi shtatdagi mansabdor shaxslar tomonidan shaxsan va aloqa tuguni (AT elementi) navbatchisi orqali amalga oshiriladi. Bunda AT (AT elementi) navbatchisiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- aloqa o'rnatish bo'yicha vazifani aniqlash va jangovar navbatchilikni qabul qilish;

- xizmat aloqasini o'rnatish va navbatchilikni qabul qilganlik to'g'risida komanda bo'yicha bildirish (doklad) qilish;

- jangovar postlarning navbatchi raschotlari bajaradigan ulash liniyalarini sinash, ularni kanallarga taqsimlash ishlarini boshqarish;

- aloqaga kirish bo'yicha farmoyishlar berish, kanallarni sozlash va chetki qurilmalarga uzatish;

- aloqa o'rnatishda ishtirok etayotgan jangovar postlar (guruxlar, elementlar) orasidagi faolyatini koordinatsiyalash;

- o'rnatilayotgan aloqani o'z vaqtida bo'lishini va sifatini nazorat qilish;

- bajarilgan ishlarni, ularni hal qilishga to'sqinlik qilgan sabablarni va ko'rilgan choralarni tezkor-texnik hujjatlarda o'z vaqtida aks ettirish;

- aloqa xavfsizligiga bo'lgan talabalarning bajarilishini qat'iy nazorat qilish.

Aloqa tugunini boshqarishni ta'minlash maqsadida AT boshlig'ining radiotarmog'i, baland ovozli xizmat va telefon tarmog'idan foydalaniladi. Radiotarmoq orqali boshqarish marsh vaqtida, AT ni yoyishning boshlang'ich bosqichida va uni yig'ishtirishda amalga oshiriladi.

Radiotarmoq tarkibiga AT boshlig'i radiostansiyasi, AT elementlari va alohida joylashgan aloqa vositalari guruhi boshliqlarining radiostansiyalari kiradi.

Saylanma chaquruv qurilmalaridan foydalanilganda radiotarmoq tarkibiga aloqa tuguni apparatxonalari va stansiyalarining radiostansiyalari kiritilishi mumkin.

BP ATdan chiqqan xizmat aloqasi quyidagilar bilan o'rnatiladi va ta'minlanadi:

- BP tezkor navbatchisi bilan - ovoz bilan qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan baland ovozli aloqa;

- aloqani boshqarish punkti bilan – baland ovozli va telefon aloqa;
- aloqa qismi BP bilan – baland ovozli va (yoki) telefon aloqa;
- o‘zaro hamkorlikdagi (qo‘shni) aloqa tugunlari boshqarish punktlari bilan – ochiq va berk telefon aloqa;
- AT elementlari boshqarish punktlari bilan baland ovozli aloqa.

Elementlarni boshqarish punktidan chiqqan xizmat aloqasi quyidagilar bilan o‘rnatiladi va ta‘minlanadi:

- AT BP bilan – baland tovushli aloqa;
- aloqa tuguni elementi tarkibiga kiruvchi apparatxonalar, stansiyalar (jangovar postlar) bilan – baland ovozli aloqa.
- apparatxonalar, stansiyalar (jangovar postlar)dan chiqqan telefon xizmat aloqasi hamkorlikda bo‘lgan (qo‘shni) elementlar bilan quyidagicha tashkil qilinadi va taqsimlanadi:
 - element boshqarish punktlari bilan – baland tovushli aloqa;
 - aloqa tuguni o‘zaro hamkorlikda bo‘lgan apparatxonalar bilan – telefon aloqasi.

Xizmat aloqasi tashkil qilinganda ketma-ketlik bo‘yicha aloqa o‘rnatish imkoniyati hal qilinishi kerak.

Aloqa tugunini yoyish va aloqa o‘rnatishning borishini nazorat qilishni boshqaruv organlari AT apparatxonalar (stansiyalar)dagi elementlar orqali, shuningdek qo‘l ostidagilarning hisoboti va aloqa liniyalari, kanallari, apparaturalari holatini avtomatlashgan nazorat tizimi ma‘lumotlari asosida amalga oshiradilar. Nazorat natijalari avtomatik qayd qilish qurilmalari bilan qayd qilinadi va tezkor texnik hujjatlarda rasmiylashtiriladi.

Aloqa tugunining yashovchanligini va ishonchliligini ta‘minlashda ularni joylashtirish katta ahamiyatga ega.

QShM komandirlarning asosiy ish joyi va AT elementi hisoblanadi, shuning uchun AT elementlarini joylashtirish, kolonnalarini tuzish, qo‘riqlash va mudofaa butun boshqarish punkti uchun amalga oshiriladi.

AT elementlari shunday joylashtiriladiki, bunda quyidagilar bajarilishi lozim:

- AT elementlarini va AT ning o‘zini tez yoyish;
- aloqani o‘z vaqtida o‘rnatish;
- aloqadan foydalanishdagi qulaylik;
- elektromagnit moslashuv shartlarining bajarilishi;
- axborot o‘tish tezligi;

- joy xususiyatlaridan foydalanish;
- tez evakuatsiya (ko‘chirish) imkoniyati.

Telefon markazi (stansiyasi) TFM (TFS), telegraf markazi (stansiyasi) TGM (TGS) va ekspeditsiyani QShM guruhi va o‘rtacha quvvatli radiostansiyalar guruhi oralig‘iga, imkon darajada QShMga yaqinroq joylashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar boshqarish punktida shtab mashinalari yoyilsa yoki blindajlarda komandirlar uchun ishchi o‘rinlar tashkil qilinsa ular TFM (TFS) va TGM (TGS) bilan QShM orasida, QShM dan bir necha o‘n metr uzoqlikda joylashtiriladi.

Ekspeditsiya TGM (TGS) yaqinida joylashadi.

O‘rta quvvatdagi radiostansiyalar guruhi QShM dan yetarlicha uzoq masofada, TFM (TFS) va TGM (TGS) lardan keyin joylashtiriladi. Bunda aloqa liniyalari uzunligi qisqaradi.

Radioreleyli stansiyalarni (RRS) ulash liniyalarini qisqartirish maqsadida TGM (TGS) va TFM (TFS)ga imkon darajada yaqinroq joylashtiriladi.

RRSlarga asosiy halaqit beruvchi manba – o‘rta quvvatli radiostansiyalar hisoblanadi, shuning uchun RRS va uning muxbirlari orasiga har qanday radiostansiyalarni joylashtirishdan saqlanish kerak.

Feld’ger-pochta aloqasi (FPA) stansiyasi (almashinuv punkti) quyidagicha joylashtiriladi: ekspeditsiya boshqarish punkti BPda, mashinalar turar joyi – yaxshi niqoblasa (maskirovka) bo‘ladigan va qulay kirish yo‘llariga ega bo‘lgan joyda.

Qo‘nish maydonchasi BPdan bir necha kilometr uzoqlikda quriladi. Maydoncha bilan BP orasida simli yoki UQT (ultra qisqa to‘lqin) aloqa o‘rnatiladi.

BP va AT elementlarini boshqarish punkti kolonnasini tashkil qiluvchi mashinalar guruhi ko‘rinishida joylashtiriladi (1-guruh – QShM, 2-guruh – 8-bo‘linma, maxfiy qism; 3-guruh – TFS va TGS, ekspeditsiya va RRS, 4-guruh – o‘rta quvvatli radiostansiyalar, 5-guruh – shtab avtobuslari va hakazo.)

Boshqarish punkti kolonnalarini guruhlar bo‘yicha tuzish hamda guruhda har bir mashinaning o‘rnini belgilash BP va aloqa tugunini tez yoyishga, kolonnani bo‘lishga, belgilangan joylarga yo‘naltirishga imkon beradi. Yig‘ishda mashinalar guruhi osonlik bilan kolonna qismini tashkil qiladi. Mashina elementlari va guruhlarini AT elementlari boshliqlari va guruhi kattalari boshqaradi.

Qo‘mondonlik punkti (QP) ni yangi xududga ko‘chirishga tayyorgarlik ko‘rilayotganda shtablar tomonidan rekognossirovka guruhi yuborilishi mumkin (shtab ofitserlari, muhandislik, kimyo qo‘shinlari, komendant xizmat bo‘linmalari

tarkibiga aloqa ofitser rahbarligidagi aloqa kuch va vositalari guruhi ham kiritiladi). Rekognosirovka guruhi rahbarida QP bilan bog'lanish uchun radiostansiya bo'lishi kerak.

Aloqa tugunini tez yig'ish uchun quyidagi tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi:

- aloqa kabel liniyalari mahkamlangan joyda bo'shatiladi;
- zaxira antennalar yig'iladi;
- liniyalarni yig'ish uchun g'altak (baraban)lar va stanoklar tayyorlanadi;
- ikkinchi darajali ichki aloqa liniyalari yoyiladi;
- radiostansiyalar va QShM haraktida aloqa o'rnatishga tayyorlanadi;
- UQT-stansiyalar navbatchi-qabul rejimiga o'tkaziladi.

Komandir, shtab boshlig'i, qo'shin va xizmat turlari boshliqlari, shtab ofitserlari yig'ishdan avval QShMda ishlashga o'tadilar. Boshqarish punkti AT ni yig'ish tartibi oldindan aniqlanadi va shaxsiy tarkibga yetkaziladi. Yoyish bo'yicha ishlar AT boshlig'i buyrug'i bilan boshlanadi. Mashinalarning kolonnalarga chiqishiga qo'mondonlik qilish radiotarmoq orqali, ovoz bilan, signal vositalari yordamida va xabarchilar orqali amalga oshiriladi.

Harakat vaqtida barcha radiovositalar nayzali antennalarda ishlaydi. Yangi hududga yetib kelganda AT barcha elementlari yoyishni bir vaqtda boshlaydi. BT va AT to'liq yoyilguncha qo'shinlarni boshqarish QShMdan amalga oshiriladi.

Aloqa tugunlari chizma va tarmoq grafiklari bo'yicha yoyiladi. Ular vaziyatga qarab aniqlashtirilishi mumkin. ATni tez yozish maqsadida apparatxonalarni yoyishga mo'ljallangan kartochka-topshiriqlar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollari

1. Aloqa tugunlari nima?
2. Aloqa tugunlari klassifikatsiyasi.
3. Boshqarish punktlari aloqa tugunlariga qo'yiladigan vazifalar.
4. Aloqa tugunlariga qo'yiladigan talablar.
5. Aloqa tugunlarining tashkiliy-texnik tuzilishi.
6. Aloqa tuguni elementlari.

7. Aloqa tugunlarida tezkor-texnik xizmat

7.1. Umumiy qoidalar

Tezkor-texnik xizmat (TTX) aloqa tugunining yetakchi xizmati hisoblanadi. U qo'shinlar (bo'linmalar)ni boshqarishda zarur bo'lgan barcha turdagi axborot o'z vaqtida almashinishini ta'minlash maqsadida tashkil qilinadi.

Birlashma (qism) AT da TTX ning vazifalari quyidagilar:

- o‘quv-jangovar normativlarga asoslangan, AT chizma-buyruqlarida ko‘zda tutilgan aloqalarni o‘rnatish;
- o‘rnatilgan aloqalarni axborot almashishga doimo tayyor turishni ta‘minlash;
- barcha turdagi axborotning belgilangan nazorat vaqti oralig‘ida o‘tishni ta‘minlash;
- AT va uning elementlarida jangovar navbatchilikni tashkil qilish;
- aloqa qurilma (vosita)larning ishga texnik tayyorgarligini ta‘minlash.

AT da tezkor-texnik xizmat aloqa tugunlarining boshliqlari tomonidan tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

Jangovar boshqaruv markazi (JBM) signallari va o‘ta muhim xabarlarining o‘tish vaqti, axborot o‘tishining ushlanib qolishi va sabablari, boshqarish punktlari ofitserlarining aloqaga chiqa olmaganliklari haqidagi ma‘lumotlar AT boshlig‘i ish joyiga telefon stansiyasi telefonchisi va QShM shaxsiy tarkibi tomonidan yetkaziladi.

Axborotning o‘z vaqtida o‘tishini va uning sifatini nazorat qilish quyidagicha amalga oshiriladi:

- AT boshlig‘i tomonidan – aloqa tugunidan o‘tuvchi barcha xabarlar;
- AT elementlari boshliqlari tomonidan – ushbu element orqali o‘tuvchi xabarlar;
- QShM, stansiya, jangovar post navbatchi hisobi boshliqlari tomonidan shu aloqa vositalari orqali o‘tuvchi xabarlar.

Aloqaning uzilishi, ma‘lumot o‘tishining ushlanib qolishi, aloqa intizomi buzilishi yuz bergan har bir xolat tahlil qilinadi (o‘rganib chiqiladi) va uning natijalari asosida ATning navbatchi smena shaxsiy tarkibi kamchiliklari va xatolari aniqlashtiriladi.

Axborot o‘tishini nazorat qiluvchi mansabdor shaxslar qo‘shinlarni maxfiy boshqarish va stansiyalarni ishlatish xizmati qoidalari bajarilishini hamda aloqa xavfsizligi ta‘minlanishini kuzatib turishlari lozim.

Chizma-buyruqda ko‘zda tutilgan aloqalarni AT navbatchi smenasi shaxsiy tarkibi elementlar boshliqlarining bevosita va AT boshlig‘ining umumiy boshqaruvi ostida o‘rnatadi. Aloqa bo‘yicha vaziyatning keskin o‘zgarishida, shuningdek AT ni yoyish va yig‘ish vaqtida navbatchi smena shaxsiy tarkibi ishiga AT boshlig‘i va elementlar boshliqlari rahbarlik qiladi.

Aloqa vositalariga texnik xizmat ko'rsatish hajmi va davriyligi me'yoriy hujjatlar asosida AT boshlig'i tomonidan belgilanadi.

Texnik xizmat ko'rsatish vaqtida axborot almashishning uzluksizligini ta'minlash uchun amaldagi aloqa zaxiradagi apparatura to'plami (kanali)ga o'tkaziladi. Zaxira qurilmalar bo'lmaganda esa texnik xizmat ko'rsatish aloqa qurilmalari (vositalari)dan eng kam foydalanilgan vaqtda o'tkaziladi va bu vaqt ichida axborot almashinish aylanib o'tuvchi aloqa yo'nalishlarida amalga oshiriladi.

Navbatchi smena mansabdor shaxslari aloqa liniya (kanal)lar va aloqa vositalari holati haqida ma'lumotlarni yig'ib, umumlashtirib, ularni tahlil qilgan holda aloqa holatini nazorat qilib turadilar. AT va elementlari boshliqlari yuqori turuvchi boshliqlarga aloqa liniyalari va vositalarning holati haqida va ob'ektiv va to'liq ma'lumot berishga doimo tayyor bo'lishlari lozim.

Uzilgan aloqani tiklash ishlarini AT boshlig'i rahbarligi ostida navbatchi smena shaxsiy tarkibi bajaradi. Aloqa uzilganda, avvalam bor, axborot uzatish tadbirlari yordamchi aloqa yo'nalishlari bo'yicha yo'lga qo'yiladi va zaxira apparatura to'plamlari (zaxira kanallar, aloqa liniyalari)da tezda aloqa tiklanadi; so'ngra ishdan chiqqan qismlar topiladi va nosozliklar bartaraf etiladi. Aloqa uzilishi va tiklanishi haqida jangovar post navbatchi hisob nomeri AT boshlig'iga hisobot beradi.

7.2. Aloqa tugunlarida jangovar navbatchilikni tashkil qilish

Qo'shinlarni uzluksiz boshqarishni ta'minlovchi ATlarda sutka davomida jangovar navbatchilik tashkil qilinadi.

ATda jangovar navbatchilik (JN)ni tashkil qilishda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- navbatchi smenalar soni va jangovar post navbatchi tarkibini aniqlash;
- shaxsiy tarkibni JNni mustaqil o'tashga tayyorlash va ruxsat berish;
- navbatchi smena shaxsiy tarkibiga ko'rsatmalar berish.

Navbatchi signallar soni, jangovar postlar navbatchi raschot tarkibi, JNni o'gash tartibi, shuningdek shaxsiy tarkibning navbatchilikni boshlashga tayyorgarligi tartibi AT boshlig'ining buyrug'i bilan aniqlanadi.

ATda JNni tashkil qilish haqidagi buyruqda quyidagilar belgilanadi:

- aloqani ta'minlash bo'yicha ATga yuklatilgan vazifalar;
- aloqani ta'minlash bo'yicha, kundalik sharoitda JNni tashkil qilish bo'yicha hamda jangovar tayyorgarlikning belgilangan darajasi kiritilganda AT elementlariga va jangovar postlarga beriladigan topshiriqlar;

- AT va uning elementlarida navbatchi smenalar soni, tarkibi va vazifalari;
- shaxsiy tarkibni JNni mustaqil o'tashga tayyorlash va ruxsat berish;

- navbatchi smena shaxsiy tarkibini navbatdagi jangovar navbatchilikka tayyorlash tartibi;
- shaxsiy tarkibga JNka tushishdan oldin yo‘riqnoma berish tartibi, JNni o‘tash davomiyligi va rejimi;
- sutka davomida JNdagi navbatchi smenaning dam olish va ovqatlanish tartibi va boshqa masalalar.

Buyruq asosida jangovar navbatchilikni tashkil qilish chizmasi ishlab chiqiladi, bunda navbatchi smena shaxsiy tarkibining soni hisobga olinadi. Chizma AT boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

Navbatchi smena AT boshqarish punkti (AT BP)ning navbatchi raschoti va AT elementlarining navbatchi smenalaridan tashkil topgan. AT elementlarining navbatchi smenasi tarkibiga AT elementlarini boshqarish punktining navbatchi hisobi va jangovar postlarining navbatchi hisoblari kiradi.

Jangovar post navbatchi hisob nomeri sifatida aloqa tuguni shaxsiy tarkibi, shuningdek tayyorgarlikni o‘tgan, mos toifa (razryad)ga ega bo‘lgan, jangovar navbatchilikni mustaqil o‘tashga ruxsat berilgan ishchi va xizmatchilar tayinlanadi.

Shaxsiy tarkibni JNni mustaqil o‘tashga tayyorlash va ruxsat berish shaxsiy tarkibni o‘qitish, navbatchi smena tarkibida stajirovka qilish, AT boshlig‘i buyrug‘i bilan tayinlanuvchi hay‘ati tomonidan yakuniy attestatsiyadan o‘tkazishni o‘z ichiga oladi.

Har bir tekshiriluvchi haqidagi hay‘at xulosasi va baholari akti AT boshlig‘iga tasdiqlash uchun taqdim etiladi, Akt asosida AT boshlig‘i shaxsiy tarkibning ko‘rsatilgan jangovar postda mustaqil jangovar navbatchilik o‘tashiga ruxsat beruvchi buyruq beradi.

Ishchi va xizmatchilarni navbatchilikka qo‘yish tartibini AT boshlig‘i belgilaydi.

7.3. Navbatchi smena shaxsiy tarkibini ATda jangovar navbatchilikni o‘tashga tayyorlash

Jangovar navbatchilikni o‘tashga tayyorgarlik jangovar post navbatchi hisobi tarkibida har bir navbatchilikka tushish oldidan o‘tkaziladi.

Tayyorgarlikning asosiy maqsadi shaxsiy tarkibning amaldagi aloqani ta‘minlash, hamda kurilmalarda ishlash bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarni takomillashtirishdan, shuningdek jangovar navbatchilik o‘tashning asosiy vazifa va maqsadlarini shaxsiy tarqibga yetkazishdan iborat.

AT elementi boshlig‘i tomonidan harbiy xizmatchilarni tayyorlash o‘kuv apparaturasi bilan jihozlangan sinflarda, AT da ishlab chiqilgan savollar asosida guruh mashg‘ulotlari, yakka va kompleks mashqlar uslublaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Navbatchi smena mutaxassislariga qo'yiladigan umumiy talablar quyidagilar:

- aloqa chizmasida, AT tarkibida, aloqa o'rnatish tartibida yuz bergan barcha o'zgarishlardan xabardor bo'lish;
- JMni me'yorlovchi yangi kelgan hujjatlar va tezkor-texnik xizmat bo'yicha amaldagi belgilovchi hujjatlar talablarini bilish;
- aloqa xavfsizligi talablarini, maxfiylik rejimi va texnik aloqa vositalarida muloqat olib borish qoidalarini bilish;
- jangovar post navbatchi hisobi nomerlari majburiyatlarini bilish;
- ATni belgilangan jangovar tayyorgarlik darajasiga keltirish vaqtida, avariya holatlarida, ATni qo'riqlash va mudofaa qilishda har bir jangovar post navbatchi hisobi nomeri harakatlarini bilish;
- aloqa kanallari va qurilmalarida o'tkaziladigan me'yoriy (reglament) ishlar mazmuni va tartibini bilish;
- aloqa o'rnatish va ta'minlash bo'yicha alohida operatsiyalarni o'tkazish bo'yicha amaldagi normativlarni bilish;
- texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini, shuningdek yong'in vaqtidagi majburiyatlarni bilish;
- shaxsiy tarkib va texnikani ommaviy qirg'in qurollaridan kollektiv himoyalashda har bir jangovar post navbatchi hisoblari nomerlari harakatlarini bilish va individual himoya vositalaridan foydalana olish;
- JNni qabul qilish va topshirish tartibi va boshqa masalalar;
- ATda tezkor texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'llanmada turli toifadagi navbatchi mutaxassislarga jangovar navbatchilik vaqtida qo'yiladigan talablar aniqlashtirilgan.

7.4. Navbatchi smena shaxsiy tarkibi bilan yo'riqnoma (instruktaj) o'tkazish va AT da jangovar navbatchilikka tushish tartibi

Yo'riqnoma (instruktaj) AT boshlig'i tasdiqlagan uslub asosida o'tkazilib, unda yo'riqnoma o'tkazish bo'yicha javobgar shaxslar, uni o'tkazish vaqti, davomiyligi, joyi va tartibi, hamda tekshirilishi, aniqlashtirilishi va navbatchilikni qabul qilayotgan shaxsiy tarkibga yetkazilishi zarur bo'lgan savollar aniqlanadi.

AT boshlig'ining navbatchi yordamchisi bilan yo'riqnomani AT boshlig'ining o'zi yoki muovinlaridan biri o'tkazadi, AT elementlari navbatchilari bilan esa yo'riqnomani element boshlig'i yoki uning muovinlaridan biri o'tkazadi.

Bunda quyidagi bilimlar tekshiriladi:

- ATni belgilangan jangovar tayyorgarlik holatiga o'tkazishda navbatchining majburiyatlari va smena shaxsiy tarkibining harakatlari, shuningdek

aloqani boshqa ATga uzatish (qabul qilish) tartibi;

- aloqa chizmasi, apparaturaning ish rejimlari, jangovar boshqarish markazi JBM da jangovar navbatchilikni o'tash tartibi, JBM signallarini qabul qilish (uzatish) tartibi, telegraf axborotlarining o'tishini ta'minlash tartibi;

- jangovar navbatchilik o'tashda aloqa qurilmalari va kanallarining axborot almashishga doimiy tayyorligini nazorat qilishni tashkil qilish;

- AT yashovchanligini ta'minlash bo'yicha asosiy tadbirlar va avariya holatlarida jangovar post navbatchi hisobi nomerlarining harakatlari.

Navbatchi smena shaxsiy tarkibining jangovar navbatchilikni olib borishga tayyorgarlik ko'rishiga va ATga o'z vaqtida jo'natishga AT elementining boshlig'i javobgar.

Navbatchi smena shaxsiy tarkibi bilan yo'riqnoma AT boshlig'ining navbatchi yordamchisi tomonidan o'tkaziladi.

Yo'riqnoma tugagandan so'ng navbatchi yordamchi komanda beradi: "Navbatchi smena shaxsiy tarkibiga! Jangovar navbatchilikka tushilsin!" Shu vaqtdan boshlab smena shaxsiy tarkibi jangovar navbatchilikda deb hisoblanadi.

Jangovar navbatchilik qabul qilinayotganda va topshirilayotganda quyidagilar tekshiriladi:

- amaldagi aloqa holati;
- apparatura, kanal (liniya)lar, jihozlar va o'lchov asboblarining mavjudligi, sozligi, ishga tayyorligi;
- maxfiy hujjatlar va tezkor-texnik xizmat mavjudligi;
- xizmat aloqasi, signalizatsiya, elektr va yorug'lik manbalarining sozligi;
- himoya vositalari va yong'in o'chiruvchi vositalarning holati;
- jihozlarning mavjudligi (ro'yxat bo'yicha);
- jangovar post (JP) (xonalar, apparatxonalar, stansiyalar va boshqalar) holati.

Jangovar navbatchilikni qabul qilish-topshirish vaqtida kelib tushgan signallar (komandalar) va boshqa telegraf xabarlarini o'z manziliga yetkazishga jangovar navbatchilikdagi hisob nomeri javob beradi.

Jangovar post navbatchi hisobi (JPNH) nomeri jangovar navbatchilikni qabul qilganligi (topshirganligi) haqida JPNH boshlig'iga doklad qiladi va apparatxona, texnik, ekspeditorlik jurnallariga vaqtni ko'rsatgan holda yozib qo'yadi.

Jangovar harakatlar vaqtida harakatlanuvchi ATlarda jangovar navbatchilikka tayyorgarlik, o'tash, qabul qilish (topshirish) tartibini AT boshlig'i vaziyatga qarab belgilaydi.

7.5. Jangovar navbatchilikni o'tash

Jangovar navbatchilik JNni o'tash vaqtida AT shaxsiy tarkibi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- apparatura va kanallarning xabarlarini qabul qilish va uzatishga doimiy tayyorgarligini ta'minlash;
- apparatura va kanallar ko'rsatkichlarini belgilangan norma chegarasida ushlab turish;
- rejadagi reglament ishlarini bajarish;
- tasdiqlangan nazorat vaqtlarida barcha turdagi axborotlar bilan almashishni ta'minlash;
- sifatli aloqa barqarorligini ushlab turish;
- buzilgan aloqalarni tiklash.

Mansabdor shaxslarning navbatchi smena shaxsiy tarkibiga jangovar navbatchilik bilan bog'lik, bo'lmagan ishlarni bajarish haqida buyruq berishi man etiladi.

Tezkor-texnik hujjatlarni rasmiylashtirish va xizmat aloqasi vositalari muloqat olib borishlari uchun element, apparatxona va JPNH nomerlari shartli belgilar beriladi.

AT elementlari quyidagicha belgilanadi:

- P-100 - telegraf markazi (stansiya);
- P-200 - telefon markazi (stansiya);
- P-300 - kanal hosil qilish markazi;
- P-400 - QABT vositalari markazi;
- P-500 - radiobyuro;
- P-600 - qabul qiluvchi radiomarkaz;
- P-700 - uzatuvchi radiomarkaz;
- P-900 - elektr ta'minot markazi (stansiyasi).

Jangovar postning shartli belgisi JP harflaridan va uch xonali sondan iborat bo'lib, birinchi raqam element tartib sonini bildiradi. Masalan, JP-120-telegrafli MAA apparat xonasi, JP-230-telefon stansiyasi, JP-630-qabul qilish mashinasi.

JPNH nomerining shartli belgisi (nomeri) NHN harflaridan va uch xonali sondan iborat bo'lib, ikkita raqam jangovar post tartib sonini, oxirgisi esa jangovar navbatchilikdagi mansabdor shaxsning tartib raqami (nomeri).

7.6. Aloqa tugunida jangovar navbatchilik o'tashni tekshirish

Navbatchi smena shaxsiy tarkibining ATda jangovar navbatchilik o'tashini tekshirish jangovar navbatchilikni o'tashda bo'ladigan xato va kamchiliklarni aniqlash va oldini olish, shuningdek amaldagi aloqa jangovar tayyorligini nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi.

Jangovar topshiriqni o'tashni tekshirish aloqa boshlig'i tomonidan hamda uning topshirig'iga ko'ra AT boshlig'i, uning navbatchi yordamchisi, shuningdek aloqa tuguni elementlari boshliqlari, AT elementlari navbatchilari tomonidan amalga oshiriladi.

Aloqa tuguni boshlig'i ATdagi jangovar navbatchilikni kamida uch oyda bir marotaba, aloqa tuguni elementlari boshliqlari esa - kamida bir oyda bir marotaba shaxsan tekshirishlari zarur.

Aloqa tuguni boshlig'ining navbatchi yordamchisi va AT elementlari navbatchilari AT navbatchi smenasi shaxsiy tarkibining jangovar navbatchilik o'tashni navbatchilik vaqtida kamida ikki marotaba (undan kamida bir marta kechasi) tekshirishlari zarur.

ATda jangovar navbatchilik o'tashda quyidagilar tekshiriladi:

- axborotning tasdiqlangan nazorat vaqtlarida o'tishiga va jangovar post navbatchi qisoblari (JPNH) nomerlari tomonidan qayta ishlash sifatiga rioya qilish;
- muhim yo'nalishlarda aloqaning holati va ish sifati;
- navbatchi smena tarkibi va tasdiqlangan hisobga mosligi;
- tezkor-texnik hujjat bo'yicha belgilangan hujjatlarning mavjudligi va ularni olib borish sifati:

- JPNH nomerlarining aloqa o'rnatish va axborot o'tkazish bo'yicha vazifalarini bilishi, shuningdek, aloqa tugunini (AT elementini) jangovar tayyorgarlikning belgilangan darajalarga keltirilishida va favqulodda vaziyatlarda aniq majburiyatlarini va harakatlarini (vaqt ko'rsatkichlari bilan) bilishi;

- aloqa o'rnatish bo'yicha alohida operatsiyalarni bajarish va aloqa apparatura (vosita)larida ishlash bo'yicha amaldagi normativlarni bilish;

- jangovar post navbatchisi hisob nomerlari tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifalarni to'liq va sifatli bajarish;

- JPNH nomerlari tomonidan buzilgan aloqalarni tiklash bo'yicha harakatlari;

- navbatchi smena shaxsiy tarkibinnng aylanma aloqa yo'nalishlarini bilishi va ular orqali aloqani ta'minlay olishlari;

- jangovar post navbatchi hisob nomerlari aloqa apparaturalari (vositalar) va kanallari (liniyalari)ning ko'rsatkichlari uchun belgilangan me'yorlarni bilishi;

- navbatchi smena shaxsiy tarkibi tomonidan reglament ishlarining sifatli bajarilishi;

- jangovar post navbatchi hisob nomerlari tomonidan texnika xavfsizligi va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, aloqa xavfsizligini ta'minlash va maxfiylik rejimiga rioya qilish talablarining bajarilishi;

- zaxira aloqa vositalari (apparaturalari) va kanallari (liniyalari), zaxira elektr ta'minot va yorug'likning mavjudligi va ishlatishga tayyorligi;

- navbatchi smena shaxsiy tarkibining aloqa tuguni (AT elementlari)ni qo'riqlash va mudofaasi bo'yicha harakatlarni bilishi;

- individual himoya vositalarining mavjudligi va sozligi;
- ehtiyot qismlar va anjomlar EQA (ZIP), asbob-uskunalar va o'lchash asboblarining mavjudligi va tarkibi;
- harbiy xizmatchilarning tashqi ko'rinishi;
- aloqa tuguni jangovar postlari, xonalari (apparatxonolari)ni yaratish va tozalik va tartibga rioya qilish.

Navbatchi smena shaxsiy tarkibining jangovar navbatchilikni tekshirish natijalari jangovar navbatchilikni tekshirish jurnali (daftari)ga yoziladi, bunda tekshirish sanasi va vaqti, tekshiruvchining mansabi va harbiy unvoni, ismi-sharifi, kamchiliklar (yo'qotish muddatini ko'rsatish bilan) o'z aksini topadi.

7.7. Aloqa tugunlarida tezkor-texnik hujjatlar

ATlarida, AT elementlarida va jangovar postlarda mansabdor shaxslarining o'z funksional majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarishlari maqsadida tezkor-texnik hujjatlar ishlab chiqiladi va olib boriladi.

Tezkor-texnik xizmatning asosiy hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- aloqa tuguni boshlig'ining ATda (AT elementlarida, jangovar postda) jangovar navbatchilikni tashkil qilish bo'yicha buyrug'i;
- aloqa tuguni uchun (AT elementiga, jangovar postga, jangovar post navbatchi hisobi nomeriga) chizma-buyruq;
- aloqa tuguni (AT elementi, jangovar post)ni jangovar shaylikning o'rnatilgan darajasiga o'tkazish tadbirlarini bajarishning vaqt bo'yicha grafigi;
- aloqa tuguni (AT elementi, jangovar post)ning amaldagi aloqa chizmasi;
- chaqiruv chizmasi;
- aloqa tuguni (AT elementi, jangovar post) aloqa apparatura (vosita)lari va kanal (liniya)larini zaxiraga o'tkazish chizmasi;
- aloqa tuguni (AT elempti) navbatchi smena shaxslarining doklad jadvali;
- jangovar boshqarish markazi signallarining o'tishini hisobga olish jurnali (daftari);
- o'ta muhim telegraf xabarlarining o'tishini hisobga olish jurnali;
- aloqa tuguni boshlig'i navbatchi yordamchisi (AT elementi navbatchisi, jangovar post navbatchi hisob boshlig'i)ning bildiruvlari jurnali;
- aloqa tuguni (AT elementi, jangovar post)da jangovar navbatchilik grafigi;
- aloqa tugunida (AT elementida) jangovar navbatchilikni o'tashni tekshirish jurnali;
- buyruqlar (farmoyishlar) jurnali;
- ishchi xarita;
- bog'lanish aloqa liniyalari va aloqa tuguni (AT elementi) bog'lanish liniyalarining chizmasi;
- aloqa tuguni (AT elementi)ning asosiy va zaxira energiya ta'minoti va

elektr ta'minoti chizmasi;

- qabul qiluvchi va uzatuvchi radiomarkazlar, radiobyurolarning antenna inshootlari azimutli chizmasi;

- aloqa tuguni (AT elementi, jangovar post) aloqa apparatura (vosita)larida, aloqa kanal (liniya)larida reglament ishlarini bajarish grafigi;

- jangovar boshqarish markazi signallari, barcha turdagi axborotlarning tasdiqlangan o'tish muddatlari; aloqa apparatura (vosita)lari va kanal (liniya)lari ko'rsatkichlariga belgilangan ishchi normalar;

- navbatchi smena mansabdor shaxslariga yo'riqnoma va jangovar post navbatchi raschot nomeriga yo'riqnoma:

- tezkor-texnik xizmat bo'yicha me'yoriy va ma'lumot beruvchi hujjatlar.

Aloqa tuguni boshlig'ining jangovar navbatchilikni tashkil qilish bo'yicha buyrug'ida quyidagilar belgilanadi:

- aloqa o'rnatish bo'yicha aloqa tuguni zimmasiga yuklatilgan vazifalar;

- aloqa tuguni elementlari (bo'linmalar)ga, jangovar postlarga kundalik sharoitda hamda jangovar tayyorgarlikning belgilangan darajalari kiritilganda aloqa o'rnatish bo'yicha vazifalar;

- aloqa tuguni va aloqa tuguni elementlaridagi navbatchi smenalar soni, ularning tarkibi va vazifalari;

- shaxsiy tarkibni aloqa tugunida mustaqil jangovar navbatchilik o'tashiga tayyorlash va qo'yish tartibi;

- navbatchi smena shaxsiy tarkibining jangovar navbatchilikka tushish tayyorgarligi tartibi;

- shaxsiy tarkib bilan jangovar navbatchilikka tushishdan avval yo'riqnoma o'tkazish tartibi, jangovar navbatchilikni o'tash davomiyligi va rejimi;

- sutka davomida jangovar navbatchilikda bo'lgan navbatchi smena shaxsiy tarkibining dam olish va ovqatlanish tartibi va boshqa masalalar.

Aloqa tugunida jangovar navbatchilikni navbatchi smena shaxsiy tarkibi hisobi bilan birga tashkil qilish chizmasi (4 ilova) qo'zg'almas va harakatlanuvchi aloqa tugunlarida ishlab chiqiladi va aloqa tuguni boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi. Chizmada barcha aloqa tuguni elementlari, jangovar postlari (yagona tezkor tartib raqami, bo'ysunish strukturasi, navbatchi hisobi ko'rsatiladi) aloqa tugunining barcha jangovar shaylik darajalarida belgilanadi, AT elementlari va aloqa tuguni navbatchi smenasi shaxsiy tarkibining hisobi keltiriladi (AT jangovar shaylik barcha darajalari uchun). Bu chizma aloqa tuguni boshlig'ining navbatchi yordamchisida saqlanadi.

Aloqa elementida jangovar navbatchilik tashkil qilish chizmasi aloqa tugunida jangovar navbatchilik qilish chizmasidan AT elementiga aloqador qismining nusxasi bo'lib, aloqa tuguni elementi navbatchisida saqlanadi.

Jangovar postda jangovar navbatchilik tashkil qilish chizmasida jangovar post navbatchi hisobi navbatchilari ismi-sharifi bilan ko'rsatiladi. Chizma jangovar postda saqlanadi.

Aloqa tuguniga beriladigan chizma-buyruq (4 ilova) aloqa boshqarmasi (bo'limi, bo'linmasi) tomonidan ishlab chiqiladi. Aloqa qo'shinlari boshlig'i (aloqa boshlig'i) tomonidan imzolanadi. Chizma-buyruqda quyidagilar belgilanadi:

- o'ziga tegishli birlashma (qo'shilma) boshqarish punktlari, hamda katta (yuqori), quyi (bo'ysingan) va o'zaro hamkorlikda bo'lgan (qo'shni) birlashma (qo'shilma) boshqarish punktlari;

- shartli raqamlar bilan belgilangan aloqa yo'nalishlari;
- foydalaniladigan aloqa apparaturalari (vositalari);
- har bir aloqani o'rnatish ketma-ketligi va muddatlari.

Chizma-buyruq matnli qismga ega bo'lib, aloqaning ish rejimlarini, aloqaning ish tartibini, aloqani o'rnatish va ta'minlash tartibini belgilashi mumkin.

Aloqa tuguniga beriladigan chizma-buyruq aloqa tuguni boshlig'ining navbatchi yordamchisida saqlanadi. Aloqa tuguni elementiga beriladigan chizma-buyruq aloqa tuguni chizma-buyrug'i asosida ishlab chiqiladi va aloqa tuguni boshlig'i tomonidan imzolanadi. Unda aloqa o'rnatuvchi jangovar post (apparatxona, stansiyalar) nomerlari ko'rsatiladi. Aloqa tuguni elementi chizma-buyrug'i aloqa tuguni elementi navbatchisida saqlanadi.

Aloqa tuguni elementi chizma-buyrug'i asosida AT elementi boshlig'i tomonidan har bir jangovar post (apparatxona, stansiya) uchun va jangovar post navbatchi hisobi har bir nomeri uchun chizma-buyruq ishlab chiqadi va imzolaydi.

Chizma-buyruqda quyidagilar ko'rsatiladi: ushbu jangovar post (apparatxona, stansiya) tashkil qiladigan aloqa yo'nalishlarining shartli raqamlari; foydalanadigan aloqa vositalarining turlari va tezkor raqamlari, aloqa tuguni jangovar posti (apparatxonasi, stansiyasi) orqali aloqa kanallarining o'tishi (bunda aloqa kanallari texnik raqamlari va kommutatsiya (kross) qurilmalari raqamlari belgilanadi), har bir aloqaning ketma-ketligi va o'rnatish muddatlari.

Jangovar post chizma-buyrug'i (jangovar post navbatchi hisob nomeri chizma-buyrug'i) jangovar postda saqlanadi.

Aloqa tuguni chizma-buyrug'i va qo'zg'almas aloqa tuguni elementlari, jangovar postlar, jangovar post navbatchi hisob nomerlari chizma-buyruqlariga quyidagi hollarda o'zgartirishlar kiritiladi: aloqa o'rnatish bo'yicha vazifalar o'zgarganda, aloqa apparaturalari (vositalari) tarkibining oshishi yoki qisqarishida, shtablar va ular tabellari o'zgarganda, shuningdek yuqori turuvchi boshliq ko'rsatmasiga ko'ra, lekin bir yilda bir marotabagacha.

Aloqa tuguni chizma-buyrug‘i va harakatlanuvchi aloqa tuguni elementlari, jangovar postlari (apparatxonalar, stansiyalar), jangovar post navbatchi hisob nomerlari chizma-buyruqlari operatsiyaga (o‘quv mashqlariga, tadbirlarga) aloqa tugunining har bir holati uchun ishlab chiqiladi.

Operatsiya (o‘quv mashqlari, tadbirlar) tugagandan so‘ng chizma-buyruqlar buyruq bajarilganligi, har bir aloqa o‘rnatilgan vaqt belgilangan holda aloqa tuguni elementlari boshliqlariga taqdim etiladi. AT elementlari boshliqlari chizma-buyruqlarda aksini topgan ma‘lumotlarni umumlashtiradilar va tahlil qiladilar hamda o‘tkazilgan operatsiya (o‘quv mashqlari, tadbirlari)da aloqa o‘rnatilganligi haqidagi hisobot bilan birga bajarilgan chizma-buyruqlar bo‘yicha A‘G boshlig‘iga hisobot beradilar.

Aloqa tugunini (aloqa tuguni elementini, jangovar postni) belgilangan jangovar shaylik darajasiga keltirishdagi tadbirlarni bajarish vaqti grafigi qo‘zg‘almas aloqa tugunlarida ishlab chiqiladi va AT boshlig‘ining navbatchisida (AT elementi navbatchisida, jangovar postda) saqlanadi. Grafikda quyidagilar o‘z aksini topadi: aloqa tugunini jangovar tayyorgarlikning belgilangan darajasiga keltirish rejasida ko‘zda tutilgan aniq tadbirlarning bajarilish ketma-ketligi va muddatlari, jumladan, shaxsiy tarkibni xabarlash, uni yig‘ish, jangovar post navbatchi hisob tarkibini kuchaytirish, qo‘shimcha aloqalarni o‘rnatish (ochish) (qo‘shimcha aloqa kanallarini qabul qilish), zaxira aloqa vositalari va kanal (liniya)larini qo‘llashga (foydalanishga) tayyorlash, avariya-tiklovchi komandalarni tayyor holatga keltirish, aloqa tugunlari va davlat aloqa tizimi bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil qilish va boshqa tadbirlar.

ATdagi (AT elementidagi, jangovar postdagi) amaldagi aloqa chizmasi AT boshlig‘i navbatchi yordamchisi tomonidan olib boriladi va odatda aloqa tuguni (aloqa tuguni elementi, jangovar post) holatini aks ettiruvchi tablo bilan moslashtiriladi. Aloqa holatini aks ettiruvchi tablo bo‘lmagan alohida hollarda amaldagi aloqa chizmasi planshet qog‘ozlarda chizma-buyruqqa o‘xshash bajariladi.

Chaqiruv-chizma maxfiylashtirilgan telefon aloqasi stansiyasi va xizmat aloqasi stansiyasining navbatchi telefonchilari jangovar postlarida saqlanadi.

Aloqa apparatura (vosita)larini va kanal (liniya)larini zaxiraga o‘tkazish chizmasi aloqa tuguni (aloqa tuguni elementi, jangovar post)da ishlab chiqiladi va ishdan chiqqan aloqa apparatura (vosita)larini, kanal (liniya) larini, antenna-fiderli qurilmalarini, elektr manbalarini zaxiradagi sozlariga almashtirishni ko‘zda tutadi.

Zaxiraga o‘tkazish chizmasini aniqlashtirish shunday darajada bo‘lishi kerakki, navbatchi smena mansabdor shaxslari tomonidan favqulodda holatlarda zaxiraga o‘tkazish chizmasida ko‘zda tutilgan tadbirlarni boshqa mansabdor shaxslarga va hujjatlarga murojaat qilmasdan bajara olishlari kerak. Aloqa tuguni

(AT elementi, jangovar post) aloqa apparatura (vosita)larini, kanal (liniya)larni zaxiraga o'tkazish chizmasi aloqa tuguni boshlig'ining navbatchi yordamchisida (AT elementi navbatchisida, jangovar postda) saqlanadi va zarur bo'lganda, biroq kamida bir yilda bir marta aniqlashtiriladi.

Aloqa tuguni navbatchi smena shaxslarining doklamlari tabeli AT boshlig'i tomonidan ishlab chiqiladi va aloqa qo'shinlari boshlig'i (aloqa boshlig'i) tomonidan tasdiqlanadi.

Tabel tarkibiga quyidagilar kiradi: ro'yxat, jangovar post navbatchi hisob nomerlarining va AT navbatchi smenasi mansabdor shaxslarning markazlashgan jangovar boshqarish signallarining, hamda o'ta muhim telegraf axborotlarning o'tishi xaqida, telefon muloqotlari haqida, aloqa holatining o'zgarishi haqida, aloqa o'rnatilganligi haqida, aloqa buzilishlari haqida qiladigan doklamlarning shakli va muddatlari.

Aloqa tuguni navbatchi smenasi shaxslarining doklamlari tabeli aloqa tuguni boshlig'ining navbatchi yordamchisida saqlanadi.

Aloqa tuguni navbatchi smena shaxslarining doklamlari tabelidan ko'chirma aloqa tuguni elementlari navbatchilariga va jangovar postlarga beriladi.

Apparatxona jurnallari, texnik ekspeditorlik jurnallar aloqa va jangovar post (apparatxona, stansiya)lar ishini xisobga oluvchi dastlabki hujjatlari hisoblanadi va amaldagi me'yoriy hujjatlarning talablariga mos holda aloqa tuguni jangovar postining navbatchi postlari nomerlari tomonidan olib boriladi. Aynan shu jurnallarda jangovar post navbatchi hisob nomerlari jangovar navbatchilikni qabul qilganligi va topshirganligi haqida imzo qo'yadilar.

Aloqa tuguni (AT elementi) holatining o'zgarishini hisobga oluvchi jurnalda xar bir sutka davomida aloqa holatining o'zgarishi (aloqaning buzilishi, buzilgan aloqani tiklanishi, aloqa o'rnatilishi, aloqani o'chirish) aks etadi. Aloqa tuguni (AT elementi) holatining o'zgarishini hisobga oluvchi jurnal aloqa tuguni boshlig'ining navbatchi yordamchisi (AT navbatchisi) tomonidan olib boriladi.

Markazlashgan jangovar boshqarish signallarining o'tishini hisobga oluvchi jurnal va o'ta muhim telegraf xabarlarining o'tishini hisobga oluvchi jurnal aloqa tuguni boshlig'ining navbatchi yordamchisining bevosita rahbarligi ostida telegraf axborotlarning o'tishini nazorat qiluvchi navbatchi tomonidan to'ldiriladi.

Markazlashgan jangovar boshqarish signallarining ABT markazi orqali o'tishini hisobga oluvchi jurnal markazda signallarni qabul qiluvchi chetki (oxirgi) apparaturalari mavjud bo'lganda ABT markazi navbatchisi tomonidan olib boriladi.

Navbatdan tashqari va birinchi navbatdagi telefon muloqotlarni ta'minlash hisobga olinadigan jurnal AT boshlig'ining navbatchi yordamchisi, telefon markazi

(telefon stansiyasi) navbatchisi, MAA markazi navbatchisi tomonidan olib boriladi.

Aloqa boshlig'ining navbatchi yordamchisi (aloqa tuguni elementi navbatchisi, jangovar post navbatchi hisob boshlig'i)ning bildiruvlari jurnali sutka davomida barcha turdagi axborotlarning o'tishini, barcha axborot ko'rinishlari (AT elementi), aloqa tuguni shaxsiy tarkibi jangovar navbatchiliga holatini aks ettiruvchi hujjat hisoblanadi.

Bildiruvda quyidagilar aks etadi:

- markazlashgan jangovar boshqaruvning qabul QILINGAN va uzatilgan signallari soni; belgilangan vaqtdan ushlanib qolganlari va ushlanib qolish sabablari;
- navbatdan tashqari va birinchi navbatdagi telefon muloqotlar soni (muloqot olib borish bo'yicha tanbehlar);
- telegraf axborotlar almashinuvi, bunda belgilangan vaqtdan ushlanib qolgan telegraf xabarlar (shoshilinchlikning har bir toifasi bo'yicha) soni va ushlanib qolish sababi ko'rsatiladi;
- o'rnatilgan aloqa muloqotlar soni va muloqot o'rnatish bo'yicha tanbehlar;
- sutka (smena) davomida aloqa barcha ko'rinishlarining haqiqiy holati, aloqa tashkil qilishdagi o'zgarishlar, aloqa apparatura (vosita)lari va kanal (liniya)lari (ishdaga va zaxiradagi) holati;
- aloqa seanslarn amalga oshirilmagan yoki past sifatda o'tgan radiotarmoqlar va radioyo'nalishlar (sabablari ko'rsatiladi);
- aloqa apparatura (vosita)lari va kanal (liniya)laridagi bajariladigan reglament ishlarining tasdiqlangan grafikka MOSLIGI;
- aloqa xavfsizligi, maxfiylik rejimini ta'minlash bo'yicha talablarning buzilish holatlari;
- harbiy va mehnat intizomining buzilish holatlari;
- aloqa tuguni (AT elementi), jangovar post shaxsiy tarkibi tomonidan olib borilgan jangovar navbatchilikka berilgan baho.

Aloqa tuguni boshlig'ining navbatchi yordamchisi (AT elementi navbatchisi, jangovar post navbatchi hisob boshlig'i)ning bildiruvda aloqa tuguni bajarayotgan vazifaning xususiyatlarini hisobga oluvchi boshqa masalalar ham aks etishi mumkin.

Jangovar navbatchilik grafigi aloqa tuguni uchun (AT xar bir elementi uchun), har bir jangovar post uchun ishlab chiqiladi. Unda shaxsiy tarkibning jangovar navbatchilikka tushish sanasi va vaqti ko'rsatiladi.

Aloqa tugunida jangovar navbatchilik grafigiga aloqa tuguni boshlig'ining navbatchi yordamchisi, telegraf axborotlarining o'tishini nazorat qilish bo'yicha navbatchi, aloqa tuguni elementlari navbatchilari va aloqa tuguni navbatchi

smenasining boshqa javobgar mansabdor shaxslari kiritiladi. Grafik aloqa tuguni boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Aloqa tuguni elementida (jangovar postda) jangovar navbatchilik grafigi aloqa tuguni elementi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi va aloqa tuguni elementi (jangovar post) navbatchi smena barcha shaxsiy tarkibini o'z ichiga oladi.

Aloqa tugunida (AT elementida)gi jangovar navbatchilikni tekshirish jurnali va buyruq jurnali aloqa tuguni boshlig'ining navbatchi yordamchisi va AT elementi navbatchisi tomonidan to'ldiriladi.

Ishchi xarita aloqa tuguni boshlig'ining navbatchi yordamchisi tomonidan ishlanadi. Ishchi xaritaga oldingi chizig'i (qo'shinlarning to'qnashuv chizig'i), tayanch va yordamchi aloqa tugunlari va bog'lanish aloqa liniyalari; o'qli, rokadali aloqa liniyalari, yuqori turuvchi boshqarish punktlari, o'z birlashmasi (qo'shilmasi) boshqarish punkti, bo'ysungan va o'zaro hamkorlikda bo'lgan boshqarish punktlari chiziladi.

Ishchi xaritaga shuningdek radiatsion va kimyoviy vaziyat va boshqa zarur ma'lumotlar ham chiziladi.

Bog'lanish aloqa liniyalari va ulanish liniyalari chizmasi aloqa tuguni uchun hamda aloqa tuguni barcha elementlari uchun ishlab chiqiladi. Chizmada aloqa kabellari trassalari va ularni o'tkazish shartlari ko'rsatiladi va unda kabel turlari va texnik raqamlari, xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirish punktlari (XKmKP) (NUP), xizmat ko'rsatiladigan kuchaytirish punktlari (XKKP) (OUP), ishlatiladigan kanal hosil qiluvchi apparaturaning turi va tezkor raqami va boshqa zarur malumotlar belgilanadi.

Asosiy va zaxira elektr ta'minot chizmasi aloqa tuguni uchun hamda aloqa tugunining har bir elementi uchun ishlab chiqiladi. Chizmada yuqori quvvatli kabellarni o'tkazish trassasi ko'rsatiladi va unda kabel turlari va texnik raqamlari, asosiy, zaxira va favqulodda energiya ta'minoti va elektr ta'minoti manbalari, elektroenergiyani iste'molchilarga taqsimlash qurilmasi, elektr ta'minoti manbalarini yuklanishdan saqlash qurilmalari belgilanadi.

Antenna qurilmalarining azimutli chizmasi har bir qabul qiluvchi va uzatuvchi radiomarkaz va radiobyuroda ishlab chiqiladi. Chizmaga antenna qurilmalarining ishchi chastotalari diapazonlari va azimutlari belgilangan antenna-fiderli qurilmalar va antennalarni kommutatsiyalash qurilmalari (antenna kommutatorlari va o'tkazgichlar) kiritiladi. Bundan tashqari, chizmada radioaloqa yo'nalishlariga antenna-fiderli qurilmalarning birlashtirilishi va turli vaziyatlarda antenna qurilmalaridan foydalanish variantlari belgilanadi.

Aloqa apparaturasi (vositalari)da va kanal (liniya)larda reglament ishlarini olib borish grafigini aloqa tuguni bosh (katta) muhandisi tasdiklaydi. Bu grafik

asosida aloqa tuguni har bir elementining va har bir jangovar postning aloqa apparaturalari (vositalari) va kanal (liniya)larida reglament ishlarini bajarish grafigi tuziladi.

Markazlashgan jangovar boshqarish signallarining va boshka barcha axborotlarning o'tish nazorat muddatlari har bir aloqa tugunida ishlab chiqiladi va o'z shtab boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu nazorat muddatlari katta boshliqlarning direktiv ko'rsatmalari bilan o'rnatilgan muddatlardan oshmasligi kerak.

Aloqani ta'minlash va aloqa vositalarida ishlash bo'yicha normativlar, shuningdek, ekspluatatsiya normalari va aloqa apparatura (vosita)larn va kanal (liniya)larining ko'rsatkich (parametr)lari O'R QK BSh aloqa nazorat va kompyuter tizimlari boshqarmasi tomonidan ishlab chiqiladi. Har bir aloqa tuguni uchun aloqani ta'minlash normativlari asosida shaxsiy tarkib tomonidan aloqani ta'minlashda alohida operatsiyalarni bajarish bo'yicha normativlar tasdiqlanadi.

Quyidagi hujjatlar tasdiqlanadi: markaziy boshqarish bloki signallarining va boshqa barcha axborotlarning o'tish nazorat muddatlari; aloqani ta'minlash bo'yicha amaldagi normativlar; aloqa apparatura (vosita)lari va kanal (liniya)lari ko'rsatkichlariga o'rnatilgan ekspluatatsiya normalari, mos holda, aloqa tuguni boshlig'ining navbatchi yordamchisida, telegraf axborotlarning o'tishini nazorat qilish bo'yicha navbatchida, AT elementlari navbatchilarida, jangovar post navbatchi hisob boshliqlarida, jangovar post navbatchi hisob nomerlarida saklanadi.

Navbatchi smenaning har bir mansabdor shaxsi uchun va jangovar post navbatchi hisob har bir nomeri uchun aloqa tugunida ishlab chiqiladigan yo'riqnomalar turli vaziyatlarda, hamda aloqa tugunini (AT elementini, jangovar postni) jangovar tayyorgarlikning o'rnatilgan darajalariga keltirishda shaxslarning aniq harakatlari yoritilgan vaqt grafigini o'z ichiga oladi.

Tezkor-texnik xizmatning ma'lumotnomali hujjatlariga quyidagilar kiradi: aloqa tuguni telegraf markazi (telegraf stansiyasi) apparatxonasidan, MAA markazidan muloqot olib boradigan mansabdor shaxslarning ro'yxati, telegraf muloqoti olib borishga xuquqli mansabdor shaxslar ro'yxati, telefon aloqasi stansiyalari abonentlari ro'yxati, qism va tashkilotlarga telegraf xizmat ko'rsatishni belgilash kitobi, boshqarish punkti bo'linmalarining joylashish rejasi; telegraf markazi va qabul qiluvchi radiomarkaz apparatxonalarini joylashtirish rejasi; boshqarish punktida xabar elituvchilarning harakat marshruti chizmasi va boshqa hujjatlar. Boshqarish punkti bo'limlarining joylashish rejasi qo'zg'almas va harakatlanuvchi aloqa tugunlarida rasmiylashtiriladi va ekspeditsiyada hamda telegraf axborotlarning o'tishini nazorat qilish bo'yicha navbatchisida saqlanadi.

Telegraf markazi va qabul qiluvchi radiomarkaz apparatxonalarini joylashtirish rejasi, boshqarish punktida xabar elituvchilarining harakat marshruti chizmasi (masofa ko'rsatiladi) harakatlanuvchi aloqa tugunlarida ishlab chiqiladi va ekspeditsiyada saqlanadi.

Aloqa tugunida tezkor-texnik xizmat bo'yicha sanab o'tilgan hujjatlardan tashqari aloqa tashkil qilish va ta'minlash bo'yicha, AT elementlarini, alohida apparatxona (stansiya)larni aloqa apparatura (vosita)lari va kanal (liniya)larini jihozlash va ishlatish bo'yicha qoidalar yo'riqnomalarda ko'zda tutilgan hujjatlar ham yuritiladi. Bundan tashqari ushbu ko'rinishdagi QK tezkor-texnik xizmat o'ziga xos tashkiliy tomonlarini yoritadigan qo'shimcha hujjatlar ham kiritilishi mumkin.

Kam aloqa ta'minlaydigan va axborot almashinuvi chegaralangan aloqa tugunlarida aloqa boshliqlari qarori bilan hujjatlarning bir qismi bitta hujjatga birlashtirilishi mumkin.

Bunda boshqarish punkti aloqa tugunida tezkor-texnik xizmat bo'yicha asosiy hujjatlar quyidagilar:

- brigada komandirining ATlarda jangovar navbatchilikni tashkil qilish haqidagi buyrug'i;

- ATda (JPda) jangovar navbatchilikni tashkil qilish chizmasi;
- ATga (AT elementlariga) chizma-buyruq;
- AT, aloqa tuguni elementlari jangovar postdagi amaldagi aloqa chizmasi;
- chaqiruv chizmasi;
- ATni joylashtirish, qo'riqlash va mudofaa qilish chizmasi;
- JPdagi apparatxona jurnallari va texnik jurnallar;
- navbatchi smena mansabdor shaxslariga yo'riqnomalar;
- aloqa vositalari texnik xizmat ko'rsatish grafiklari;
- tezkor-texnik xizmat bo'yicha me'yoriy hujjatlar.

Nazorat savollari

1. Tezkor-texnik xizmatning asosiy vazifalari.
2. Aloqa tugunlarida jangovar navbatchilikni tashkil qilish.
3. Navbatchi smena mutaxassislariga qo'yiladigan umumiy talablar.
4. Navbatchi smena shaxsiy tarkibi bilan yo'riqnoma o'tkazish tartibi.
5. Jangovar navbatchilikni o'tash tartibi.
6. Aloqa tugunida jangovar navbatchilik o'tashni tekshirish.
7. Aloqa tugunlarida tezkor-texnik hujjatlar.

8. Aloqaning jangovar, texnik va xo‘jalik ta‘minoti

8.1 Jangovar ta‘minoti

Jangovar vaziyatda aloqa tizimiga ommaviy qirg‘in vositalari, tasodifiy va atayin tayyorlangan halaqitlar ta‘sir qidib turadi. Aloqa tizimini jangovar ta‘minlash deganda kompleks tadbirlar tushuniladi. Ular aloqa xavfsizligini ta‘minlashga, razvedhimoyalanganlikka, aloqa tizimi faoliyatining barqarorligiga, dushmanning to‘satdan xujum qilishiga yo‘l ko‘ymaslik, dushman hujumining aloqa tizimiga ta‘sirini pasaytirish, qism (bo‘linma)larni boshqarish uchun sharoit yaratishga yo‘naltirilgan.

Jangovar ta‘minotning asosiy turlari quyidagilar: aloqa xavfsizligini ta‘minlash, aloqa tizimi va bo‘linmalarini dushman razvedkasi texnik vositalaridan himoyalash, radioelektron himoya, dushman qirg‘in vositalaridan himoya, muhandislik ta‘minoti, kimyoviy taminot, gidrometeorologik va topogeodezik ta‘minot, aloqa va joyni razvedka qilish va qo‘riqlash.

Razvedkaning texnik vositalaridan himoya. Radiomaskirovka.

Dushman razvedkasi texnik vositalariga radiolokatsiya, fotografiya, televizion, lazer, infraqizil, akustik va boshqa vositalar kiradi.

Aloqa tizimi, qism (bo‘linma)larini dushman razvedkasi texnik vositalaridan himoyalash dushmanning radiolokatsiya, televizion, fotografik, lazer, infraqizil, akustik va boshqa texnik vositalari yordamida aloqa va boshqaruv tizimi, qo‘shinimiz gruppirovkasi, ularning rejalari va boshqa ma‘lumotlarni olish samarasini pasaytirishga qaratilgan tadbirlarni rejalashtirish va o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Unga quyidagicha erishiladi: aloqa tizimi elementlarini maskirovka qilish tadbirlarini o‘tkazish; aloqa qismlari (bo‘linmalari) shtab ofitserlarining va shaxsiy tarkibning yuqori tayyorgarligi va hushyorligi; aloqa xavfsizligini tashkil qilish va doimiy nazorat, maskirovka tadbirlarini o‘tkazish; qo‘shinlarni pinhona boshqarish talablarining, aloqa olib borish va maxfiylashtiruvchi apparaturadan foydalanish qoidalarining buzilishini aniqlash va oldini olish; aloqa vositalaridan foydalanishda fosh etuvchi belgilarni aniqlash va yo‘qotish.

Aloqa tizimi, qism (bo‘linma)larini dushman razvedkasi texnik vositalaridan himoyalash bo‘yicha tadbirlar aloqani tashkil qilish bo‘yicha birlashma (qism) komandirining, yuqori shtabning ko‘rsatmalari, qabul qilingan qaror asosida barcha bo‘g‘in boshliqlari tomonidan rejalashtiriladi va o‘tkaziladi.

Aloqa tizimi, qism (bo‘linma)larini dushman razvedkasi texnik vositalaridan himoyalash bo‘yicha tadbirlar aloqa rejasida va aloqa xavfsizligini tashkil qilish va uni nazorat qilish rejasida aks ettiriladi.

Aloqa tizimi elementlarini maskirovka qilishning eng muhim tadbirlaridan biri radiomaskirovkadir.

Radiomaskirovka - maqsad, joy va vaqt bo'yicha kelishilgan, dushman radiorazvedkasi ta'siriga qarshi yo'naltirilgan tashkiliy va texnik tadbirlar yig'indisidir. O' qo'shinlarning har qanday jang faoliyatida olib boriladi. Hal qilinayotgan masalaning mashtabi va xarakteriga qarab u ikkiga - tezkor radiomaskirovka va qo'shin radiomaskirovkasiga bo'linadi.

Tezkor radiomaskirovka - dushmanni qo'shinlarimizning haqiqiy gruppirovkasi, xolati va faoliyatiga nisbatan shuningdek qo'mondonlik rejalariga nisbatan chalg'itishga yo'naltirilgan tadbirlar majmuasidir. Tezkor radiomaskirovka ko'shinlar radiomaskirovkasining tashkiliy qismidir.

Qo'shin radiomaskirovkasi — aloqa tizimining radiohimoya-langonligini oshirish maqsadida o'tkaziladigan tashkiliy va texnik tadbirlar majmuasidir. Qo'shin radiomaskirovkasi usullari aloqa qo'shinlari uchun o'rinli bo'lgan tadbirlar bilan aniqlanadi. Bu tadbirlar dushman radiorazvedkasining nurlanish manbalarini topish va aniqlash, ularning o'rnini va daxldorligini belgilash, xabarlarini ushlab qolish va deshifrlash bo'yicha harakatlarini bartaraf etishga qaratilgan.

Aloqa tizimini dushman radiorazvedkasidan himoyalash maqsadida quyidagi tashkiliy tadbirlar o'tkaziladi:

- dushmanning radioxabarlarni ushlab qolish, taxlil va pelengatsiya kilish joylarini topish va yo'q qilish;
- radiovositalarda ishlashga ruxsat berilgan shaxslar sonini kamaytirish;
- qo'shinlarni rasmiylashtirilgan hujjatlar yordamida, qisqa signal va komandalar bilan maxfiy boshqarish qoidalariga amal qilgan holda boshqarish;
- radioqurilmalarning nurlanish (uzatish) ish vaqtini minimumgacha kamaytirish;
- aloqa mutaxassislariga ochiq matn yoki ochiq radiokanallar bilan ishlashni taqiqlash, hamda nutq kamchiliklariga ega bo'lgan shtab mansabdor shaxslari va telegraf kaliti bilan ishlashda ajralib turuvchi yozuviga ega radistlarga radioqurilmalarda ishlashni taqiqlash;
- radioalmashish vaqtida chaqiruv signallariziz va kvitansiya bermasdan ishlash;
- muhim radioyo'nalishlar (tarmoqlar)ga yuqori malakali radiomutaxassislarni ajratish;
- aloqa intizomi va QMB qoidalari bajarilishini qat'iy nazorat qilish;
- haqiqiy radioyo'nalishlar va radiotarmoqlarga o'xshash va u bilan bir vaqtda ishlovchi yolg'on radiotarmoqlar hosil qilish;
- vaziyat shartlari (ko'shinlar yig'ilish rayonida, marsh vaqtida, himoya paytida) imkon berganda simli va harakatdagi aloqa vositalaridan foydalanish.

Aloqa tizimini radiorazvedkadan himoyalash bo'yicha o'tkaziladigan texnik tadbirlar quyidagilardan iborat:

- radioqurilmalarning minimal quvvatda ishlashi;
- yo‘naltirilgan antennalardan foydalanish, shuningdek joyning va joydagi narsalarning ekranlovchi va qaytaruvchi xususiyatlaridan foydalanish;
- efirga chiqmasdan avval radioqurilmalarni sozlab olish (antenna ekvivalenti yordamida);
- maxfiylash qurilmalarini ishlatish, radiostansiyada ishlaganda radistlarning individual yozuvini cheklovchi Morze kodining datchiklaridan foydalanish;
- radio va radioreleyli stansiyalarni, yuklama bo‘lmagan holda navbatchi qabul rejimida ishlatish;
- radiovositalar ishida radiouzatuvchi qurilmalar, masofadan boshqarish liniyalari va chetki qurilma nosozligi tufayli vujudga keluvchi o‘ziga xos kamchiliklarni bartaraf etish.

Yuqorida ko‘rsatilgan har bir tadbir vaziyatga mos holda o‘tkaziladi.

Aloqa vositalari va qo‘shinlarini dushman qirg‘in vositalaridan himoyalash. Aloqa vositalari va qo‘shinlarini dushmanning barcha turdagi qurolidan himoyalash bo‘yicha tadbirlar maqsadi - aloqa vositalari va qurilmalariga dushmanning ommaviy qirg‘in qurollari va yuqori aniqlikdagi qurollari ta‘sirini minimumgacha kamaytirish, ularning jangovar holatini saqlash va qo‘yilgan vazifalarning boshqarilishini ta‘minlash.

Qirg‘in vositalaridan himoyalash tadbirlarini birlashma (qism) boshlig‘i boshqaradi. Bu tadbirlarning bevosita tashkilotchilari esa aloqa qism va bo‘linmalari komandirlari (shtab) hisoblanadi. Aloqa tizimi elementlarini himoyalash har qanday sharoitda ham amalga oshiriladi. Bu tadbirlarning o‘tkazilishi qo‘yilgan jangovar vazifalar bajarilishini to‘xtatmasligi zarur.

Shaxsiy tarkibni va aloqa vositalarini OQQdan himoyalash aloqa tizimi va bo‘linmalarini jangovar ta‘minlashning asosini tashkil qiladi va u barcha turdagi harbiy harakatlar vaqtida tashkil qilinadi.

Aloqa vositalari va qo‘shinlarni OQQdan himoyalash bo‘yicha o‘tkaziluvchi asosiy tadbirlar quyidagilar:

- aloqa qismlari va bo‘linmalarida uzluksiz ravishda radiatsion, kimyoviy va biologik (bakteriologik) razvedka o‘tkazish;
- aloqa qismlari (bo‘linmalari)ni dushmanning OQQ qo‘llash xavfi xaqida o‘z vaqtida xabardor qilish, shuningdek o‘zining yadro hujumi, radioaktiv, kimyoviy va biologik (bakteriologik) zararlanishi haqidagi ma‘lumotlarni o‘z vaqtida yetkazish;
- aloqa qismi va aloqa tizimi elementlarini joyda tarqoq xolda joylashtirish;
- aloqa qismlari o‘rnashgan joy va aloqa tizimi elementlari yoyilgan pozitsiyalarni muhandislik ta‘minlash;

- qo‘mondonlik-shtab va maxsus mashinalar, apparatxonalari va stansiyalarning maskirovka hususiyatlaridan foydalanish;

- aloqa bo‘linmalarini o‘z vaqtida individual va kollektiv himoya vositalari, maxsus qayta ishlash vositalari, kimyoviy va radiatsion razvedka asboblari bilan to‘liq ta‘minlash;

- zararlangan zonalarini chetlab o‘tishda eng yaxshi usullarni tanlash;

- suv ostida qolgan, yonib ketgan va qattiq talofat ko‘rgan rayonlarda harakat vaqtida shaxsiy tarkib xavfsizligini ta‘minlash va uni himoyalash;

- aloqa qism tizimlarning jangovar qobiliyatini tiklash.

Aloqa tizimi elementlari va aloqa bo‘linmalarida doimiy ravishda shaxsiy tarkib, aloqa vositalari va joyning radioaktiv nurlanishi nazorat qilib turiladi, shuningdek o‘z vaqtida sanitar-gigienik, epidemiyaga qarshi va maxsus profilaktik tadbirlar tashkil qilinadi. Dushman OQQ ko‘llagandan so‘ng ko‘rilgan talofatlarni bartaraf etishning shoshilinch choralarini ko‘riladi. Bundan tashqari yadro portlash natijasida yuzaga keluvchi elektromagnit ta‘sirilar vaqtida aloqa barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha ham tadbirlar o‘tkaziladi.

Yuqori aniqlikdagi qurollar (YuAQ) shunday qurollar tizimiki, bu tizim qurollari samaradorligi o‘q-dorining quvvatli ekanligida emas, balki nishonga tegish ehtimolligi kattaligidadir, ya‘ni birinchi otishdan nishonga tegish ehtimolligi 0,93 ga teng. YuAQga boshqariluvchi raketalar, boshqariluvchi aviabombalar va individual yo‘naltiriluvchi jangovar elementlarga ega bo‘lgan kassetalar kiradi.

Dushmanning razvedka-zarba komplekslari (RZK) va YuAQga qarshi quyidagi choralar ko‘riladi:

- qo‘shinni RZK va YuAQ ishlatilishi haqida xabardor qilish;

- RZK va uning elementlarini topish va yo‘q qilish;

- aloqa tizimlari elementlari va aloqa qismlari joylashgan rayonlarni muhandislik ta‘minlash va maskirovka ishlarini o‘tkazish;

- burchakli metall qaytargichlar va issiqlik qopqonlaridan kompleks foydalanish yordamida boshqarish punkti AT elementlarini nochiziqli «o‘choq» ko‘rinishida joylashtirish;

- aloqa tugunlarida zirhli texnika va inshootlarni imitatsiya qilish uchun issiqlik qopqonlari keng qo‘llaniladi;

- maxsus radionurlarni yutuvchi yog‘och, shox-shabba, chim, xashak va boshqa qo‘l ostidagi materiallardan foydalanish;

- tabelda bo‘lgan maskirovkalash komplektlardan, universal karkasli maskalardan (UKM), aloqa texnikasida suv-polimerli qobiqni qo‘llash;

- AT hududida aerezolli va tugunli parda hosil qilish;

- boshqarish punkti kanallarining 6-8 apparatxonalaridan iborat alohida guruhlar bo‘lib ko‘chishini ta‘minlash, bunda guruhlar orasidagi masofa kamida

100-150 m, apparatxonalar orasidagi masofa — kamida 70 m.

Aloqa tizimi, qismi va bo‘linmalarini himoyalash tadbirlari birlashma (qism) aloqa rejasiga beriladigan tushuntirish xatida, aloqa qismining jangovar farmoyishida, qism komandirlarining jangovar buyrug‘ida va ishchi xaritalarda aks ettiriladi.

Aloqa va joylikni razvedka qilish. Qo‘riqlash. Aloqa razvedkasi birlashma (qism) harakat yo‘nalishidagi ma‘lum bo‘lgan aloqa vositalarining mavjudligi holatini, aloqa o‘rnatish uchun ulardan foydalanish imkoniyatini belgilash, dushman tashlab ketgan aloqa omborlarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. U quyidagi yo‘llar bilan o‘tkaziladi: xaritalarni, aloqa chizmalarini, jangovar harakatlar hududining harbiy-iqtisodiy tasnifini o‘rganish, joyni va aloqa ob‘ektlarini ko‘rib chiqish, dushmandan olib qo‘yilgan aloqa hujjatlari va vositalarini o‘rganish, aholi orasida so‘rov o‘tkazish. Aloqa qismi shtabi bu maqsadlar uchun maxsus guruh (komanda) tashkil etadi.

Joylikni razvedka qilish aloqa tizimini yoyish va ishlatishga ta’sir qiluvchi joylikning xususiyatlari haqida ma‘lumot olish maqsadida o‘tkaziladi. Ular qo‘yidagi ma‘lumotlarni topish va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi: yerning reliefi, holati, aloqa tugunlari, stansiyalari va liniyalarini joylashtirish va yoyish hududlari haqida, suvli va boshqa to‘siqlarning mavjudligi va xarakteri haqida; vayron bo‘lgan, yong‘in bo‘lgan va suv bosgan hududlar haqida, zaharlangan rayonlarning o‘tish yo‘nalishlari haqida, tabiiy pana joylarning himoyalash xususiyatlari haqida; aloqa samolyotlari va vertolyotlarining qo‘nish maydonchalari mavjudligi va holati. Aloqa tugunlari, liniyalari va stansiyalari yoyiladigan hududni bevosita razvedka qilish uchun aloqa qism (bo‘linma)laridan rekognosirovka guruhlari tuziladi. Ularning oldiga yoyish rayonlariga borish marshrutlari, aloqa tuguni elementlarini yoyish hududlari, shuningdek bu hududlarda minalar, fugaslar mavjudligi, hududning radioaktiv, kimyoviy, biologik (bakteriologik) zararlanishni razvedka qilish vazifalari qo‘yiladi.

Aloqani va joylikni razvedka qilishni aloqa boshlig‘i tashkil qiladi. Birlashma (qism) aloqa boshlig‘i razvedka vazifalarini, ularni bajarish muddatlarini, razvedka olib borish uchun kuch va vositalarni belgilaydi.

Bo‘ysunuvchi qism (bo‘linma) shtablariga aloqa bo‘yicha vazifalar aloqa bo‘yicha farmoyishlarda belgilanishi yoki ularga alohida farmoyishlarda yetkazilishi mumkin.

Bevosita bo‘ysungan kishilarga aloqa va joylikni razvedka qilish bo‘yicha vazifalar, odatda oldindan beriladigan farmoyishlarda va aloqa o‘rnatish bo‘yicha topshiriq qo‘yilayotganda beriladi. Razvedka vaqtida olingan ma‘lumotlar ishchi xaritalarga chiziladi va aloqa boshlig‘iga yetkaziladi.

Aloqa tizimi elementlarini, qism va bo‘linmalarini qo‘riqlash dushman razvedkasining aloqa tugunlari, stansiyalari, qism va bo‘linmalari joylashgan rayonlarga o‘tishga yo‘l qo‘ymaslik, yerdagi dushmanning, havo desantining to‘satdan hujum qilishining oldini olish, qo‘riqlayotgan qismlarga aloqa tizimi elementlarini yoyish uchun qulay vaqt va sharoit yaratish maqsadida tashkil qilinadi va amalga oshiriladi.

Simli aloqa liniyalarini qo‘riqlash dushman tarafdin muloqotlarni pinhona eshitishlariga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida tashkil qilinadi.

Aloqa tugunlari, zaxiralari, qism va bo‘linmalarning marshida (ko‘chishida) kolonnalarda kuzatish tashkil qilinadi, dushman hujum o‘yushtirganida xabar berish sitnallari, bo‘linma (ekipaj)larni harakat tartibi belgilanadi. Marsh vaqtida xabar berish va komandalarni yetkazish uchun radio va signalli aloqalardan foydalaniladi.

Aloqa tizimi elementlarini, qism va bo‘linmalarni, ular qo‘zg‘almas holatda bo‘lganlarida, tashkil qilishda quyidagi tadbirlar ko‘zda tutiladi; juda xavfli yo‘nalishlar to‘siqlar bilan yopiladi, AT o‘tuvchi yo‘llar post va sekretlar bilan berkitiladi, asosiy obektlar oldiga qo‘riqchilar qo‘yiladi, boshqa ob’ektlar patrol va dozor yordamida ko‘riqlanadi.

Boshqarish punktlarining aloqa tugunlari boshqarish tugunlarini qo‘riqlash va mudofaa qilish umumiy rejasi bo‘yicha qo‘riqlanadi. Buni qo‘shilma (qism) shtablari ishlab chiqadi. Qo‘riqlashni aloqa qism (bo‘linma)larining kuch va vositalari boshqarish punktini qo‘riqlash uchun ajratilgan qo‘shinlar bilan birgalikda amalga oshiriladi. AT elementlarini bevosita aloqa qism (bo‘linma) shaxsiy tarkibi qo‘riqlaydi.

Dushman hujumini qaytarish uchun navbatchi smena va navbatchilikdan bo‘shagan shaxsiy tarkib, shuningdek yaqin masofada bo‘lgan boshqa bo‘linmalar jalb qilinadi. Qo‘riqlash navbatchilik o‘tashdan ozod bo‘lish mansabdor shaxslar tomonidan tashkil qilinadi.

Yordamchi AT (YoAT), aloqa tugunining boshqa elementlari, shuningdek aloqa qismi, bo‘linmalari, zaxirasi joylashgan rayonlarni qo‘riqlash aloqa qismi (bo‘linmasi) komandiri farmoyishi bilan tashkil qilinadi. Qism (bo‘linma) komandiri qo‘riqlashni tashkil qilishda quyidagilarni belgilaydi; qaysi yo‘nalishlarga (qaysi hududlarga) alohida e‘tibor berish, qaysi vaqtda qanday kuchlarni jalb qilish; bo‘linmalarda qanday qo‘riqlashga bevosita ega bo‘lish.

Aloqa tizimining o‘ta muhim elementlarini ko‘riqlashni kuchaytirish uchun birlashma (qism) komandiri qarori bilan qo‘shimcha kuch va vositalar ajratilishi mumkin.

8.2. Aloqaning texnik ta'minoti

Aloqaning texnik ta'minoti deganda bo'linmalarni texnik vositalar bilan o'z vaqtida ta'minlash, ularni texnik qo'llashga tayyorligini saqlash, ishonchliligini oshirish, shuningdek ishdan chiqqan aloqa texnikasini tez tiklash va qatorga qo'yish maqsadlarida o'tkaziladigan tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Aloqani texnik ta'minlashning asosiy vazifalari quyidagilar:

- aloqa bo'linmalarini to'ldirish uchun kelgan texnikani qabul qilish, yetkazish va ishga tushirish;
- aloqa texnikasida, transport bazasida va elektr agregatlarida texnik xizmat ko'rsatishning barcha turlarini o'tkazish;
- harbiy-texnik aloqa mulklari (HTM)ning belgilangan zaxiralarini yaratish, ularni saqlash transportirovka qilishga va qo'llashga tayyorlash;
- yo'qotilgan aloqa vositalari va ishlatilgan harbiy-texnik mulki (HTM)ning o'rnini o'z vaqtida to'ldirish, ishdan chiqqan texnikani o'z vaqtida evakuatsiya qilish va ta'mirlash.

Qo'shinlarni aloqa texnikasi va HTM bilan ta'minlash amaldagi shtatlar, ularning tabellari, yuqori shtab normalari va ko'rsatmalari asosida amalga oshiriladi.

Odatda texnika katta boshliq transportida keltiriladi. Texnik xizmat ko'rsatishning bosh vazifalari quyidagilar:

- aloqa vositalarining ishga tayyorgarligini ta'minlash;
- apparaturaning elektr xarakteristikalarini va ko'rsatkichlarini ekspluatatsiya hujjatlarida belgilangan norma chegarasida ushlab turish;
- aloqa vositalarini ta'mirlashlar orasidagi muddatni uzaytirish.

Texnik xizmat ko'rsatish uchun aloqa texnikasi birlashtirilgan barcha shaxsiy tarkib, zarur hollarda esa ta'mirlash bo'linmalarining shaxsiy tarkibi va texnikasi jalb qilinadi.

Aloqa texnikasi qaramog'ida bo'lgan komandir va boshliqlar uning mavjudligini, to'g'ri ishlatilayotganligini va texnik holatini muntazam ravishda quyidagicha nazorat qiladilar:

- aloqa vzvodi komandiri — kamida bir oyda bir marta;
- aloqa guruhi komandiri — kamida ikki haftada bir marta.

Nazorat vaqtida quyidagilar albatta tekshiriladi:

- apparatura, asboblari, qurilmalarning umumiy holati;
- apparatxonalarning ekspluatatsiya hujjatlarida belgilangan tarkibga mos holda jihozlanganligi;
- texnik xizmat ko'rsatishni o'z vaqtida va sifatli o'tkazish;
- barcha ko'zlagan ish rejimlarida asosiy majmuaning faoliyati;

- transport bazasining holati.

Jangovar harakatlar vaqtida texnik xizmat ko'rsatishni tashkil qilish va o'tkazish tartibi quyidagilar bilan aniqlanadi: vaziyat shartlari bilan, bajarilayotgan vazifa bilan, aloqa texnikasining mavjudligi va texnik hodati bilan, shaxsiy tarkibning tayyorgarligi bilan, ta'mirlovchi organlarni jalb qilish imkoniyati bilan. HTM ombori moddiy ta'minot alohida bo'linmasi tarkibida birlashma xo'jaligi bilan birga joylashtiriladi va ko'chiriladi.

8.3. Xo'jalik ta'minoti

Aloqa bo'linmalarining xo'jalik ta'minoti moddiy, tibbiy va boshqa xizmat ko'rsatish tadbirlarini o'z ichiga oladi. Xo'jalik ta'minoti quyidagi maqsadlarda tashkil qilinadi va amalga oshiriladi: aloqa bo'linmalarini moddiy vositalar bilan uzilishsiz ta'minlash, jangovar va boshqa texnikani benzin va dizel yoqilg'isi bilan ta'minlash, shaxsiy tarkib ovqatlanishini tashkil qilish, yarador va kasallarga tibbiy yordam ko'rsatish, ularni evakuatsiya qilish, shuningdek bo'linmalarni suv bilan, zarur bo'lganda esa yoqilg'i bilan ta'minlash. Bo'linmalar doimo belgilangan o'lchamlarda moddiy vositalar zaxirasiga ega bo'lishi kerak. Zaxira o'lchamlari O'R QK BSh rahbar organlarining tegishli buyruqlarida belgilanadi. Odatda, ular bo'linmalarni 4-6 sutkaga, oziq-ovqat bo'yicha esa 13 sutkagacha ta'minlaydilar. Vaziyatdan va bajarilayotgan vazifadan kelib chiqqan holda qo'shimcha zaxiralar ham yaratish mumkin.

Tibbiy ta'minot shaxsiy tarkibning jangovar qobiliyatini saqlash va sog'lig'ini tiklash ularni evakuatsiya qilish, davolash va safga qaytarish, shuningdek yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi va tarqalishining oldini olish maqsadida tashkil qilinadi. Xo'jalik ta'minotida dala sharoitida shaxsiy tarkibning hayot ta'minoti alohida o'rin egallaydi. Hayot ta'minoti deganda shaxsiy tarkibning ovqatga, ichimlik suviga, dam olishga va isinishga bo'lgan ehtiyojlari tushuniladi. Ovqatlanishi dala oshxonalarida yordamida tashkil qilinadi, shaxsiy tarkibga issiq ovqat odatda uch mahal beriladi. Issiq ovqatni uch mahal tayyorlab shaxsiy tarkibga berish imkoni bo'lmaganda, ikki mahal tayyorlanadi, oraliq ovqatlanishga esa sutkali ovqatlanish normasi hisobidan payok ko'rinishda beriladi. Ho'jalik ishlari va ishchilar uchun suv taminlash punktlaridan avtosisternalarda olib kelinadi. Bir kishining suv sarf qilish normasi bir kunda 15 litrni tashkil etadi. Dala sharoitida shaxsiy tarkibning dam olishi navbatma-navbat amalga oshiriladi. Shaxsiy tarkibning dam olishini tashkil qilish uchun bir nechta lager chodirlari yoyiladi yoki blindajlar tayyorlanadi. Sovuq kunlarda shaxsiy tarkib uchun isinish punktlari tashkil qilinishi lozim.

Dala sharoitida ichki kiyimlar o'rtacha 10 sutkada bir marta almashtiriladi, bunda bir marotabasi shaxsiy mulk qopchasidagi zaxira ichki kiyim hisobida amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. Aloqaning jangovar ta'minoti.
2. Jangovar ta'minotning asosiy turlari.
3. Aloqaning texnik ta'minoti.
4. Aloqaning xo'jalik ta'minoti.
5. Aloqa tizimini dushman radiatorazvedkasidan himoyalash tadbirlari.

9. Aloqani boshqarish

Hozirgi zamon aloqa tizimi dushmanning to'xtovsiz ta'siri ostida harakatchan va murakkab faoliyati bilan tavsiflanadi. U turli vazifalarga ega bo'lgan ko'p sonli elementlardan tashkil topadi. Aloqa tizimi faoliyatining samaradorligi ko'p faktorlarga bog'liq, ular orasida aloqa bo'yicha mansabdor shaxslar tomonidan aloqani boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Aloqani boshqarish aloqa boshlig'i, aloqa qismi (bo'linmasi) komandirlari (shtablari)ning maqsadli faoliyatidan va qo'shinlarni boshqarishni ta'minlashdan iborat.

Aloqani boshqarish barqaror, uzluksiz, tezkor va pinhona bo'lishi kerak.

Aloqani boshqarishning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat: aloqa tizimi, qismi va bo'linmalarining jangovar tayyorligini ushlab turishi va jangovar qobiliyatini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish; aloqa holati haqidagi malumotlarni uzluksiz yig'ish, o'rganish, tahlil qilish va baholash, aloqa tashkil qilish bo'yicha qaror qabul qilish, aloqani rejalashtirish, qo'l ostidagilarga vazifa qo'yish; aloqa qismi va bo'linmalarni aloqa bo'yicha vazifalarni bajarishga tayyorlash; aloqa tizimining faoliyatini, aloqa qismi va bo'linmalar doimiy nazorat qilish va jangovar harakatlar vaqtida tiklash.

Aloqa tizimi, qismi va bo'linmalarining jangovar tayyorgarligini saqlash bo'yicha tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish quyidagilarni nazarda tutadi: safarbarlik rejasi bo'yicha hujjatlarni va aloqa ishining ma'lumotlarini qayta ishlash va aniqlash; birlashtirilgan tarkib bilan mashg'ulotlar va aloqa tizimi va bo'linmalarni turli jangovar tayyorgarlik darajasiga keltirish bo'yicha o'quv mashqlar o'tkazish; aloqa tizimi va bo'linmalarining tinchlik holatidan jangovar holatiga o'tkazish rejasiga ko'ra o'tkaziladigan tadbirlarni tashkil qilish va o'z vaqtida bajarish.

Aloqa holati, kuch va vositalari va ularga ta'sir ko'rsatadigan turli faktorlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash, o'rganish, tahlil qilish va baholash aloqa boshqaruvining asosiy funksiyalaridandir. Axborot to'plash va aloqa bo'yicha vaziyat ma'lumotlarini tahlil qilish, shuningdek aloqa boshqaruvi organlarining axborotlash ishlari jarayonida avvalam bor mansabdor shaxslarning aloqa vositalar yordamida to'g'ridan-to'g'ri muloqotlari yotadi. To'plangan va olingan axborot umumlashtiridadi, tahlil qilinadi, joriy vaqtdagi asosiy qismi belgilanadi va qaror qabul qilinadi.

Qaror qabul qilish - boshqarish organining (mansabdor shaxsning) aloqa tizimi, qism va bo'linmalardagi bo'ladigan o'zgarishlarga ularning ishchi holatini saqlash yoki tiklash maqsadida o'tkaziladigan javob harakatlaridir. Qaror sifati dastlabki axborotning to'liqligi va xaqqoniyligiga, qo'yilgan maqsadlarni bilish va qaror ishlab chiqish hamda qabul qilish uslublariga bog'liq.

Qaror har tomonlama yoritilgan bo'lishi, qo'yilgan vazifalarni kam kuch va vositalarni qo'llashning eng samarali uslublarini ishlab chiqishdan iborat.

U o'z ichiga quyidagilarni oladi: aloqa tizimi tuzilishini va aloqa tashkil qilish usullarini aniqlash; qo'zg'almas aloqa tizimini ishlatish va o'stirish tartibini aniqlash; aloqa bo'linmalariga vazifa qo'yish va ularni bajarish ketma-ketligini belgilash; aloqa tizimi elementlarining tayyorlik vaqtini o'rnatish; boshqarish punkti aloqa tuguni, aloqa stansiyalari va liniyalari ishdan chiqqanda aloqa o'rnatish tadbirlarini ishlab chiqish; zaxiradagi aloqa tarkibini, joylashish o'rni va ko'chish yo'nalishlarini aniqlash; aloqani ta'minlash uchun barcha zarur ma'lumolarni ishlab chiqish, aloqa tizimini dushman qirg'in vositalaridan va REXdan himoyalash; aloqa tizimi va bo'linmalarini boshqarish bo'yicha, ularning jangovar, texnik na xo'jalik ta'minoti bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish.

Aloqa kuch va vositalarini aloqa bo'yicha vazifalarni bajarishga tayyorlash hududlarni va dala aloqa vositalarini tayyorlashni ko'zda tutadi. Hududlarni tayyorlash quyidagilarni o'z ichiga oladi; himoyalangan aloqa tugunlarini va ularning alohida elementlarini qurish; mo'ljallangan hududlarda kabel liniyalarini va ichki aloqa liniyalarini, shuningdek, qo'zg'almas (garnizon) aloqa tugunlarini mo'ljallangan hudud bilan bog'lovchi aloqa liniyalarini o'tkazish. Tinchlik vaqtida oldindan aloqa tizimi elementlarini jihozlash xavf tug'ilgan davrda yoki jangovar harakatlar boshlangan vaqtda uni o'z vaqtida yoyishga sharoit yaratadi, boshqarish va aloqa tizimlarining oldindan tayyorgarligini ta'minlaydi.

Aloqa tizimi va bo'linmalarning jangovar, texnik va xo'jalik ta'minoti quyidagi maqsadlarda o'tkaziladigan tadbirlardan iborat: dushman qirg'in vositalaridan, radorazvedka va radiobostirishidan himoyalash, bo'linmalarni aloqa texnikasi bilan o'z vaqtida ta'minlash; qo'llashga tayyor holda ushlab turish, aloqa bo'linmalarining moddiy vositalariga, yonilg'i-moylash materiallariga bo'lgan

ehtiyojlarini uzilishsiz qondirish, shaxsiy tarkibning ovqatlanishini tashkil qilish, yarador va kasallarga tibbiy yordam ko'rsatish va ularni evakuatsiya qilish.

Aloqa tizimining faoliyati, aloqa bo'linmalarining holatini doimiy nazorat qilishning maqsadi axborotlarni belgilangan muddatlarda uzatish, buzilgan aloqani tiklash, yangilarini o'rnatishdan iborat.

Aloqa bo'linmalarini, aloqa tizimini va qo'shinlarni avtomatik boshqarish vositalari aloqani boshqarishning asosiy ob'ektlari hisoblanadi.

Aloqani tashkil qilishga va uning holatiga qism (bo'linma) shtab boshlig'i javobgar. Aloqa boshlig'i aloqani bevosita tashkil qiladi va uning barqaror ishlashiga javob beradi.

Aloqani boshqarish organlariga quyidagilar kiradi: aloqa boshlig'i, aloqa bo'linmalari komandirlari, aloqa o'rnatish uchun tayinlanadigan boshqa mansabdor shaxslar.

Qism (bo'linma) aloqa boshlig'i aloqani boshqarishni aloqa bo'linmalari komandirlari, shuningdek qism bo'linmalarm aloqa boshliqlari orqali amalga oshiradi.

Qism (bo'linma) aloqa boshligi bo'ysungan aloqa bo'linmasining jangovar va safarbarlik tayyorgarligiga, shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarligiga, ularning tarbiyasiga, harbiy intizomiga, siyosiy-axloqiy holatiga, aloqani o'z vaqtida rejalashtirishiga, tashkil qilishiga va ta'minlashga javob beradi.

U quyidagilarga majbur: bo'ysungan aloqa bo'linmasi shaxsiy tarkibining jangovar tayyorgarligiga rahbarlik qilish va uning jangovar shayligini ta'minlash; jangovar, ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik rejalarini, safarbarlik rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish; taktik vaziyatni va aloqa bo'yicha vaziyatni boshqarishni tashkil qilishni, o'zining va yuqori turuvchi, bo'ysunuvchi va qo'shni qo'shinlar shtablarining yoyish joylarini, ko'chish yo'nalishlarini doimo bilish; aloqani tashkil qilish uchun o'z vaqtida qaror qabul qilish, uni xaritaga rasmiylashtirish, aloqa bo'linmalari komandirlariga, bo'ysunuvchi bo'linma aloqa boshliqlariga aloqani rejalashtirish bo'yicha hamda aloqa kuch va vositalarini tayyorlash bo'yicha o'z vaqtida vazifa qo'yish; qism (bo'linma)da aloqa va avtomatlash vositalarining mavjudligi va holatini doimo bilish; aloqa tizimini yoyish va ishlatishni, uni dushmanning razvedka, qirg'in va radioelektron bostirish vositalaridan himoya ishlarini boshqarish; qo'l ostidagi bo'linmalardagi aloqa holatini bilish va ularga zarur yordam ko'rsatish; aloqani tashkil qilish va ta'minlash tajribalaridan o'rganish va umumlashtirish va uni qo'l ostidagilarga yetkazish; shaxsiy tarkib, aloqa va avtomatlash vositalaridagi yo'qotishlirni bilish va ularni to'ldirish chegaralarini ko'rish; aloqa holati va ishi xaqidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida jalgozar xabarnomaga takdam etish; ishchi holatini yuritish.

Aloqa tizimi elementlarini tezkor-texnik boshqarish uchun aloqa tuguni boshliqlari tayinlanadi.

Aloqa tuguni boshlig'i qo'mondonlikning katta (yuqori), bo'ysunuvchi va qo'shni boshqarish punktlari bilan o'z vaqtida va infatli aloqa o'rnatishga, axborotlarni belgilangan nazorat vaqtlarida yetkazishga javob beradi.

U quyidagilarni bajarishga majbur: aloqa bo'yicha taktik vaziyatni doimo bilish; aloqa tuguni va uning elementlarini yoyish joyini tanlashda ishtirok etish; aloqa tugunini yoyish; yig'ish, ko'chirishga, aloqa o'rnatishga, uning sifatli, barqaror ishlashga rahbarlik qilish; birlashma aloqa yo'nalishi boshlig'i bilan kelgan aloqa vositalarini joylashtirish; barcha turdagi axborotlarning o'rnatilgan muddatlarda o'tishini ta'minlash, uzilgan aloqani o'z vaqtida tiklash, aloqa vositalarining o'rnatilgan ish rejimlarini bajarish; aloqa xavfsizligi talablarini bajarish; stansiyalarni va apparatxonalarni yoyish; ishlatish va yig'ishda shaxsiy tarkibning texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni ta'minlash; aloqa tugunini muhandislik jihozlash, maskirovka qilish, himoyalash, quriqlash va mudofaa ishlarini tashkil qilish.

Aloqa tuguni elementlari shaxsiy tarkibining ishiga aloqa tuguni boshlig'i tayinlagan mansabdor shaxslar rahbarlik qiladi. QShM (apparatxona)lar boshliqlari shtatdagi vazifalariga mos holda o'z majburiyatlarini bajaradilar.

Aloqa yo'nalishi boshlig'i aloqa boshlig'iga (aloqa bo'linmasi komandiriga) bo'ysunadi va qo'l ostidagi bo'linmadan qo'mondonlik-kuzatish punkti (QKP) tarafiga boruvchi simli aloqa liniyasini o'z vaqtida yoyishga va barqaror ishlashga javob beradi. U quyidagilarga majbur: vazifani bajarish uchun zarur hajmda aloqa bo'yicha vaziyat va taktik vaziyatni bilishi; o'z shtabi va aloqa o'rnatayotgan bo'linma boshqarish punktlari aloqa tugunlarining joylashish o'rnini, ko'chish yo'nalishlarini va chaqiruv signallarini, shuningdek boshqarish va xabarlovchi signallarni bilish; aloqa liniyalarini o'z vaqtida yoyish, ekspluatatsion xizmat ko'rsatishni, maskirovka qilishni, qo'riqlashni va mudofaani bilish; aloqa boshlig'iga (aloqa bo'linmasi komandiriga) vazifalarni bajarishning borishi haqida, aloqaning tayyorligi haqida, aloqa o'rnatayotgan bo'linma boshqarish punkting ko'chishi haqida xabar berish; yo'nalishda radiatsion, kimyoviy va bakteriologik vaziyatni bilish; zaharlangan uchastkalar aniqlanganda aloqa boshlig'iga xabar berish va aylanib o'tish yo'llarini aniqlash.

Aloqa bo'linmasi komandiri quyidagilarga javobgar: qo'l ostidagi bo'linmaning jangovar, safarbarlik tayyorgarligiga, jangovar topshiriqlarni belgilangan muddatlarda muvaffaqiyatli bajarish; aloqa kuchlar va vositalaridan to'g'ri foydalanish; qo'l ostidagi shaxsiy tarkibning harbiy intizomiga, ma'naviy-ruhiy holatiga. U quyidagilarga majbur: taktik vaziyatni va bo'linmadagi aloqa holatini, shuningdek bo'linma hisobidagi aloqa vositalarini, qurol-yarog'ni, harakat

vositalarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanishni tashkil qilish; vazifa qo'yish va ekipaj (komanda)larni jangovar vazifalarni bajarishga tayyorlash: shaxsiy tarkibning aloqa o'rnatish ishlariga, qism boshqarish punkti aloqa tugunini yoyish, yig'ish va ko'chirish ishlariga shaxsan rahbarlik qilish, zaxiradagi aloqani ishga tayyor xolatda ushlab va ko'chishga rahbarlik qilish; bo'linmani jangovar, texnik va xo'jalik ta'minotining barcha ko'rinishlarini tashkil qilish.

Qism (bo'linma) aloqa boshlig'ining va aloqa bo'linmasi komandirining aloqa tashkil qilish bo'yicha ishi aniq vaziyatga, olingan topshiriqqa va mavjud vaqtga bog'liq. Bundan tashqari u komandir va qism (bo'linma) shtabining ish uslublari bilan ham aniqlanadi va barcha hollarda aloqani uzluksiz boshqarishni, o'z vaqtida qaror qabul qilishni, aloqani to'liq va sifatli rejalashtirishni, aloqa bo'linmalariga tayyorgarlik uchun ko'proq vaqt ajratishni ta'minlashi zarur.

Aloqani rejalashtirish ketma-ket, parallel va uyg'unlashgan ish uslublari bilan o'tkaziladi.

Rejalashtirish uchun dastlabki ma'lumotlar quyidagilar: komandir qarori; shtab boshlig'ining ko'rsatmalari yuqori shtabning aloqa bo'yicha ko'rsatmalari, qo'shin va xizmat turlari boshliqlarining ma'lumotlari; aloqa kuch va vositalarining mavjudligi va holati, aloqani rejalashtirish uchun vaqt mavjudligi.

Rejalashtirish jarayonida aloqa boshlig'i qism (bo'linma)ning vazifalarini aniqlashtiradi, qo'l ostidagilarni bo'lajak jangovar harakatlarga yo'naltiradi, aloqa bo'yicha vaziyatni baholaydi, qaror qabul qiladi, qo'l ostidagilarga vazifa qo'yadi, ishchi xaritanini ishlab chiqadi, bo'linmani vazifa bajarishga tayyorgarligini tashkil qiladi.

Aloqa boshlig'i jangovar vazifani aniqlashtirishda quyidagilarga tushunib yetishi kerak: bo'lajak jangovar harakatlar xarakterini, bo'linma vazifasini, jangovar tarkibini, kuchaytirilishini, jangovar tartibdagi o'rnini, vazifalarni bajarishga bo'linmaning tayyorlanish muddatlarini.

Komandir qaroridan va shtab boshlig'i ko'rsatmalaridan aloqa boshlig'i quyidagilarni aniqlashtirishi lozim: qism (bo'linma)ning jangovar yurish tartibining tuzilishi; bo'linmalar vazifalari, ularning o'zaro hamkorlik xakteri, boshqarish punktlarini tashkil qilish va joylashtirish, ularning ko'chish yo'nalishlari, aloqa vositalaridan foydalanish tartibi va ularning ish rejimi; aloqaning tayyor bo'lish vaqti.

Yuqori turuvchi shtabning aloqa bo'yicha ko'rsatmalaridan aloqa boshlig'i quyidagilarni aniqlashtirishi lozim: yuqori turuvchi shtab boshqarish punkti aloqa tugunini yoyish joyi, tayyorlik vaqti, ko'chish yo'nalishlari, yuqori turuvchi shtab bilan aloqa o'rnatish usullari va ketma-ketligi, qism aloqa tizimining yuqori turuvchi shtab aloqa tizimidagi o'rnini; yuqori turuvchi shtab aloqa yo'nalishining

boshlig'i vazifalari; o'zaro hamkorlik aloqasini tashkil qilish, qo'zg'almas aloqa tizimidan va yuqori turuvchi shtab aloqa tizimidan foydalanish tartibi; yuqori turuvchi shtab ajratgan aloqa kuchlari va vositalari; aloqa bo'yicha ma'lumotlardan amalda foydalanish; yuqori turuvchi shtab bilan aloqa o'rnatish vaqti, xabarlarini uzatish muddatlari.

Aloqani tashkil qilish va ta'minlashga ta'sir qiluvchi faktlarni ob'ektiv va har taraflama hisobga olish uchun, hamda bo'lajak jangda aloqa vositalari va kuchlaridan foydalanishning samarali uslublarini topish uchun aloqa boshlig'i aloqa bo'yicha vaziyatni baholaydi.

Aloqa bo'yicha vaziyatni baholashda dushmanni, o'z qo'shinlarini, jangovar harakat hududlarini, vaqtni va boshqa aloqani tashkil qilish va ta'minlashga ta'sir qiluvchi faktorlar hisobga olinadi.

Dushman baholanganda aloqa tizimiga dushman qirg'in va radioelektron kurash vositalari bilan ta'sir qilish darajasi, shuningdek qo'poruvchi-diversiya guruhlarining harakatlari tahlil qilinadi.

O'z qo'shinlari baholanganda quyidagilar tahlil qilinadi: qism (bo'linma)ning tarkibi, vazifalari, jangovar tartibi, asosiy urinishlar jamlangan yo'nalish (bosh zarba yo'nalishi), boshqarishni xamda aloqani tashkil qilish va ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi jangovar harakatlarning boshqa xususiyatlarini tashkil qilish: qo'zg'almas aloqa tizimining holati va undan foydalanish imkoniyatlari; dala aloqa vositalari va ulardan keyinchalik ham foydalanish.

Jangovar harakatlar xududi baholanganda quyidagidar tahlil qilinadi: yo'l tarmog'ining mavjudligi, holati va o'tuvchanligi, reliefi, o'simlik qatlami; joyning himoyalovchi va maskirovkalovchi xususiyatlari; suvli to'siqlarning mavjudligi: yil fasli va sutka vaqti; qorning qalinligi va yer sathining qay darajada muzlaganligi; mahalliy aholining qo'shirlarga munosabati va aloqa tashkil qilishga ta'sir qiluvchi boshqa faktorlar.

Vaqt baholanganda, ixtiyordagi vaqt resursi tahlil qilinadi hamda qaror qabul qilishga, aloqani rejalashtirishga, vazifani qo'yishga va bo'linmalarni aloqa tizimi elementlarini yoyishga tayyorlash bo'yicha amaliy ishlar vaqti hisoblanadi.

Aloqa bo'yicha vaziyatini baholashda har bir bandi asosida xulosalar chiqariladi; vaziyatni baholash vaqtida, odatda, aloqa tashkil qilish bo'yicha qarorlarning alohida elementlari belgilanadi.

Aloqa boshlig'i vazifani aniqlashtirgandan so'ng, vaziyatni va o'tkazilgan hisob-kitoblarni baholab aloqa tashkil qilish bo'yicha qarorlarni shaxsan qabul qiladi, qarorda quyidagilar ko'rsatiladi: jangovar harakatlar bosqichiga qarab mustahkam aloqa o'rnatilishi kerak bo'lgan jangovar tartib elementlari; aloqa tizimi tuzilishi; aloqa bo'linmasi vazifalari; aloqa zahirasi tarkibi va uni ishga tushirish tartibi; qism (bo'linma) boshqarish punkti ishdan chiqqan vaqtda aloqani

tiklash tartibi; aloqa tizimini himoyalash bo'yicha asosiy tadbirlar; aloqani boshqarish bo'yicha tashkiliy ishlar; aloqa va ABT-ni texnik ta'minlash masalalari; aloqani tayyorlash vaqti va aloqa tashkil qilishning boshqa masalalari.

Qism (bo'linma)larda aloqa boshlig'i qarorlarining asosiy elementlari ishchi xaritasiga rasmiylashtiriladi. Unda radioaloqa tashkil qilish tizimi ishlab chiqiladi.

Ishchi xaritada quyidagilar aks ettiriladi: qo'shinlarning to'qnashish chizig'i; chegaralash chiziqlari, mudofaa chegaralari, qism (bo'linma) vazifalari; ikkinchi eshelonni kiritish (kontrataka) chegaralari; yuqori turuvchi shtab boshqarish punkti aloqa tugunlari, o'zining qism (bo'linmasi), bo'ysunuvchi va o'zaro aloqador bo'linmalarning joylashgan o'rni va harakat vaqtidagi yo'nalishi; qism boshqarish punktini yoyish mumkin bo'lgan zaxiradagi joylar; qism yo'lkasidagi («polosa») statsionar aloqa tizimi: radio va simli aloqaning rejalashtirilgan liniyalari; qismning tayanch aloqa tugunlari va retranslyatsiya stansiyalari; feld'eger-pochta aloqasi harakatlanuvchi vositalarining ish jadvali; aloqani texnik ta'minlash organlari, yuqori shtabning ABT va o'zining qismi joylashgan o'rni; shikastlangan mashinalarni YIG'ISH punkti: aniqlangan (tahmin qilingan) dushman radioelektron kurash (REK) vositalari yoyilgan joy.

Radioaloqa chizmasida quyidagilar ko'rsatiladi: radiotarmoq (radioyo'nalish) tartib raqami, nomlanishi va tarkibi, kanal tashkil qiluvchi apparatura turi, aloqa ko'rinishi, MAA apparaturasi turi, aloqa kanali turi (simpleks, dupleks), aloqa vositalari daxldorligi.

Aloqa tashkil qilish qaroriga asoslangan holda qism aloqa boshlig'i aloqa bo'yicha ko'rsatma va aloqa bo'linmasiga jangovar ko'rsatma ishlab chiqadi.

Qismda aloqa bo'yicha buyruq va bo'ysunuvchi bo'linmaga jangovar buyruq qism aloqa boshlig'i ishchi daftarida ishlab chiqilib, shtab boshlig'i va aloqa boshlig'i tomonidan imzolanadi, hamda bo'ysunuvchi bo'linmalar aloqa boshliqlariga imzo chekish orqali tarqatiladi.

Rejalashtirish vaqtida yoki u tugagandan so'ng qism aloqa boshlig'i shaxsan aloqa vzvodi (guruhi) komandiriga va aloqaning mansabdor shaxslariga aloqa o'rnatish va ta'minlash bo'yicha vazifalarni qo'yadi.

Aloqa vzvodi komandiriga qo'yilgan vazifada quyidagilar ko'rsatilishi zarur: boshqarish punkti aloqa tugunini yoyish vaqti, joyi, ko'chish yo'nalishi; kim bilan, qanday vosita va usullar yordamida aloqa o'rnatish hamda uning vaqti; maxfiylovchi apparaturalari qo'llanilayotgan aloqa yo'nalishlari; radiovositalar ish rejimi; zahiradagi aloqa tarkibi, uning joylashgan o'rni va ishlatish tartibi: aloqa tugunlari, stansiyalari, liniyalarini dushman hujumi va REH vositlaridan himoyalash bo'yicha tashkiliy ishlar; mansabdor shaxslarni aloqa hujjatlari bilan

ta'minlash, ularning kuchga kirish va almashtirish vaqti; aloqa bo'linmalarini jangovar, texnik va xo'jalik ta'minlash tashkiliy ishlari; aloqa tizimini va bo'linmalarini boshqarish signallari.

Aloqa tuguni boshlig'iga vazifa qo'yilganda quyidagilar ko'rsatiladi: vaziyat haqida kerakli ma'lumotlar; uning tasarrufiga beriluvchi aloqa vosita va kuchlari; tugun maskirovkasi va muhandislik qurilmalarining joyi, vaqti, yoyish tartibi va ko'chishi: kim bilan, qanday vosita va usullar yordamida aloqa o'rnatish hamda uning vaqti; aloqa tugunlari va mansabdor shaxslari radioma'lumotlari va chaqiruv signallarini ishlatish vaqti va almashtirish tartibi; radiovositalar ish rejimi; boshqarish punktini ichki aloqa bilan ta'minlash tartibi; tugunni qo'riqlash va himoyalashni tashkil qilish; aloqani tekshirish vaqti va tartibi; tugunni dushman hujumi va REH vositlaridan himoyalash bo'yicha tashkiliy ishlar; AT joylashgan hudud zararlanishi xavfi tug'ilganda aloqa tuguni vositalarini shu hududdan chiqarish tartibi; harakatlanish marshrutlari; xabar qilish va boshqarish signallari.

Aloqa yo'nalishi boshlig'iga vazifa qo'yilganda quyidagilar haqida batafsil ma'lumot beriladi: vaziyat, uning tasarrufiga beriluvchi aloqa vosita va kuchlari; qism boshqarish punktini yoyish joyi va jang vaqtida harakatlanish yo'nalishi; aloqa liniyalarni yotqizish yo'nalishi; aloqa tugunlari va mansabdor shaxslarni chaqiruv signallari; xabar qilish va boshqarish signallari.

Vazifa ko'yilgandan so'ng aloqa boshlig'i o'z e'tiborini bo'linmalarni qo'yilgan vazifalarni bajarishga tayyorlash bo'yicha amaliy ishlarga qaratishi kerak.

Jang vaqtida aloqa boshlig'i qism qo'mondonlik punkti (QP)da yoyilgan boshqarish punktidan turib aloqani boshqaradi. Hujum vaqtida asosiy e'tibor birinchi eshelon, jangga kiritilganda — ikkinchi eshelon, tank hujumiga qarshi qo'shinlar zahirasi, artilleriya va ko'maklashuvchi aviatsiya bilan aloqa o'rnatishga qaratiladi.

Mudofaa vaqtida esa aloqa boshlig'i asosiy e'tiborini aloqa tizimi elementlarini dushman hujumi va razvedka vositalaridan himoyalashga qaratishi lozim, sababi qism va bo'linma boshqarish punktlari boshqalarga qaraganda bir joyda uzoq vaqt qoladilar. Bu esa ularning joyini aniqlash va ularga hujum qilish uchun qulay sharoitni yaratib beradi.

Davlat chegaralarini himoyalash bo'yicha mudofaa jangi olib borilayotganda qism aloqa boshlig'i chegara qo'shinlarining aloqa bo'yicha mansabdor shaxslari bilan ularning aloqa liniyalaridan foydalanish masalalari bo'yicha kelishib olishi kerak.

Qismning boshqarish punktlari safdan chiqqan vaqtda brigada aloqa boshlig'i qaysi batalon QKPga brigadani boshqarishni o'tkazayotgan bo'lsa, shu batalon aloqa boshlig'iga bo'linmalar bilan aloqani tiklash uchun zarur

ma'lumotlarni jo'natadi, zahiradagi aloqani chaqirish joyi va tartibini xabar qiladi hamda buzilgan aloqalarni tiklash ketma-ketligini aniqlaydi.

Belgilangan vaqtda qism (bo'linma) aloqa boshlig'i aloqa ishi va holati haqida ma'lumotlarni jangovar xabarlarga kiritiladi.

Nazorat savollari

1. Aloqani boshqarishning asosiy mazmuni nimadan iborat?
2. Aloqani boshqarish sifatlari.
3. Aloqani boshqarish organlari.
4. Aloqa tuguni boshlig'ining vazifalari.
5. Aloqa yo'nalishi boshlig'ining vazifalari.
6. Aloqa bo'linmasi komandirining vazifalari.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son farmoni. 2017 yil 7 fevral.
2. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 y.
3. T.A.Qo'chqorov, A.Ya.Negrienko, A.T.Abdujamilov "Harbiy aloqa tashkil qilish asoslari". Darslik, Toshkent, 2004y.
4. <https://www.google.com/url?sa=t&rct=j&q=&esrc=s&source=web&cd=1&ved=2ahUKEwis87mV0IreAhVNtosKHTFPafcQFjAAegQIBxAB&url=https%3A%2F%2Fppt-online.org%2F49468&usg=AOvVaw2-qsB1Qqup7J16SGDcjQKM> . "Osnovi organizatsii voennoy svyazi"
5. http://www.google.com/url?sa=t&rct=j&q=&esrc=s&source=web&cd=3&cad=rja&uact=8&ved=2ahUKEwis87mV0IreAhVNtosKHTFPafcQFjACegQIAxAB&url=http%3A%2F%2Fpreferatwork.ru%2Fcategory%2Fsvyaz%2Fview%2F418898_rol_i_mesto_voennoy_svyazi_v_upravlenii_voyskami&usg=AOvVaw2W3zlYQy_4YZCtNX9UU5P4 . "Osnovi organizatsii svyazi v suxoputnix voyskax"

Quruqlikdagi qo‘shinlarda harbiy aloqa tashkil
etish asoslari

121100, 121202, 750200 va 751100
harbiy hisob mutaxassisliklari
talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

Harbiy kafedraning 2018 yil “__” _____,
(_____ - sonli bayonnoma) majlisida
ko‘rib chiqildi va chop etishga
tavsiyalandi

TATU ilmiy-uslubiy Kengashida ko‘rib
chiqildi va chop etishga tavsiyalandi
2018 yil “__” _____, _____ - sonli
bayonnoma

Tuzuvchilar:	A.T.Abdujamilov O‘.K.Bobojonov
Taqrizchilar:	S.S.Parsiev M.J.Qutlimuratov
Mas’ul muxarrir:	A.A. Abdigapirov
Korrektor:	Sh.M.Raximov

